

Impact Factor: 4.917

ISSN: 2181-0966


DOI: 10.26739/2181-0966

www.tadqiqot.uz

JOURNAL OF

ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

Informing scientific practices around the world through research and development



SAMARKAND
STATE MEDICAL UNIVERSITY

VOLUME 7
ISSUE 1
2026

ЖУРНАЛ СТОМАТОЛОГИИ И КРАНИОФАЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 1

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

VOLUME 7, ISSUE 1



Главный редактор:

Ризаев Жасур Алимджанович
доктор медицинских наук, профессор, ректор
Самаркандского государственного медицинского
университета, Узбекистан

Заместитель главного редактора:

Юлдашев Абдуазим Абдувалиевич
доктор медицинских наук, профессор Ташкентского
государственного стоматологического института,
Узбекистан

РЕДАКЦИОННОЙ КОЛЛЕГИИ:

РЕДАКЦИОННО-КОНСУЛЬТАТИВНЫЙ СОВЕТ:

Ответственный секретарь: А.С. Кубаев – доктор медицинских наук, профессор

Э.Н. Билалов

доктор медицинских наук, профессор

Д.М. Достмухамедов

доктор медицинских наук, профессор

О.Э. Бекжанова

доктор медицинских наук, профессор

А.М. Хайдаров

доктор медицинских наук, профессор

Л.Э. Хасанова

доктор медицинских наук, профессор

Т.Э. Зойиров

доктор медицинских наук, профессор

Э.А. Ризаев

доктор медицинских наук, профессор

Ж.Ф. Шамсиев

доктор медицинских наук, доцент

С.Х. Юсупалиходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ю.А. Шукурова

доктор медицинских наук, доцент

У.Ю. Мусаев

доктор медицинских наук, доцент

А.И. Хазратов

доктор медицинских наук, доцент

А.А. Ахмедов

доктор медицинских наук, доцент

У.Н. Вахидов

доктор медицинских наук, доцент

Ж.Д. Бузрукзода

кандидат медицинских наук

М.М. Исомов

кандидат медицинских наук, доцент

Д.Ф. Раимкулова

кандидат медицинских наук, доцент

М.К. Юнусходжаева

доктор медицинских наук, доцент

Ф.Ф. Лосев

доктор медицинских наук, профессор,
заслуженный деятель науки РФ

С.П. Рубникович

академик, доктор медицинских наук,
профессор (Беларусь)

Джун-Янг Пэн

доктор медицинских наук, профессор
(Корея)

Дзинити Сакамото

доктор философии, профессор
(Япония)

М.А. Амхадова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

О.С. Гилёва

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

М.Т. Копбаева

доктор медицинских наук, профессор
(Казахстан)

А.А. Антонова

доктор медицинских наук, профессор
(РФ)

Р.О. Мухамадиев

доктор медицинских наук, профессор

Н.В. Шаковец

доктор медицинских наук, профессор
(Беларусь)

А.И. Грудянов

академик, доктор медицинских наук,
профессор (РФ)

Д.С. Аветиков

доктор медицинских наук, профессор (Украина)

Верстка: Хуршид Мирзахмедов

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

JOURNAL OF ORAL MEDICINE AND CRANIOFACIAL RESEARCH

№1 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-0966-2026-1>

Chief Editor:

Jasur A. Rizaev

*Doctor of Medical Sciences, Professor,
Rector of the Samarkand State Medical University,
Uzbekistan*

Deputy Chief Editor:

Abduazim A. Yuldashev

*Doctor of Medical Sciences, Professor of the
Tashkent State Dental Institute, Uzbekistan*

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD:

EDITORIAL ADVISORY BOARD:

Executive Secretary: A. S. Kubaev - Doctor of Medical Sciences, Professor

E.N. Bilalov

Doctor of Medical Sciences, Professor

D.M. Dostmukhamedov

Doctor of Medical Sciences, Professor

O.E. Bekjanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

A.M. Khaidarov

Doctor of Medical Sciences, Professor

L.E. Khasanova

Doctor of Medical Sciences, Professor

T.E. Zoyirov

Doctor of Medical Sciences, Professor

E.A. Rizaev

Doctor of Medical Sciences, Professor

J.F. Shamsiev

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

S.H. Yusupalikhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

Yu.A. Shukurova

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.Yu. Musaeu

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.I. Khazratov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

A.A. Akhmedov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

U.N. Vakhidov

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

J.D. Buzrukzoda

Candidate of Medical Sciences

M.M. Isomov

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

D.F. Raimkulova

Candidate of Medical Sciences, Associate Professor

M.K. Yunuskhodjaeva

Doctor of Medical Sciences, Associate Professor

F.F. Losev

Doctor of Medical Sciences, Professor,
Honored Scientist of the Russian Federation

S.P. Rubnikov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Belarus)

Jun-Yang Peng

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Korea)

Jinichi Sakamoto

Doctor of Philosophy, Professor
(Japan)

M.A. Amkhadova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

O.S. Gileva

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

M.T. Kopbaeva

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Kazakhstan)

A.A. Antonova

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Russian Federation)

R.O. Muxamadiyev

Doctor of Medical Sciences, Professor

N.V. Shakovets

Doctor of Medical Sciences, Professor
(Belarus)

A.I. Grudyanov

academician, doctor of medical sciences,
professor (Russian Federation)

D.S. Avetikov

Doctor of Medical Sciences, Professor (Ukraine)

Page Maker: Khurshid Mirzakhmedov

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Rizaev Jasur Alimjanovich, Axmedova Sayyora Muxamadovna, Absalamova Nigora Faxriddinovna OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATIDAGI LEYKOPLAKIYANING KLINIKO-MORFOLOGIK DIAGNOSTIKASI.....	6
2. Xamraeva Nilufar Xamzaevna, Turayeva Feruza Abdurashidovna ODAM PAPILLOMAVIRUSI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA OG'IZ BO'SHLIG'I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH.....	11
3. Kamilov Xaydar Pozilovich, Usmanova Lazzat Baxodirovna SURUNKALI QAYTALANUVCHI AFTOZ STOMATITDA MAHALLIY HIMOYA OMILLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI.....	15
4. Тахирова Камола Абраровна, Мирзаходжаева Нигина Фирдавсовна ДЕФИЦИТ ВИТАМИНОВ ГРУППЫ В КАК ФАКТОР РИСКА РАЗВИТИЯ АНГУЛЯРНОГО ХЕЙЛИТА.....	19
5. Vohidov Elbek Rahimovich MASHINASOZLIK KORXONALARI ISHCHILARIDA OG'IZ BO'SHLIG'I A'ZOLARIDAGI PATOLOGIK O'ZGARISHLAR (ADABIYOTLAR SHARHI).....	23
6. Исомов Мираскад Максудович, Ризаев Жасур Алимджанович, Мирзаев Алишер Умирзокович СОВРЕМЕННАЯ ДИАГНОСТИКА, ЛЕЧЕНИЕ И ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ЖИЗНИ ПАЦИЕНТОВ С СОЧЕТАННОЙ ЧЕЛЮСТНО-ЛИЦЕВОЙ ТРАВМОЙ.....	28
7. Axmedova Sayyora Muxamadovna, Absalamova Nigora Faxriddinovna OG'IZ BO'SHLIG'I LEYKOPLAKIYASIDA ASOSLI DIAGNOSTIKA VA DAVO ALGORITMI.....	37
8. Rizayev Jasur Alimjanovich, Xudoyqulov Shahzod Shavkatovich AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI STOMATOLOGIK DAVOLASHGA TAYYORLASHGA KOMPLEKS YONDASHUV.....	40
9. Махмуд Закирович Дусмухамедов, Дусмухамедов Дилшод Махмуджанович, Исроилова Жасмина Жамшидовна СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ОТДАЛЕННЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ.....	44
10. Валиева Фарангиза Садиковна СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ ЛЕЧЕНИЯ БОЛЕВОГО ДИСФУНКЦИОНАЛЬНОГО СИНДРОМА ВИСОЧНО-НИЖНЕЧЕЛЮСТНОГО СУСТАВА У БОЛЬНЫХ С ПЕРЕЛОМАМИ НИЖНЕЙ ЧЕЛЮСТИ.....	49
11. Shernazarov Otamurod Narmuratovich SURGICAL TREATMENT METHODS FOR BENIGN THYROID NODULES.....	53
12. Ахророва Малика Шавкатовна, Ражабий Музаёна Азизовна ЦЕФАЛОМЕТРИЧЕСКАЯ И ТРЕХМЕРНАЯ МОРФОМЕТРИЧЕСКАЯ ХАРАКТЕРИСТИКА ПАЦИЕНТОВ СО СКЕЛЕТНОЙ ФОРМОЙ АНОМАЛИИ ОККЛЮЗИИ III КЛАССА ПО ЭНГЛЮ.....	57
13. Saidova Muxlisa Axrorovna, Kamilov Haydar Pozilovich OSHQOZON-ICHAK KASALLIKLARI FONIDA PARODONT KASALLIKLARINING OLDINI OLISH MASALALARI.....	62
14. Болтаева Мафтуна Муминовна КЛИНИКО-БИОЛОГИЧЕСКАЯ ДИНАМИКА У ПАЦИЕНТОВ С СОЧЕТАННЫМИ ПОРАЖЕНИЯМИ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА НА ФОНЕ ХРОНИЧЕСКОЙ СЕРДЕЧНОЙ НЕДОСТАТОЧНОСТИ.....	66
15. Болтаева Фазолат Муминовна КЛИНИЧЕСКАЯ ЭФФЕКТИВНОСТЬ КОРРЕКЦИИ ОЧАГОВОЙ ДЕМИНЕРАЛИЗАЦИИ ЭМАЛИ У ДЕТЕЙ С ПАРАЗИТАРНОЙ ИНВАЗИЕЙ.....	70
16. Zoyirov Tulqin Elnazarovich, Xaydarova Durdona Munisovna SURUNKALI PARODONTITDA PULPA JAROHATLARINING UCHRASH CHASTOTASI VA MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI.....	75
17. Islamova Nilufar Bustanovna, Abdukhamidov Jurabek Laziz ugli IMPROVEMENT OF METHODS FOR EARLY DETECTION OF MAXILLOFACIAL DEFORMATIONS IN CASE OF PREMATURE TOOTH LOSS.....	79
18. Akhmedov Alisher Astanovich, Mukhiddinov Shokhrukh Gafurjon ugli THE ROLE OF EVERSTICK GLASS FIBER-REINFORCED SYSTEMS IN CORRECTING TOOTH CROWN DEFECTS.....	84
19. Islamova Nilufar Bustanovna, Nurullayeva Go'zal Abdumalikovna TISHLARNI OQARTIRISH MUOLAJASIDAN KEYINGI ASORATLAR PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY ADGEZIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	89
20. Ortikova Nargiza Xayrullayevna, Khurramova Surayyo Dustmurodovna OPTIMIZATION OF ORTHOPEDIC DENTAL TREATMENT METHODS IN PATIENTS WITH ARTERIAL HYPERTENSION.....	94
21. Akhmedov Alisher Astanovich, Toyirov Jahongir Sobirovich MORPHOFUNCTIONAL FEATURES OF ENAMEL AND PRINCIPLES OF PREVENTIVE THERAPY FOR PATIENTS WITH EARLY MANIFESTATIONS OF INCREASED TOOTH WEAR.....	99
22. Kamilov Xaydar Pazilovich, Raximova Muhabbat Azamat qizi, Xolmatova Zarnigor Dilmurod qizi BEMORNI DAVOLASH TAJRIBASI ANGULAR HEYLITNI MAHALLIY BLOKADA YORDAMIDA.....	104
23. Шукуров Ақобир Фуркатович, Иноятлов Амрилло Шодиевич, Шукурова Нодира Тиллаевна ОРГАНИЗАЦИЯ МАРШРУТА ПАЦИЕНТА И ПРАВОВАЯ ЯСНОСТЬ СТОМАТОЛОГИЧЕСКОЙ ПОМОЩИ.....	109

Rizaev Jasur Alimjanovich
Samarqand Davlat tibbiyot universiteti
Axmedova Sayyora Muxamadovna
Toshkent Davlat tibbiyot universiteti
Absalamova Nigora Faxriddinovna
Alfraganus University

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SHILLIQ QAVATIDAGI LEYKOPLAKIYANING KLINIKO- MORFOLOGIK DIAGNOSTIKASI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19538270>

ANNOTATSIYA

Leykoplakiyaning klinik ko‘rinishlari turli-tuman bo‘lib, uning yassi, verrukoz va eroziv shakllari ajratiladi. Ularning har birida epiteliyning morfologik va morfometrik o‘zgarishlari farq qiladi. An‘anaviy usullar — sitologiya va biopsiya asosiy tashxislash vositalari bo‘lib kelgan, biroq ular ko‘p hollarda invazivlik va kech bosqichlarda aniqlanishi bilan cheklanib qoladi. Oxirgi yillarda noinvaziv usullardan biri bo‘lgan optik kogerent tomografiya (OKT) stomatologiya amaliyotiga joriy etilmoqda.

Kalit so‘zlar: leykoplakiya, yassi, verrukoz, eroziv, (OKT) optik kogerent tomografiya.

Ризаев Джасур Алимжанович
Самаркандский государственный
медицинский университет
Ахмедова Сайёра Мухамадовна
Ташкентский государственный
медицинский университет
Абсаламова Нигора Фахриддиновна
Alfraganus University

КЛИНИКО-МОРФОЛОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА ЛЕЙКОПЛАКИИ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА

АННОТАЦИЯ

Лейкоплакия отличается многообразием клинических проявлений, в связи с чем выделяют её плоскую, verrukozную и эрозивную формы. Для каждой из них характерны различия в морфологических и морфометрических изменениях эпителия. Традиционные методы — цитология и биопсия — длительное время оставались основными средствами диагностики, однако во многих случаях они ограничены своей инвазивностью и выявлением заболевания на поздних стадиях. В последние годы в стоматологическую практику внедряется один из неинвазивных методов — оптическая когерентная томография (OKT).

Ключевые слова: лейкоплакия, плоскую, verrukozную, эрозивную, (OKT) оптическая когерентная томография.

Rizaev Jasur Alimzhanovich
Samarkand State
Medical University
Akhmedova Sayyora Mukhamadovna
Tashkent State
Medical University
Absalamova Nigora Fakhriddinovna
Alfraganus University

CLINICAL AND MORPHOLOGICAL DIAGNOSIS OF ORAL MUCOSAL LEUKOPLAKIA

ANNOTATION

Leukoplakia is characterized by a wide variety of clinical manifestations; therefore, its flat, verrucous, and erosive forms are distinguished. Each of these forms is associated with differences in the morphological and morphometric changes of the epithelium. Traditional methods—cytology and biopsy—have long been considered the main diagnostic tools; however, in many cases, they are limited by their invasiveness and the detection of the disease at advanced stages. In recent years, one of the noninvasive methods, optical coherence tomography (OCT), has been introduced into dental practice.

Keywords: leukoplakia, flat, verrucous, erosive, optical coherence tomography (OCT).

Kirish. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari orasida leykoplakiya keng tarqalgan va klinik jihatdan eng muhim rak oldi jarayonlardan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, og'iz bo'shlig'idagi rak oldi holatlarning katta qismi aynan leykoplakiyaga to'g'ri keladi, ularning ayrim turlari esa 3–20% holatlarda transformatsiyalanishi mumkin [1,5]. Shu boisdan, ushbu patologiyani erta aniqlash va dinamikada kuzatish stomatologiya va onkologiya sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Leykoplakiyaning klinik ko'rinishlari turli-tuman bo'lib, uning yassi, verrukoz va eroziv shakllari ajratiladi. Ularning har birida epiteliyning morfologik va morfometrik o'zgarishlari farq qiladi [3]. An'anaviy usullar — sitologiya va biopsiya asosiy tashxislash vositalari bo'lib kelgan, biroq ular ko'p hollarda invazivlik va kech bosqichlarda aniqlanishi bilan cheklanib qoladi [2,6].

Oxirgi yillarda noinvaziv usullardan biri bo'lgan optik kogerent tomografiya (OKT) stomatologiya amaliyotiga joriy etilmoqda. Bu usul orqali epiteliy va stromaning qatlamli tuzilishi, giperkeratoz va akantoz xos erta o'zgarishlarni biopsiyaga ehtiyojsiz baholash mumkin [4]. OKT tasvirlarini morfologik tahlil natijalari bilan taqqoslash, bemorlarda erta diagnostika imkoniyatlarini yanada kengaytirib, xavf guruhlarini aniqlashga yordam beradi [7].

OKT usulida olingan ma'lumotlarning morfologik va morfometrik ko'rsatkichlar bilan solishtirma tahlili ilmiy va amaliyot nuqtai nazaridan katta ahamiyatga ega. Bu yondashuv og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining rak oldi jarayonlarini erta aniqlash, klinik kuzatuv va profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish imkonini beradi.

Tadqiqot maqsadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiya holatlarida optik kogerent tomografiya orqali olingan tasvirlarni morfologik hamda morfometrik ko'rsatkichlar bilan solishtirishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya klinikasida o'tkazildi. Asosiy guruhga og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida klinik va gistologik jihatdan tasdiqlangan leykoplakiya holatlari bilan 68 nafar bemor kiritildi. Nazorat guruhini esa og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida hech qanday patologik o'zgarishlari aniqlanmagan, stomatologik va somatik kasalliklardan xoli bo'lgan 16 nafar klinik sog'lom shaxs tashkil qildi.

Barcha tekshiruvlarda optik kogerent tomografiyadan foydalanildi. OKT-diagnostika uchun Swept-Source OCT (SS-OCT) sistemasi, Novacam Technologies (Kanada) qurilmasi qo'llanildi, signalning to'liq uzunligi 1300 nm, to'qimalarning chuqurligi bo'yicha rezolyusiyasi 7–10 mkm ni tashkil etdi. OKT-tasvirlar og'iz bo'shlig'ining turli anatomik hududlaridan: lab shilliq qavati, luj, til dorsal yuzasi, qattiq tanglay va milkdan olindi. Har bir bemorda kamida 5 ta turli zonadan tasvir olindi va ular me'yoriy hamda patologik o'zgarishlar bo'yicha taqqoslab tahlil qilindi.

Morfologik tahlil maqsadida asosiy guruhdagi bemorlardan klinik ko'rsatmalarga asoslangan holda biopsiya materiallari olindi. Nazorat guruhida etik sabablarga ko'ra biopsiya

o'tkazilmadi; morfologik solishtirish uchun esa patologoanatomik arxivdagi me'yoriy gistologik preparatlar va operatsiya jarayonlarida chiqarilgan ortiqcha to'qima bo'laklaridan foydalanildi.

Olingan biopstatlar 10% formalinda mustahkamlanib, parafin bloklar tayyorlandi. Gistologik slaydlar gematoksilin-eozin bilan bo'yaldi, qo'shimcha hollarda — Van-Gizon usulida boyoq qo'llandi. Morfometrik tahlil mikroskop (Olympus BX51) yordamida amalga oshirildi, tasvirlar raqamlashtirilib, ImageJ dasturida tahlil qilindi.

Morfometrik ko'rsatkichlar sifatida quyidagilar o'rganildi: epiteliy qalinligi (mkm); bazal membrana qalinligi (mkm); epiteliyal papilla balandligi (mkm); qon tomirlar soni va diametri (1 mm² maydonga nisbatan); kollagen tolalar zichligi (u.ye.); bez atsinar tuzilishlarining o'rtacha diametri (mkm). Barcha ma'lumotlar Statistica 10.0 dasturida ishlov berildi. O'rtacha qiymat (M), standart og'ish (SD) va ishonchlilik intervallari (CI) hisoblandi. Guruhlar orasidagi farqlarni baholash uchun St'yudent t-testi va Mann-Uitni kriteriyidan foydalanildi. Ishonchlilik darajasi p<0,05 deb qabul qilindi.

Tekshirish natijalari. Tadqiqotimizda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holatini baholashda optik kogerent tomografiya (OKT) usulining imkoniyatlari o'rganildi. OKT orqali olingan informativ tasvirning chuqurligi ko'pchilik holatlarda 1,0–1,2 mm ni tashkil etdi, alveolyar shilliq qavat sohasida esa ushbu ko'rsatkich 0,5–0,6 mm atrofida bo'ldi.

Morfologik tahlil natijalari ham OKT ma'lumotlarini to'liq tasdiqladi. Gistologik kesimlarda ko'pqavatli tekis giperkeratoz epiteliy asosan 250–320 mkm qalinlikka ega bo'lsa, qattiq tanglay va milkda giperkeratoz epiteliyning qalinligi 400–450 mkm gacha yetdi.

Morfometrik ko'rsatkichlarni tahlil qilganda epiteliy qalinligi o'rtacha 280±25 mkm, milkda 410±30 mkm, lab shilliq pardasida esa 260±20 mkm ekani aniqlandi. Bazal membrana qalinligi 0,8–1,2 mkm, epiteliyal so'rg'ich balandligi esa 65±10 mkm ni tashkil qildi. Kollagen tolalarning zichligi 0,68±0,05 u.ye. deb baholandi.

OKT tomogrammalarda ikki asosiy gorizont qatlam ajratildi. Yuqori qatlam giperplaziyalangan ko'pqavatli tekis epiteliyga mos kelib, uning qalinligi o'rtacha 420–480 mkm ni tashkil etdi, bu esa nazorat guruhida qayd etilgan epiteliy qalinligiga (250–300 mkm) nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligini ko'rsatdi. Epiteliy qatlamida optik zichlikning oshishi va signal yorqinligining nazorat guruhiga nisbatan taxminan 1,3–1,5 marta yuqori ekanligi kuzatildi, bu holat giperkeratoz jarayoni bilan bog'liq deb baholandi.


OKT orqali olingan informativ tasvirning chuqurligi yassi leykoplakiya holatlarida o'rtacha 0,9–1,1 mm ni tashkil etdi va bu ko'rsatkich sog'lom shilliq qavat ko'rsatkichlariga yaqin ekanligi aniqlandi.

Leykoplakiyaning yassi shaklida gistologik kesimlarda epiteliy ko'pqavatli tekis tipga mansubligini saqlab qolgan bo'lib, uning umumiy arxitekturasi buzilmagan holda namoyon bo'ldi. Epiteliy qatlamida giperkeratoz va ayrim hollarda parakeratoz belgilari kuzatildi. Epiteliyning umumiy qalinligi

oʻrtacha 420–480 mkm ni tashkil etdi, bu koʻrsatkich nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori ekanligi qayd etildi. Morfometrik tahlil natijalariga koʻra, epiteliy qalinligi nazorat koʻrsatkichlariga nisbatan oshgan boʻlib, bazal membrana qalinligi 0,8–1,2 mkm oraligʻida saqlandi.


OKT tasvirlarining informativ chuqurligi verrukoz leykoplakiya holatlarida oʻrtacha 0,7–0,9 mm ni tashkil etdi, bu koʻrsatkich epiteliy qatlamining qalinlashishi va optik signalning yuqori soʻrilishi bilan izohlandi. Qatlamli arxitekturaning buzilishi, epiteliy qalinligining keskin oshishi, yorqinlik intensivligining yuqoriligi va epiteliy-stroma chegarasining

notekisligi verrukoz leykoplakiya uchun xos boʻlgan asosiy OKT belgilari sifatida baholandi. Epiteliy qalinligi morfometrik jihatdan oʻrtacha 450–500 mkm atrofida boʻlib, yassi leykoplakiyaga nisbatan yuqoriroq ekanligi qayd etildi. Stromada yalligʻlanish infiltratsiyasi, asosan, yengil yoki oʻrtacha darajada boʻlib, limfomakrofagal elementlar ustunlik qildi. Kollagen tolalar zich joylashgan boʻlib, fibroz jarayoni oʻrtacha darajada ifodalandi. Umuman olganda, pilikchali shakl morfologik jihatdan verrukoz leykoplakiyaning nisbatan barqarorroq va pastroq xavfli turi sifatida baholandi.



1-rasm. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatining gistologik koʻrinishi. Koʻp qatlamli yassi epiteliyda epiteliyal qatlamning akantoz, giperkeratoz va hujayra qatlamlarining qisman tartibsiz joylashishi. Bazal va parabazal qatlamlarda hujayralar proliferatsiyasi belgilari kuzatiladi. Epiteliy osti biriktiruvchi toʻqimada limfo-gistiotsitar yalligʻlanish infiltratsiyasi mavjud. **Boʻyalish:** gematoksilin va eozin (H&E). 7×200.

Soʻgalsimon shaklda morfologik oʻzgarishlar ancha yaqqol ifodalangan boʻlib, epiteliy qatlamining qoʻpol giperkeratozi, keskin akantoz va verrukoz relefli yuzasi bilan xarakterlandi. Shox qatlam juda qalinlashgan boʻlib, koʻp hollarda parakeratoz bilan birga kuzatildi. Epiteliy qalinligi oʻrtacha 520 ± 60 mkm ni tashkil etdi. Bazal membrana, asosan, saqlangan boʻlsa-da, uning ayrim sohalarda notekisligi kuzatildi, bu esa ushbu shaklning yuqori biologik faolligini koʻrsatadi (2-rasm).



2-rasm. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatida leykoplakiya holati. Epiteliy ostida limfomakrofagal infiltratsiya, ayrim hujayralarda diskeratoz va atipiya belgilarining mavjudligi koʻzga tashlanadi. Stromada yalligʻlanish hujayralari toʻplanishi va qon tomirlar

atrofida infiltratsiya qayd etilgan. Verrukoz leykoplakiyaning soʻgalsimon shaklida epiteliy osti stromasida limfotsitlar va makrofaglardan tashkil topgan zich yalligʻlanish infiltratsiyasi. **Boʻyalish:** Gematoksilin–eozin. ×200.

1-jadval. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavati morfometrik koʻrsatkichlari (oʻrtacha ± SD)

Koʻrsatkich	Nazorat	Yassi leykoplakiya	Verrukoz leykoplakiya
Epiteliy qalinligi, mkm	280 ± 25	360 ± 40	520 ± 60
Bazal membrana qalinligi, mkm	1.0 ± 0.2	1.2 ± 0.2	1.3 ± 0.2
Epiteliyal soʻrgʻich balandligi, mkm	65 ± 10	80 ± 12	110 ± 18

Qon tomirlar soni (1 mm ² ga)	22 ± 3	26 ± 4	30 ± 5
O'rtacha qon tomir diametri, mkm	22 ± 4	24 ± 5	26 ± 6
Kollagen tolalar zichligi, u.ye.	0.68 ± 0.05	0.72 ± 0.06	0.78 ± 0.07

1-jadvalda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining nazorat guruhi, yassi va verrukoz leykoplakiya holatlaridagi asosiy morfometrik ko'rsatkichlari keltirilgan. Olingan ma'lumotlar patologik jarayon og'irlashib borishi bilan morfometrik parametrlarning bosqichma-bosqich o'zgarishini yaqqol namoyon qildi. Epiteliy qalinligi nazorat guruhida o'rtacha 280 ± 25 mkm ni tashkil etgan bo'lsa, yassi leykoplakiya holatlarida ushbu ko'rsatkich 360 ± 40 mkm gacha oshgani qayd etildi. Verrukoz leykoplakiya holatlarida esa epiteliy qalinligi yanada ortib, 520 ± 60 mkm ni tashkil qildi. Bu holat epiteliyal giperplaziya va giperkeratoz jarayonlarining kuchayib borishini aks ettiradi. Bazal membrana qalinligi ham patologik guruhlarda nazoratga nisbatan biroz oshgan bo'lib, nazorat guruhida 1,0 ± 0,2 mkm, yassi leykoplakiyada 1,2 ± 0,2 mkm va verrukoz leykoplakiyada 1,3 ± 0,2 mkm ni tashkil qildi. Biroq ushbu ko'rsatkichning barcha guruhlarda saqlangani bazal membrananing yaxlitligi buzilmaganini ko'rsatadi. Epiteliyal so'rg'ichlarning balandligi patologik jarayon og'irlashgan sari sezilarli darajada oshdi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkich 65 ± 10 mkm bo'lgan bo'lsa, yassi leykoplakiyada 80 ± 12 mkm, verrukoz leykoplakiyada esa 110 ± 18 mkm ga yetdi. Bu holat epiteliy va stroma o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning faollashishi hamda proliferativ jarayonlarning kuchayishini ko'rsatadi. Qon tomirlar zichligi tahlili ham patologik guruhlarda angienez elementlarining ortib borishini tasdiqladi. Nazorat guruhida 1 mm² maydonga o'rtacha 22 ± 3 ta qon tomiri to'g'ri kelgan bo'lsa, yassi leykoplakiyada 26 ± 4 ta, verrukoz leykoplakiyada esa 30 ± 5 ta qon tomiri aniqlandi. Qon tomirlarning o'rtacha diametri ham nazorat guruhida 22 ± 4 mkm bo'lgan holda, yassi va verrukoz leykoplakiya guruhlarida mos ravishda 24 ± 5 mkm va 26 ± 6 mkm gacha oshgani qayd etildi. Kollagen tolalar zichligi ko'rsatkichi nazorat guruhida 0,68 ± 0,05 u.ye. ni tashkil etgan bo'lsa, yassi leykoplakiyada 0,72 ± 0,06 u.ye., verrukoz leykoplakiyada esa 0,78 ± 0,07 u.ye. ga yetdi. Yassi leykoplakiya guruhida epiteliy qalinligi nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha **28,6%** ga oshgan bo'lsa (360±40 mkm vs 280±25 mkm), verrukoz leykoplakiya guruhida bu ko'rsatkich **85,7%** ga oshdi (520±60 mkm vs 280±25 mkm). Effekt o'lchami (Cohen's d) yassi leykoplakiya uchun **d ≈ 2,3** (katta effekt), verrukoz leykoplakiya uchun esa **d ≈ 4,8** (juda katta effekt) ni tashkil qildi, bu epiteliyal giperplaziyaning klinik va biologik ahamiyatini ko'rsatadi. Bazal membrana qalinligi bo'yicha nazorat va patologik guruhlar o'rtasida statistik jihatdan ahamiyatli farq qayd etildi (**p < 0,05**). Yassi leykoplakiyada ushbu ko'rsatkich nazoratga nisbatan **23,1%**, verrukoz leykoplakiyada esa **69,2%** ga oshgani qayd etildi. Effekt o'lchami yassi shakl uchun **d ≈ 1,4**, verrukoz shakl uchun esa **d ≈ 3,0** ni tashkil qildi, bu proliferativ jarayonlarning faollashuvini aks ettiradi. Qon tomirlar soni va o'rtacha diametri bo'yicha ham guruhlar o'rtasida statistik ahamiyatli farq aniqlandi (**p < 0,01**). Verrukoz leykoplakiyada qon tomirlar zichligi nazorat guruhiga nisbatan **≈36,4%** ga oshgan bo'lib, effekt o'lchami **d ≈ 1,6** ni tashkil qildi. Morfologik va OKT ma'lumotlarini kompleks baholash maqsadida gibrid xavf indeksi (HRI) ishlab chiqildi. Gibrid indeks $HRI=0,70 \cdot IRI_w_{norm}+0,30 \cdot OCT_{norm}$ formulasi asosida hisoblandi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yassi leykoplakiyada $HRI \approx 0,26$ bo'lib past xavf toifasiga, verrukoz leykoplakiyada esa $HRI \approx 0,87$ bo'lib yuqori xavf toifasiga to'g'ri keldi. Bu

natijalar verrukoz shaklda proliferativ-stromal remodellanish va OKT-arxitektura buzilishlari bir vaqtda kuchayishini tasdiqlaydi. Morfologik va OKT ma'lumotlarini kompleks baholash maqsadida gibrid xavf indeksi (HRI) ishlab chiqildi. Indeks ikki qismdan tashkil topdi: (1) nazorat guruhi ko'rsatkichlari asosida Z-standartlashirilgan vaznli morfometrik indeks (IRI_w) va (2) OKT belgilari asosida hisoblangan OCT_{score} . Morfometrik indeks tarkibiga epiteliy qalinligi (0,30), epiteliyal so'rg'ich balandligi (0,25), qon tomirlar zichligi (0,15), qon tomir diametri (0,10), kollagen tolalar zichligi (0,15) va bazal membrana qalinligi (0,05) kiritildi. OKT bahosi epiteliy–stroma chegarasining saqlanishi, signal yorqinligining oshishi, informativ chuqurlikning kamayishi hamda yuza konturining notekisligi kabi 4 ta marker asosida 0–6 ball shkalada hisoblanib, normallashtirildi. Gibrid indeks $HRI=0,70 \cdot IRI_w_{norm}+0,30 \cdot OCT_{norm}$ formulasi asosida hisoblandi. Hisob-kitoblarga ko'ra, yassi leykoplakiyada $HRI \approx 0,26$ bo'lib past xavf toifasiga, verrukoz leykoplakiyada esa $HRI \approx 0,87$ bo'lib yuqori xavf toifasiga to'g'ri keldi. Bu natijalar verrukoz shaklda proliferativ-stromal remodellanish va OKT-arxitektura buzilishlari bir vaqtda kuchayishini tasdiqlaydi.

Xulosa. Shunday qilib klinik tahlil natijalariga ko'ra, 68 nafar bemorning 26 nafarida (38,2%) leykoplakiyaning yassi shakli qayd etildi. Yassi shakl ko'p holatlarda aniq chegaralangan, mexanik ta'sir bilan olib tashlanmaydigan bulutsimon oqarish ko'rinishida namoyon bo'lib, asosan yonoq shilliq qavati (42,3%) hamda tilning yon va pastki yuzasi (26,9%)da joylashganligi kuzatildi. Anamnestik ma'lumotlarda surunkali mexanik ta'sir omillari (57,7%) va chekish odati (46,2%) muhim etiologik faktorlar sifatida ajralib turdi. Tadqiqotda verrukoz leykoplakiya aniqlangan 14 nafar bemorning 10 nafarida (71,4%) so'galsimon, 4 nafarida (28,6%) esa pilikchali shakl qayd etildi. So'galsimon shakl ko'proq yonoq shilliq qavatida (60,0%) va til sohasida (30,0%) joylashgan bo'lib, klinik jihatdan zich konsistensiyali, g'adirbudir yuzali, 2–3 mm ko'tarilib turuvchi o'simtalar bilan namoyon bo'ldi. Eng muhim jihat shundaki, so'galsimon verrukoz leykoplakiya bilan kasallangan 10 bemorning 3 nafarida (30,0%) dinamik kuzatuv jarayonida xavfli transformatsiya belgilari qayd etildi, bu esa ushbu klinik shaklning yuqori biologik faolligini va klinik nazoratni kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi. OKT tahlili leykoplakiya shakllarini invaziv bo'lmagan usulda funksional-buyumli baholash imkoni borligini isbotladi. Nazorat guruhida epiteliy va stromaning ikki qatlamli arxitekturasi, epiteliy–stroma chegarasining aniq, tekis va uzluksiz saqlanganligi hamda informativ chuqurlikning 1,0–1,2 mm atrofida bo'lishi morfologik me'yor sifatida qabul qilindi. Yassi leykoplakiya holatlarida qatlamli tuzilish saqlangan holda epiteliy qalinligining oshishi (420–480 mkm), signal yorqinligining 1,3–1,5 marta kuchayishi va epiteliy–stroma chegarasining 93% holatda saqlanganligi ushbu shakl uchun xos OKT belgilari sifatida qayd etildi. Verrukoz shaklda esa epiteliy qatlamining notekis qalinlashishi (650–820 mkm), yuza konturining verrukoz relefga xos tishchali ko'rinishi, optik zichlikning 1,7–2,0 marta oshishi hamda epiteliy–stroma chegarasining 60–65% holatda notekis yoki qisman uzilgan holda kuzatilishi yuqori xavfli morfologik jarayonlarga mos keluvchi belgilar sifatida

baholandi. Informativ chuqurlikning 0,7–0,9 mm gacha kamayishi epiteliy qatlamining keskin qalinlashishi va optik signalning yuqori soʻrilishi bilan izohlandi. Shu sababli, leykoplakiyani tashxislash va dinamik kuzatishda klinik koʻrik, OKT va morfologik tahlilni kompleks tarzda qoʻllash erta aniqlash, xavfni baholash va profilaktik taktikani toʻgʻri tanlash imkonini beradi.

Adabiyotlar roʻyxati:

1. Kujan, O., Farah, C. & Johnson, N. (2020). Oral potentially malignant disorders: epidemiology, diagnosis and management in the context of the COVID-19 pandemic. *Oral Diseases*, 27(S3), pp. 403–405. <https://doi.org/10.1111/odi.13613>
2. Warnakulasuriya, S. & Kujan, O. (2020). Oral leukoplakia: aetiology, clinical presentation, and management. *Periodontology 2000*, 84(1), pp. 154–167. <https://doi.org/10.1111/prd.12346>
3. World Health Organization (WHO). (2020). *Guide to Epidemiology and Diagnosis of Oral Mucosal Diseases*. Geneva: WHO Press. Available at: <https://www.who.int>
4. Villa, A. & Woo, S.B. (2017). Leukoplakia—A Diagnostic and Management Algorithm. *Journal of Oral and Maxillofacial Surgery*, 75(4), pp. 723–734. <https://doi.org/10.1016/j.joms.2016.11.009>
5. Arduino, P.G., Bagan, J., El-Naggar, A.K. & Carrozzo, M. (2013). Oral leukoplakia: a concise review. *Oral Diseases*, 19(5), pp. 463–471. <https://doi.org/10.1111/odi.12006>
6. Warnakulasuriya, S. (2018). Clinical features and presentation of oral potentially malignant disorders. *Oral Surgery, Oral Medicine, Oral Pathology and Oral Radiology*, 125(6), pp. 582–590. <https://doi.org/10.1016/j.oooo.2018.03.011>
7. Thomson, P. (2018). Field change and oral cancer: new evidence for widespread carcinogenesis? *Oral Oncology*, 82, pp. 3–10. <https://doi.org/10.1016/j.oraloncology.2018.05.011>

Xamraeva Nilufar Xamzaevna
Turayeva Feruza Abdurashidovna
Buxoro davlat tibbiyot instituti

ODAM PAPILOMAVIRUSI BILAN KASALLANGAN BEMORLARDA OG‘IZ BO‘SHLIG‘I SHILLIQ QAVATI KASALLIKLARINING KLINIK XUSUSIYATLARINI BAHOLASH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19538280>

ANNOTATSIYA

Odam papillomavirusi (OPV) infeksiyasi og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining shakllanishi, klinik kechishi va residivlanishida asosiy etiopatogen omillardan biri hisoblanadi. Virusning epitelial hujayralarda uzoq muddat saqlanib qolishi mahalliy immun javobning izdan chiqishi, epiteliy differentsiatsiyasi buzilishi, regeneratsiya jarayonlarining sekinlashishi va surunkali yallig‘lanishning rivojlanishiga olib keladi. Klinik jihatdan bu holat eroziv-yazrali stomatit, papillomatoz o‘smalar, giperkeratoz, atrofik va displastik o‘zgarishlar, shuningdek uzoq davom etuvchi va takrorlanuvchi kechish bilan namoyon bo‘ladi. Ushbu kengaytirilgan tadqiqotda OPV infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati kasalliklarining klinik spektri, og‘irlik darajalari, klinik kechish bosqichlari, residiv chastotasi, xavf omillari hamda prognoz ko‘rsatkichlari kompleks ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar stomatologiya amaliyotida erta diagnostika, xavf guruhlarini aniqlash va individual davolash strategiyasini ishlab chiqish uchun ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so‘zlar: odam papillomavirusi, og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavati, klinik shakllar, kechish bosqichlari, stomatit, papillomatoz, residiv, xavf omillari.

Хамраева Нилуфар Хамзаевна
Тураева Феруза Абдурашидовна
Бухарский государственный
медицинский институт

ОЦЕНКА КЛИНИЧЕСКИХ ОСОБЕННОСТЕЙ ЗАБОЛЕВАНИЙ СЛИЗИСТОЙ ОБОЛОЧКИ ПОЛОСТИ РТА У ПАЦИЕНТОВ, ИНФИЦИРОВАННЫХ ВИРУСОМ ПАПИЛЛОМЫ ЧЕЛОВЕКА

АННОТАЦИЯ

Инфекция вируса папилломы человека (ВПЧ) является одним из ключевых этиопатогенетических факторов развития заболеваний слизистой оболочки полости рта. Длительная персистенция вируса в эпителиальных клетках сопровождается нарушением местного иммунного ответа, замедлением процессов регенерации и формированием хронического воспаления. Клинически это проявляется эрозивно-язвенными формами стоматита, папилломатозными разрастаниями, гиперкератозом, атрофическими и диспластическими изменениями, а также частыми рецидивами. В работе проведена расширенная комплексная оценка клинических проявлений, этапов течения, факторов риска и прогностических признаков заболеваний слизистой оболочки полости рта у пациентов с ВПЧ-инфекцией.

Ключевые слова: вирус папилломы человека, слизистая оболочка полости рта, клинические формы, рецидив, факторы риска, прогноз.

Khamraeva Nilufar Xamzayevna
Turayeva Feruza Abdurashidovna
Bukhara State Medical Institute

CLINICAL EVALUATION OF ORAL MUCOSAL DISEASES IN PATIENTS INFECTED WITH HUMAN PAPILLOMAVIRUS

ANNOTATION

Human papillomavirus (HPV) infection is one of the key etiopathogenetic factors in the development of oral mucosal diseases. Persistent viral presence in epithelial cells leads to impaired local immune responses, delayed regeneration, and chronic

inflammation. Clinically, this results in erosive-ulcerative stomatitis, papillomatous lesions, hyperkeratosis, atrophic and dysplastic changes, and frequent recurrences. This expanded study provides a comprehensive assessment of clinical manifestations, disease course stages, recurrence factors, and prognostic indicators of oral mucosal disorders in patients with HPV infection.

Keywords: human papillomavirus, oral mucosa, clinical forms, disease stages, recurrence, risk factors, prognosis.

Kirish. Odam papillomavirusi infeksiyasi (OPV) hozirgi kunda global tibbiy-biologik muammolar qatoriga kiradi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo aholisining katta qismi hayoti davomida ushbu virus bilan infitsirlanadi yoki virus tashuvchisi hisoblanadi. Ilgari OPV asosan anogenital sohadagi kasalliklar va onkologik jarayonlar bilan bog'liq holda o'rganilgan bo'lsa, so'nggi o'n yillarda uning og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari rivojlanishidagi roliga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati anatomik va fiziologik jihatdan tashqi muhit bilan bevosita aloqada bo'lgan, doimiy mexanik, kimyoviy va mikrobiologik ta'sirlarga uchraydigan murakkab biologik tizim hisoblanadi. Mazkur hududda epiteliy hujayralarining yuqori regenerativ faolligi mavjud bo'lsa-da, OPV infeksiyasining bazal qatlamda persistensiya qilishi epitelial differentsiatsiya jarayonlarini izdan chiqaradi va shilliq qavatning muhofaza funksiyasini susaytiradi.

OPVning epitelial hujayralar ichida uzoq muddat saqlanib qolishi mahalliy immun javobning buzilishi, yallig'lanish mediatorlari ishlab chiqarilishining ortishi va mikrosirkulyatsiya jarayonlarining izdan chiqishi bilan kechadi. Bu o'z navbatida klinik jihatdan eroziv-yazrali stomatit, papillomatoz o'smalar, giperkeratoz, atrofik va displastik o'zgarishlar bilan namoyon bo'ladi. Ayniqsa yuqori onkogen xavfli OPV tiplari mavjud bemorlarda kasallikning uzoq davom etuvchi, residivlovchi va davolashga qiyin kechishi qayd etiladi.

Stomatologik amaliyotda OPV bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari ko'p hollarda aniq klinik mezonlar mavjud emasligi sababli kech tashxislanadi. Bu esa kasallikning surunkali shaklga o'tishi, residiv chastotasining ortishi va ayrim hollarda prekanseroz jarayonlar rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, klinik ko'rinishlarning keng spektrini, ularning kechish xususiyatlari va og'irlik darajalarini chuqur o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

OPV infeksiyasi bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini kompleks baholash stomatologiya, virusologiya va immunologiya fanlari kesishuvida joylashgan murakkab masala hisoblanadi. Klinik belgilarning individual o'zgaruvchanligi, bemorning yoshi, jinsi, umumiy immun holati, hamroh

kasalliklari va tashqi omillar ta'siri kasallik kechishini belgilab beruvchi asosiy faktorlardan hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, ushbu tadqiqot OPV infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik xususiyatlarini kengaytirilgan, tizimli va ilmiy asoslangan tahlil qilishga qaratilgan.

Tadqiqot maqsadi: Maqsad: OPV infeksiyasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik shakllari, kechish bosqichlari va residiv omillarini kengaytirilgan kompleks baholash.

Vazifalar:

- klinik shakllar spektrini aniqlash;
- kasallik kechish bosqichlarini tavsiflash;
- residiv chastotasi va uning omillarini tahlil qilish;
- klinik ko'rsatkichlarning prognostik ahamiyatini belgilash;
- stomatologik amaliyot uchun tavsiyalar ishlab chiqish.

Materiallar va usullar: Tadqiqot 2020–2024 yillarda o'tkazildi. Unda 150 nafar bemor ishtirok etdi. Barcha bemorlarda OPV infeksiyasi laborator usullar bilan tasdiqlangan. Klinik tekshiruv standart stomatologik protokol asosida amalga oshirildi. Bemorlar klinik kechish og'irligiga qarab guruhlariga ajratildi.

OPV tiplari taqsimoti:

- 6/11 tiplar – 38,7%
- 16 tip – 40,0%
- 18 tip – 21,3%

Klinik baholashda quyidagi mezonlar hisobga olindi:

- og'riq sindromi (0–4 ball);
- shilliq qavatdagi eroziv-yazrali elementlar soni;
- giperemiya va shish darajasi;
- epitelizatsiya muddati.

Tekshiruv natijalari. Tadqiqot natijalari tahlili shuni ko'rsatdiki, odam papillomavirusi infeksiyasi bilan kasallangan bemorlarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklari klinik jihatdan turli xil shakllarda va turlicha og'irlik darajasida kechadi. Kuzatuvga olingan bemorlarning aksariyatida kasallikning residivlovchi kechishi qayd etildi, bu esa virusning epitelial hujayralarda uzoq muddat persistensiya qilish xususiyati bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi.

1-jadval.

OPV bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik shakllari

Klinik shakllar	Bemorlar soni (n=150)	%
Eroziv-yazrali stomatit	48	32,0
Papillomatoz o'smalar	41	27,3
Giperkeratoz	29	19,3
Atrofik o'zgarishlar	18	12,0
Displastik holatlar	14	9,4

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, eng ko'p uchraydigan klinik shakl eroziv-yazrali stomatit bo'lib, u bemorlarning uchdan bir qismidan ko'prog'ida aniqlandi. Papillomatoz o'smalar ham yuqori chastota bilan qayd etildi.

Klinik tahlil davomida og'riq sindromi deyarli barcha bemorlarda aniqlandi. Og'riq intensivligi kasallik og'irligi oshgan sari kuchayib bordi va ayniqsa eroziv-yazrali shakllarda yaqqol namoyon bo'ldi.

2-jadval.

Kasallik klinik kechishining og'irlik darajalari

Og'irlik darajasi	Bemorlar soni	%
Yengil	37	24,7
O'rtacha	64	42,6
Og'ir	49	32,7

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, bemorlarning aksariyatida kasallik o'rtacha va og'ir kechish bilan namoyon bo'lgan. Og'ir kechish holatlarida eroziv-yazrali elementlar soni ko'p bo'lib, epitelizatsiya jarayoni sezilarli darajada uzaygan.

Papillomatoz o'smalar bilan kechgan holatlarda klinik ko'rinishlar nisbatan uzoq davom etdi va davolashdan keyin ham residiv chastotasi yuqori bo'ldi.

3-jadval.

Klinik og'irlik indeksi va kasallik kechish ko'rsatkichlari o'rtasidagi korrelyatsiya

Ko'rsatkich	Bemorlar soni	%
Residiv mavjud	93	62,0
Residiv mavjud emas	57	38,0
Immunitet pasaygan	71	47,3
Zararli odatlar (chekish)	54	36,0

3-jadval natijalari residiv holatlari ko'pincha immun holatning pasayishi va zararli odatlar bilan bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Bu omillar kasallikning uzoq davom etishi va davolashga chidamliligini belgilab beruvchi muhim faktorlar hisoblanadi.

Xulosa. Olingan natijalar odam papillomavirusi infeksiyasi og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik kechishiga kompleks va ko'p qirrali ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Kasallikning residivlovchi xususiyati virusning epitelial hujayralarda persistensiya qilishi va mahalliy immun javobning yetarli emasligi bilan izohlanadi.

Klinik belgilarning og'irlashishi epitelial barerning buzilishi, yallig'lanish mediatorlarining ortishi va mikrosirkulyatsiya o'zgarishlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Eroziv-yazrali shakllarda og'riq sindromining yaqqol namoyon bo'lishi bemorlarning umumiy ahvoriga va ovqatlanish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatdi, bu esa stomatologik amaliyotda bunday bemorlarga alohida yondashuv talab etilishini ko'rsatadi.

Papillomatoz o'smalar bilan kechgan holatlarda klinik kechishning uzoq davom etishi va residiv chastotasining yuqoriligi virus tiplari va ularning biologik faolligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Bu holatlar prekanseroz o'zgarishlar rivojlanishi xavfini oshirishi mumkinligi sababli klinik jihatdan alohida e'tibor talab qiladi.

Muhokama jarayonida olingan natijalarning amaliy ahamiyati ham ta'kidlandi. Klinik belgillarning og'irlik darajasini aniq baholash va residiv omillarini hisobga olish individual davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega.

Xulosa. 1. Odam papillomavirusi infeksiyasi og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarining klinik ko'rinishlari, kechish og'irligi va residiv xususiyatlarini belgilab beruvchi asosiy etiopatogen omil hisoblanadi.

2. Klinik jihatdan OPV bilan bog'liq kasalliklar eroziv-yazrali stomatit, papillomatoz o'smalar, giperkeratoz va displastik o'zgarishlar bilan namoyon bo'lib, ko'p hollarda residivlovchi kechishga moyil bo'ladi.

3. Kasallik og'ir kechgan bemorlarda epitelizatsiya jarayonining uzayishi va klinik simptomlarning saqlanib qolishi kuzatiladi, bu esa regeneratsiya jarayonlarining izdan chiqishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

4. Klinik belgilarni kompleks baholash va residiv omillarini hisobga olish erta diagnostika, xavf guruhlarini aniqlash va individual davolash strategiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

5. Olingan natijalar stomatologik amaliyotda OPV infeksiyasi bilan bog'liq og'iz bo'shlig'i shilliq qavati kasalliklarini boshqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- Gillison M.L., Chaturvedi A.K., Lowy D.R. Human papillomavirus and head and neck cancer. *New England Journal of Medicine*, 2015.
- Doorbar J. Molecular biology of human papillomaviruses. *Nature Reviews Microbiology*, 2013.
- Syrjänen S. Oral manifestations of human papillomavirus infections. *Oral Oncology*, 2018.
- Mehanna H., Beech T., Nicholson T. et al. Prevalence of human papillomavirus in oral mucosa. *Annals of Oncology*, 2019.
- Kreimer A.R., Clifford G.M., Boyle P. HPV types in head and neck carcinoma. *Cancer Epidemiology*, 2017.
- Stanley M. Immune responses to human papillomavirus. *Vaccine*, 2012.
- Woo S.B., Lin D. Oral papillomas and HPV-related lesions. *Dental Clinics of North America*, 2014.
- Naglik J.R., König A. Oral mucosal immunity. *Journal of Dental Research*, 2016.
- Chaturvedi A.K. Epidemiology of oral HPV infection. *Journal of Clinical Oncology*, 2015.
- Fakhry C., Gillison M.L. Clinical implications of HPV. *The Lancet Oncology*, 2014.
- Ribeiro K.B., Levi J.E. HPV and oral mucosal lesions. *International Journal of Oral Science*, 2019.
- Termine N., Panzarella V. HPV-related oral lesions. *Journal of Oral Pathology & Medicine*, 2016.

13. Miranda-Galvis M., Santos-Silva A.R. Oral HPV infection. *Clinical Oral Investigations*, 2020.
14. D'Souza G., Kreimer A.R. Natural history of oral HPV infection. *Clinical Infectious Diseases*, 2014.
15. Zur Hausen H. Papillomaviruses and cancer. *Nature Reviews Cancer*, 2009.
16. WHO. Human papillomavirus and related diseases. WHO Report, 2022.
17. IARC. Biological agents: human papillomaviruses. IARC Monographs, 2019.

Kamilov Xaydar Pozilovich
Usmanova Lazzat Baxodirovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

SURUNKALI QAYTALANUVCHI AFTOZ STOMATITDA MAHALLIY HIMOYA OMILLARINING KLINIK-DIAGNOSTIK AHAMIYATI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19538294>

ANNOTATSIYA

Surunkali qaytalanuvchi aftoz stomatit (SQAS) — og‘iz shilliq qavatining eng ko‘p uchraydigan kasalliklaridan biri bo‘lib, tizimli infektsiya belgilarisiz og‘riqli aftalarning davriy paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadi. Kasallikning keng tarqalganligiga qaramay, uning etiologiyasi ko‘p omilli bo‘lib, to‘liq o‘rganilmagan. Shu sababli to‘g‘ri va o‘z vaqtida qo‘yilgan tashxis samarali davolashning muhim sharti hisoblanadi.

Ushbu maqolada qaytalanuvchi aftoz stomatitni diagnostika qilishning zamonaviy yondashuvlari, jumladan klinik baholash, differensial diagnostika, laborator tekshiruvlar hamda kasallik og‘irligi va bemorlar hayot sifatini baholash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: qaytalanuvchi aftoz stomatit, diagnostika, aftalar, og‘iz shilliq qavati kasalliklari, differensial diagnostika

Хайдар Камиллов Позилевич,
Лаззат Усманова Баходировна,

Ташкентский государственный медицинский университет

КЛИНИКО-ДИАГНОСТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ МЕСТНЫХ ФАКТОРОВ ЗАЩИТЫ ПРИ ХРОНИЧЕСКОМ РЕЦИДИВИРУЮЩЕМ АФТОЗНОМ СТОМАТИТЕ

АННОТАЦИЯ

Хронический рецидивирующий афтозный стоматит (ХРАС) — одно из наиболее распространённых заболеваний слизистой оболочки полости рта, характеризующееся периодическим появлением болезненных афт при отсутствии признаков системной инфекции. Несмотря на широкую распространённость, этиология заболевания остаётся многофакторной и до конца не изученной. В связи с этим своевременная и правильно установленная диагностика является важным условием эффективного лечения.

В данной статье рассмотрены современные подходы к диагностике рецидивирующего афтозного стоматита, включая клиническую оценку, дифференциальную диагностику, лабораторные исследования, а также вопросы оценки тяжести заболевания и качества жизни пациентов.

Ключевые слова: рецидивирующий афтозный стоматит, диагностика, афты, заболевания слизистой оболочки полости рта, дифференциальная диагностика

Kamilov Xaydar Pozilovich
Usmanova Lazzat Baxodirovna
Tashkent State Medical University

CLINICAL AND DIAGNOSTIC SIGNIFICANCE OF LOCAL PROTECTIVE FACTORS IN CHRONIC RECURRENT APHTHOUS STOMATITIS

ANNOTATION

Chronic recurrent aphthous stomatitis (CRAS) is one of the most common diseases of the oral mucosa, characterized by the periodic occurrence of painful aphthous ulcers in the absence of systemic infection signs. Despite its high prevalence, the etiology of the disease remains multifactorial and not fully understood. Therefore, timely and accurate diagnosis is an essential prerequisite for effective treatment.

This article discusses modern approaches to the diagnosis of recurrent aphthous stomatitis, including clinical assessment, differential diagnosis, laboratory investigations, as well as evaluation of disease severity and patients' quality of life.

Keywords: recurrent aphthous stomatitis, diagnosis, aphthae, oral mucosal diseases, differential diagnosis.

2. Дурново Е.А., Хомутичкина Н.Е., Мишина Н.В., Трофимов А.О. / Особенности реконструкции стенок орбиты при лечении травматических повреждений лицевого скелета // Медицинский альманах. 2013. № 5 (28). С.159-161. (9).
3. Карпов С.М., Христофорандо Д.Ю., Шарипов Е.М., Абидокова Ф.А. / Клиника нейрофизиологическое течение краниофациальной травмы // Кубанский научный медицинский вестник. 2011. № 2. С.76-80.

4. Левченко О.В., Шалумов А.З., Кутровская Н.Ю., Крылов В.В. / Хирургическое лечение крае орбитальных повреждений, сочетанных с черепно-мозговой травмой // Журнал вопросы нейрохирургии. 2011. №1. С.12–39.
5. Лепилин А.В. / Клинико-статистические аспекты диагностики и лечения больных с переломами нижней челюсти и их осложнениями // Dental Forum. 2014. № 4. С. 67-69.
6. Мирзабаев М. Д. / Диагностика и тактика лечения тяжелой черепно-мозговой травмы в аспекте динамики внутричерепной гипертензии // Нейрохирургия и неврология Казахстана. – 2017. - № 2(47). – С.39-44. - ISSN: 1813-3908. URL: <https://elibrary.ru/item.asp?id=29946516>.
7. Новик А.А., Ионова Т.И. / Руководство по исследованию качества жизни в медицине // под редакцией Ю. Л. Шевченко; 3-е изд., переработанное и дополненное - Москва: Издание Российской академии естественных наук, 2012. - 527 с.: ил., портр.; 21см.; ISBN978-5-94515-117-8.
8. Фирсов С.А. / Тяжелая сочетанная черепно-мозговая травма: особенности клинического течения и исходы // Журнал им. Н.В. Склифосовского «Неотложная медицинская помощь». 2017;6(4):324-330.
9. Al-Ekrish A.A., Al- Shawaf R., Schullian P., Al-Sadhan R., Hörmann R., Widmann G. / Validity of linear measurements of the jaws using ultralow- dose MDCT and the iterative techniques of ASIR and MBIR. // Int J Computer Assist Radiol Surg 2016; 11: 1791–1801. <https://doi.org/10.1007/s11548-016-1419-y>.
10. Liu F.C., Halsey J.N., Oleck N.C., Lee E.S., Granick M.S. / Facial Fractures as a Result of Falls in the Elderly: Concomitant Injuries and Management Strategies. // Craniomaxillofacial Trauma & Reconstruction. 2019;12(1):45-53. doi:10.1055/S 0038-1642034.
11. Mahmoodi B., Rahimi-Nedjat R., Weusmann J., Azaripour A., Walter C., Willershausen B. / Traumatic dental injuries in a university hospital: a four-year retrospective study. // BMC Oral Health. 2015 Nov 4;15(1):139.
12. Putri S.N.V., Fauzi A.R., Paramita D.K., Dachlan I., Seswandhana R. / Maxillofacial trauma severity effects in patients with head injury in a tertiary care center in Yogyakarta, Indonesia. // Eur J Plast Surg 2022; 45: 393–398, <https://doi.org/10.1007/s00238-021-01904-3>.

Axmedova Sayyora Muxamadovna
Toshkent Davlat tibbiyot universiteti
Absalamova Nigora Faxriddinovna
Alfraganus University

OG‘IZ BO‘SHLIG‘I LEYKOPLAKIYASIDA ASOSLI DIAGNOSTIKA VA DAVO ALGORITMI



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19538329>

ANNOTATSIYA

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti ma‘lumotlariga ko‘ra, og‘iz bo‘shlig‘ida uchraydigan rak oldi jarayonlarining salmoqli qismi aynan leykoplakiya hissasiga to‘g‘ri keladi va uning ayrim klinik shakllari xavfli transformatsiyaga moyildir. Shu sababli, leykoplakiyani erta aniqlash, xavf guruhlarini ajratish va bemorlarni to‘g‘ri dinamik kuzatuvga olish amaliyotchi shifokorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Optik kogerent tomografiya (OKT) og‘iz bo‘shlig‘i shilliq qavatining qatlamli tuzilishini real vaqtda, biopsiyaga ehtiyojsiz baholash imkonini beradigan zamonaviy usul hisoblanadi. OKT orqali epiteliy qalinligi, epiteliy–stroma chegarasining holati, giperkeratoz va proliferativ o‘zgarishlarni aniqlash mumkin.

Kalit so‘zlar: (OKT) optik kogerent tomografiya, morfologik natija leykoplakiya.

Ахмедова Сайёра Мухамедовна
Ташкентский государственный
медицинский университет
Абсаламова Нигора Фахриддиновна
Alfraganus University

АЛГОРИТМ ОСНОВНОЙ ДИАГНОСТИКИ И ЛЕЧЕНИЯ ЛЕЙКОПЛАКИИ ПОЛОСТИ РТА

АННОТАЦИЯ

По данным Всемирной организации здравоохранения, значительная часть предраковых процессов в полости рта приходится именно на лейкоплакию, и некоторые ее клинические формы склонны к злокачественной трансформации. Поэтому раннее выявление лейкоплакии, выделение групп риска и правильное динамическое наблюдение за пациентами является одной из актуальных задач, стоящих перед практикующими врачами. Оптическая когерентная томография (OKT) является современным методом, позволяющим оценить слоистую структуру слизистой оболочки полости рта в режиме реального времени, без необходимости биопсии. С помощью OKT можно определить толщину эпителия, состояние границы эпителий-stroma, гиперкератоз и пролиферативные изменения.

Ключевые слова: (OKT) оптическая когерентная томография, морфологические результаты, лейкоплакия.

Akhmedova Sayyora Mukhamadovna
Tashkent State Medical University
Absalamova Nigora Fakhriddinovna
Alfraganus University

ALGORITHM OF BASIC DIAGNOSIS AND TREATMENT OF ORAL LEUKOPLAKIA

ANNOTATION

According to the World Health Organization, a significant part of precancerous processes in the oral cavity occur precisely in leukoplakia, and some of its clinical forms are prone to malignant transformation. Therefore, early detection of leukoplakia, identification of risk groups and proper dynamic monitoring of patients is one of the urgent tasks facing practicing physicians. Optical coherence tomography (OCT) is a modern method that makes it possible to assess the layered structure of the oral mucosa in real time, without the need for a biopsy. OCT can be used to determine the thickness of the epithelium, the state of the epithelium-stroma boundary, hyperkeratosis, and proliferative changes.

Keywords: (OCT) optical coherence tomography, morphological results, leukoplakia.

Kirish. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasi hozirgi kunda butun dunyo bo'ylab stomatologik va onkologik amaliyotda jiddiy muammo sifatida qaralmoqda. Kasallikning klinik jihatdan yashirin kechishi va ayrim hollarda yassi xujayrali o'smaga transformatsiyalanishi uni erta tashxislashning ahamiyatini oshiradi. Leykoplakiyaning klinik kechishi ko'p hollarda uzoq muddat simptomisiz bo'lib, patologik jarayon faqat kech bosqichlarda aniqlanadi [3,8].

Bu holat diagnostika va davo taktikasini o'z vaqtida belgilashni qiyinlashtiradi hamda malignizatsiya xavfini oshiradi. Shu sababli, leykoplakiyani erta aniqlash, xavf guruhlarini ajratish va bemorlarni to'g'ri dinamik kuzatuvga olish amaliyotchi shifokorlar oldida turgan dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [4,5].

An'anaviy tashxislash usullari — klinik ko'rik va biopsiya — o'z ahamiyatini saqlab qolgan bo'lsa-da, ular invazivligi va har doim ham erta bosqichlarda qo'llanilmasligi bilan cheklanadi. Shu munosabat bilan, so'nggi yillarda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatini baholashda noinvaziv tasvirlash usullarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda [1,7].

Optik kogerent tomografiya (OKT) og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining qatlamli tuzilishini real vaqtda, biopsiyaga ehtiyojsiz baholash imkonini beradigan zamonaviy usul hisoblanadi. OKT orqali epiteliy qalinligi, epiteliy–stroma chegarasining holati, giperkeratoz va proliferativ o'zgarishlarni aniqlash mumkin. Ushbu usulni morfologik va morfometrik ma'lumotlar bilan qiyosiy tahlil qilish leykoplakiyaning biologik faolligini ob'ektiv baholashga xizmat qiladi [2,6].

Tadqiqot maqsadi. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasida patologik jarayonning og'irlik darajasi va malignizatsiya xavfini erta bosqichlarda aniqlash uchun klinik, optik kogerent tomografiya (OKT) hamda morfologik-morfometrik ko'rsatkichlarga asoslangan yagona, standartlashtirilgan yondashuvni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot materiallari va usullari. Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasi bilan og'irgan bemorlarda o'tkazilgan kompleks klinik, optik kogerent tomografiya (OKT), morfologik va morfometrik tekshiruvlar natijalari tashkil etdi. Tadqiqot Samarqand davlat tibbiyot universiteti stomatologiya klinikasida o'tkazildi. Asosiy guruhga og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida klinik va gistologik jihatdan tasdiqlangan leykoplakiya holatlari bilan 68 nafar bemor kiritildi. Nazorat guruhini esa og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida hech qanday patologik o'zgarishlari aniqlanmagan, stomatologik va somatik kasalliklardan xoli bo'lgan 16 nafar klinik sog'lom shaxs tashkil qildi.

Birinchi bosqichda bemorlarda umumiy klinik ko'rik o'tkazilib, leykoplakiya o'choqlarining klinik shakli (yassi, verrukoz), lokalizatsiyasi, o'lchami, yuza xususiyatlari va sub'ektiv shikoyatlar baholandi. Shuningdek, etiologik ahamiyatga ega bo'lgan omillar — uzoq muddatli mexanik travmatizatsiya, ortopedik konstruksiyalar, tamaki chekish odati kabi holatlar aniqlandi.

Ikkinchi bosqichda og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holatini baholash maqsadida optik kogerent tomografiya usuli qo'llanildi. OKT orqali epiteliy va bog'lanuvchi to'qimaning qatlamli tuzilishi, epiteliy qalinligi, epiteliy–stroma chegarasining holati, signal yorqinligi va informativ chuqurligi baholandi. Tekshiruvlar og'iz bo'shlig'ining turli anatomik sohalaridan — yonoq shilliq qavati, til, og'iz tubi, qattiq tanglay va milkdan olingan tasvirlar asosida amalga oshirildi. OKT

natijalari sog'lom shilliq qavat ko'rsatkichlari bilan taqqosiy tahlil qilindi.

Uchinchi bosqichda klinik ko'rsatmalarga muvofiq hollarda biopsiya materiallari olindi. Biopiatlar standart gistologik usullar asosida ishlov berilib, gematoksilin-eozin bilan bo'yalgan gistologik preparatlarda epiteliyning tuzilishi, giperkeratoz va akantoz darajasi, bazal membrana yaxlitligi, epiteliyal so'rg'ichlarning holati hamda stromadagi yallig'lanish va fibroz elementlari baholandi. Nazorat guruhida etik sabablarga ko'ra biopsiya o'tkazilmadi, morfologik solishtirish uchun me'yoriy gistologik arxiv materiallaridan foydalanildi. Morfometrik tahlil doirasida epiteliy qalinligi, epiteliyal so'rg'ich balandligi, bazal membrana qalinligi, qon tomirlar zichligi va diametri, shuningdek stromadagi kollagen tolalar zichligi aniqlandi. Morfometrik ko'rsatkichlar patologik jarayon og'irlashishi bilan bog'liq holda baholanib, klinik va OKT ma'lumotlari bilan qiyosiy tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlarni kompleks baholash maqsadida morfologik va morfometrik ko'rsatkichlar OKT belgilari bilan birgalikda tahlil qilinib, patologik jarayonning biologik faolligi va malignizatsiya xavfini baholashga xizmat qildi.

Tekshirish natijalari. Nazorat guruhida tekshirilgan og'iz bo'shlig'i shilliq qavatida OKT tomogrammlarda to'qimalarning aniq ikki qatlamli tuzilishi qayd etildi. Yuqori qatlam ko'pqavatli tekis epiteliyga mos kelib, uning qalinligi o'rtacha 250–300 mkm ni tashkil qildi. Quyi qatlam bog'lanuvchi to'qima (stroma) bilan ifodalaniib, epiteliy–stroma chegarasi ravshan, tekis va uzluksiz holda saqlangan. OKT tasvirining informativ chuqurligi ko'pchilik holatlarda 1,0–1,2 mm ni tashkil etdi. Optik signal yorqinligi bir xil, gomogen xarakterga ega bo'lib, patologik notekisliklar kuzatilmadi.

Bizning tadqiqotimizda leykoplakiyaning yassi shakli aniqlangan 26 nafar bemorda OKT orqali olingan tasvirlar epiteliy tuzilishining nisbatan barqaror saqlanganligini ko'rsatdi. Epiteliy qatlamining qalinligi o'rtacha 420–480 mkm ni tashkil qilib, nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada oshgani qayd etildi. Epiteliy qalinlashishi asosan simmetrik va bir me'yorda bo'lib, qatlamli arxitektura buzilmagan holda saqlangan. Verrukoz leykoplakiya aniqlangan 14 nafar bemorda OKT tasvirlari to'qima arxitekturasida yaqqol patologik o'zgarishlarni namoyon qildi. Epiteliy qatlamining qalinligi o'rtacha 650–820 mkm ni tashkil qilib, yassi leykoplakiya va nazorat guruhiga nisbatan keskin yuqori ekanligi qayd etildi. Qalinlashish notekis va asimmetrik xarakterga ega bo'lib, epiteliy yuzasida verrukoz relief aniq ko'rindi.

Ushbu tadqiqot doirasida olingan klinik, optik kogerent tomografiya (OKT) va morfologik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilish natijasida og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasida biopsiya o'tkazish zaruratini aniqlash uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan aniq ko'rsatmalar shakllantirildi. Bizning kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatdiki, biopsiya barcha leykoplakiya holatlarida emas, balki patologik jarayonning biologik faolligi oshgan holatlarda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Morfologik tahlil natijalariga ko'ra, verrukoz leykoplakiyaning ayniqsa so'galsimon shaklida epiteliy qatlamining keskin qalinlashishi, epiteliyal so'rg'ichlarning uzayishi va tartibsiz joylashuvi, bazal qatlamda proliferativ faollikning oshishi hamda stromada yallig'lanish infiltratsiyasi va fibroz belgilari aniqlandi. Ayrim holatlarda bazal membrananing notekisligi qayd etilgan bo'lib, bu patologik jarayonning yuqori biologik faolligini ko'rsatdi. Ushbu morfologik o'zgarishlar klinik va OKTda yuqori xavf

belgilari bilan bir vaqtda kuzatilganda biopsiya o'tkazish majburiy hisoblandi.

Bizning kuzatuvlarimizda yassi leykoplakiya holatlarida klinik va OKT belgilari epiteliy tuzilishining nisbatan barqaror saqlanganligini ko'rsatdi. Ushbu bemorlarda OKTda epiteliy qalinligi o'rta 420–480 mkm ni tashkil qilib, epiteliy–stroma chegarasi aniq va uzluksiz holda saqlangan. Morfologik tahlilda giperkeratoz va epiteliy giperplaziya ustun bo'lib, bazal membrana yaxlitligi saqlangan, displaziya belgilari qayd etilmagan. Verrukoz leykoplakiya bilan og'riq bemorlarda bizning tadqiqotimiz OKT va morfologik jihatdan yuqori biologik faollik belgilarini aniqladi. OKTda epiteliy qalinligining 650–820 mkm gacha oshishi, epiteliy–stroma chegarasining notekisligi yoki qisman uzilishi, optik signal yorqinligining keskin oshishi va informativ chuqurlikning kamayishi qayd etildi. Morfologik tahlilda esa qo'pol giperkeratoz, keskin akantoz, epiteliy so'rg'ichlarning uzayishi, bazal qatlamda proliferativ faollik va ayrim hollarda displastik o'zgarishlar aniqlandi.

Xulosa. Bizning tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, yassi leykoplakiya holatlarida epiteliy tuzilishi nisbatan barqaror saqlanib, morfologik jihatdan giperkeratoz va epiteliy giperplaziya bilan cheklangan o'zgarishlar ustun bo'ladi. Ushbu holatlarda OKTda qatlamli arxitektura saqlanganligi, epiteliy–

stroma chegarasining yaxlitligi va informativ chuqurlikning me'yorga yaqin ko'rsatkichlari past biologik faollik va malignizatsiya xavfining kamligini tasdiqlaydi. Shu sababli, ushbu guruh bemorlarida asossiz invaziv aralashuvlardan qochish va dinamik kuzatuvga asoslangan konservativ taktika maqbul hisoblanadi.

Verrukoz leykoplakiya holatlarida esa epiteliy qalinligining keskin oshishi, epiteliy–stroma chegarasining notekisligi, OKT signalining yuqori yorqinligi hamda informativ chuqurlikning kamayishi morfologik jihatdan qo'pol giperkeratoz, akantoz, epiteliy so'rg'ichlarning uzayishi, stromal remodellanish va ayrim hollarda displastik o'zgarishlar bilan uyg'un keldi. Bu holatlar patologik jarayonning yuqori biologik faolligini va malignizatsiya xavfining ortib borishini ko'rsatdi hamda faol diagnostik va radikal davo taktikasini qo'llash zaruratini asosladi.

Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan OKT diagnostik belgilari, morfometrik ko'rsatkichlar va integral xavf indeklari og'iz bo'shlig'i shilliq qavati leykoplakiyasida xavfga yo'naltirilgan qaror qabul qilish imkonini berdi. Morfologik va OKT ma'lumotlarining kompleks qo'llanilishi biopsiya o'tkazish ko'rsatmalarini aniqlash, davo taktikasini individuallashtirish va bemorlarni dinamik kuzatuvga to'g'ri yo'naltirishda muhim amaliy ahamiyatga ega ekanligi isbotlandi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Comparative Morphological Study of Flat and Verrucous Forms of Oral Leukoplakia// American Journal of Medicine and Medical Sciences 2025, 15(12): 4206-4211 DOI: 10.5923/j.ajmms.20251512.03// Ризаев Ж.А., Ахмедова С.М., Абсаламова Н.Ф.
2. Morphological spectrum of oral mucosal leukoplakia//“Central Asian Journal of Medicine” Volume 1, N-9, 2025, стр.186-192// Абсаламова Н.Ф., Ахмедова С.М.
3. Оғиз бўшлиғи шиллиқ қавати лейкоплакиясининг клиник ва морфологик хусусиятлари//“The Journal of humanities and natural sciences” ISSUI 27, Volume 1, 2025. 82-88-betlar. Абсаламова Н.Ф.
4. Speight P.M., Khurram S.A., Kujan O. Oral potentially malignant disorders and risk of malignant transformation. — Oral Surgery, Oral Medicine, Oral Pathology and Oral Radiology. — 2021. — Vol. 131(3). — P. 267–288.
5. Villa A., Woo S.B. Leukoplakia—current concepts in diagnosis and management. — Journal of Oral and Maxillofacial Surgery. — 2022. — Vol. 80(4). — P. 740–748.
6. Thomson P.J. Perspectives on oral leukoplakia and field cancerization. — International Journal of Oral and Maxillofacial Surgery. — 2022. — Vol. 51(9). — P. 1135–1143.
7. Arduino P.G., Bagan J.V., El-Naggar A.K. et al. Malignant transformation of oral leukoplakia: Systematic review. — Oral Oncology. — 2023. — Vol. 139. — 106345.
8. Farah C.S., Simanovic B., Savage N.W. Oral leukoplakia and epithelial dysplasia: Diagnostic update. — Australian Dental Journal. — 2021. — Vol. 66(S1). — P. S37–S44.

Rizayev Jasur Alimjanovich
Xudoyqulov Shahzod Shavkatovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

AUTISTIK SPEKTR BUZILISHLARI BO'LGAN BOLALARNI STOMATOLOGIK DAVOLASHGA TAYYORLASHGA KOMPLEKS YONDASHUV



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19538340>

ANNOTATSIYA

Stomatologik kasalliklar va ularni davolashda yuzaga keladigan muammolar har doim amaliy tibbiyotning muhim vazifalaridan biri bo'lib kelgan. Tishlarni davolash jarayonida noxush hislar, ruhiy-emotsional zo'riqish, og'riq doimiy ravishda kuzatildi. Bemorning tik turishini yengillashtirish uchun stomatologik davolanish paytida stress darajasini pasaytiruvchi vositalar kerak. Hozirda umumiy og'riqsizlantirish qo'llaniladi, davolashda mahalliy og'riqsizlantirish qo'llanila boshlandi. Bolaning tibbiyot muassasiga borishi aslida stress hisoblanadi. Autizm spektri buzilgan bolalarni stomatologik davolashga moslashtirish muammosiga kirish zamonaviy sog'liqni saqlash uchun eng murakkab va ko'p qirrali muammolardan biridir.

Kalit so'zlar: medikamentoz sedatsiya; stomatologik qabul; autistik spektr buzilishlari; farmakologik preparatlar; xavfsizlik; samaradorlik; davolashni individuallashtirish; sedatsiya protokollari; stomatologik yordam.

Rizayev Jasur Alimjanovich
Xudoykulov Shahzod Shavkatovich
Samarqandский государственный
медицинский университет

КОМПЛЕКСНЫЙ ПОДХОД К ПОДГОТОВКЕ ДЕТЕЙ С РАССТРОЙСТВАМИ АУТИСТИЧЕСКОГО СПЕКТРА К СТОМАТОЛОГИЧЕСКОМУ ЛЕЧЕНИЮ

АННОТАЦИЯ

Стоматологические заболевания и проблемы, возникающие при их лечении, всегда были одной из важных задач практической медицины. В процессе лечения зубов постоянно наблюдались неприятные ощущения, психоэмоциональное напряжение, боль. Для облегчения состояния пациента во время стоматологического лечения необходимы средства, снижающие уровень стресса. В настоящее время применяется общая анестезия, в лечении начали применять местную анестезию. Обращение ребёнка в медицинское учреждение на самом деле является стрессом. Введение в проблему адаптации детей с расстройствами аутистического спектра к стоматологическому лечению является одной из самых сложных и многогранных проблем современного здравоохранения.

Ключевые слова: медикаментозная седация; стоматологический приём; расстройства аутистического спектра; фармакологические препараты; безопасность; эффективность; индивидуализация лечения; протоколы седации; стоматологическая помощь.

Rizayev Jasur Alimjanovich
Khudoykulov Shakhzod Shavkatovich
Samarkand State Medical University

A COMPREHENSIVE APPROACH TO PREPARING CHILDREN WITH AUTISM SPECTRUM DISORDERS FOR DENTAL TREATMENT

ANNOTATION

Dental diseases and the problems arising in their treatment have always been one of the important tasks of practical medicine. During dental treatment, unpleasant sensations, psycho-emotional tension, and pain were constantly observed. To make it easier for the patient to stand upright, stress-relieving agents are needed during dental treatment. Currently, general anesthesia is used, and local anesthesia has begun to be used in treatment. A child's visit to a medical institution is actually stressful. Introspection into the problem of adapting children with autism spectrum disorders to dental treatment is one of the most complex and multifaceted problems for modern healthcare.

Keywords: medication sedation; dental appointment; autism spectrum disorders; pharmacological preparations; safety; effectiveness; treatment individualization; sedation protocols; dental care.

Neurotipik bemorlarga mo'ljallangan stomatologik qabulda o'zaro ta'sirning an'anaviy modellari ko'pincha nafaqat samarasiz, balki autizmi bola uchun travmatik bo'lib, xavotirning kuchayishi, hissiy zo'riqish va keyingi qatnovdan to'liq voz kechishni keltirib chiqaradi. Bu noto'g'ri zanjirni yaratadi: o'z vaqtida yordam ko'rsata olmaslik stomatologik kasalliklarning rivojlanishiga olib keladi, bu esa o'z navbatida surunkali og'riqni keltirib chiqaradi, ovqatlanish va hayot sifatini buzadi, asosiy buzilishning shundoq ham murakkab manzarasini chuqurlashtiradi[1,3].

Ushbu toifadagi bemorlarda stomatologik muammolarning o'ziga xosligi karies yoki parodont kasalliklari doirasidan ancha yiroqda. Stomatologik salomatlik yomonlashuvining asosan ASB tabiatiga borib taqaladi. Muloqot va ijtimoiy munosabatlardagi qiyinchiliklar bolani muntazam va to'g'ri og'iz bo'shlig'i gigiyenasiga o'rgatishga to'sqinlik qiladi. Pasta ta'miga, cho'tka tuzilishiga yoki tozalash hissiga yuqori sezuvchanlik kabi sensor xususiyatlar kundalik muolajani og'ir sinovga aylantiradi. Ko'pincha cheklangan va yumshoq, uglevodli mahsulotlarga moyil bo'lgan oziq-ovqat afzalliklari karies rivojlanishi uchun ideal muhit yaratadi. Bundan tashqari, yondosh holatlarda buyuriladigan ko'plab psixofarmakologik preparatlar so'lak ajralishini kamaytirish (kserostomiya) ko'rinishidagi nojo'ya ta'sirga ega bo'lib, bu og'iz bo'shlig'ini tabiiy himoyadan mahrum qiladi va kasallik xavfini bir necha barobar oshiradi[2,4].

Biroq, asosiy to'siq stomatologik aralashuv jarayonining o'zi bo'lib qolmoqda. ASB bilan og'riqan bola uchun stomatolog xonasi - bu oldindan aytib bo'lmaydigan va potentsial qo'rquv stimullarining kontsentratsiyasi. Chiroqning o'tkir nuri, asboblarning notanish va ko'pincha metall ovozi, tebranish, begona odamning yuzi yaqinligi, og'izda yangi taktill sezgilar, antiseptiklar va materiallarning hidlari - bularning barchasi nafaqat qo'rquvni, balki vahima, tajovuzkorlik yoki butunlay o'zini chalg'itish bilan namoyon bo'ladigan hissiy va hissiy zo'riqish holatini keltirib chiqarishi mumkin. Standart ishontirishlar, tushuntirishlar yoki chidash so'rovlari bu vaziyatda ish bermaydi, chunki bola aytilgan nutqni tushunmasligi yoki noqulay muolaja va kelajakdagi salomatlik o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqligini ko'rmasligi mumkin[3,6].

Yuqorida aytilganlar nuqtayi nazaridan, intuitsiyaga emas, balki isbotlash usullariga asoslangan kompleks moslashuv protokollarini ishlab chiqish va joriy etishning dolzarb zarurati yaqqol namoyon bo'ladi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, ASB da xulq-atvor va kommunikativ qiyinchiliklar bilan ishlashda eng samarali vosita xulq-atvorning amaliy tahlili (Applied Behavior Analysis, ABA) hisoblanadi. Uning ijobiy mustahkamlash, murakkab vazifalarni oddiy bosqichlarga ajratish (diskret sinov ta'limi), vizual yordamdan foydalanish va xatti-harakatlarni funksional tahlil qilish kabi tamoyillari stomatologiya amaliyotiga katta muvaffaqiyat bilan o'tkazilishi mumkin. Bu bolaning qarshiligini "sindirish"ga emas, balki unda hamkorlik ko'nikmalarini rejalari ravishda shakllantirishga, nomaqbul reaksiyalarni maqbul reaksiyalar bilan almashtirishga imkon beradi. Masalan, bolaga nazorat hissini beradigan "to'xta" signalini o'rgatish yoki o'rindiqda o'tirishni muhim rag'batlantirish bilan bog'lash mumkin[7,8].

ASB bilan og'riqan bolalar asosiy buzilishlar uchligi bilan tavsiflanadi: ijtimoiy o'zaro ta'sirning sifatli buzilishi, muloqotning buzilishi va xatti-harakatlar, qiziqishlar va

faoliyatning cheklangan, takrorlanuvchi va stereotipik namunalari. Ushbu xususiyatlar tibbiy, shu jumladan stomatologik yordam ko'rsatishni sezilarli darajada qiyinlashtiradi [8,9].

ASB bilan og'riqan bolalarning stomatologik salomatligi neyrotipik tengdoshlariga nisbatan sezilarli darajada yomon. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizm bilan kasallangan bolalarda kariyesning tarqalishi 60-85% ni tashkil qiladi, umumiy populyatsiyada esa bu ko'rsatkich 40-50% oralig'ida bo'ladi. Bundan tashqari, ASB bilan og'riqan bolalarda kariyesning yuqori intensivligi, og'iz bo'shlig'ining yomon gigiyenasi va parodontning yallig'lanish kasalliklarining yuqori chastotasi aniqlanadi[10].

ASB bilan og'riqan bolalarda stomatologik salomatlikning yomonlashishi sabablari xilma-xildir. Bularga quyidagilar kiradi: motor dispraksiya va kognitiv buzilishlar tufayli og'iz bo'shlig'i gigiyenasi ko'nikmalarini o'zlashtirishdagi qiyinchiliklar; ovqatlanish xulq-atvorining o'ziga xos xususiyatlari (ovqat tanlovi, uglevodli ovqatlarni afzal ko'rish); psixotrop dorilarning nojo'ya ta'siri sifatida so'lak ajralishining pasayishi; bruksizm va parafunksional odatlar; xulq-atvor muammolari tufayli stomatologik yordamga murojaat qilishning qiyinligi[11].

Tadqiqotning maqsadi. ASB bilan og'riqan bolalarda stomatologik qabulda tibbiy sedatsiya usullarini ishlab chiqish va takomillashtirishdan iborat.

Material va metodlar. Tadqiqot 108 nafar bolada o'tkazildi. Guruhga anamnezida tishlarni jarrohlik va terapevtik davolashning salbiy tajribasi bo'lgan bolalar (mahalliy anesteziyani qo'llamasdan davolash, ushlab turish bilan majburiy davolash), "oq xalatdan qo'rqish" (salbiy stomatologik tajribasiz), giperaktivlik va xarakterologik xususiyatlarga ega bo'lgan bolalar kiritilgan. Bolalarning bir qismi yuqorida ko'rsatilgan mezonlarga javob bermadi, ammo davolashning taxminiy davomiyligi, mahalliy og'riqsizlantirish va stomatologik muolajalarni qo'llash, 0 yoshdan 3 yoshgacha bo'lgan bolalar stomatologik davolashning salbiy tajribasiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu bolalar ham tadqiqot guruhiga kiritilgan.

Ota-onalarga tadqiqot maqsadi tushuntirilgandan va ixtiyoriy rozilik olingandan so'ng, bola guruhga kiritildi. Barcha bolalar ikki yosh guruhiga bo'lingan: 0-3 yosh va 3-6 yosh. Shuni ta'kidlash kerakki, kichik yosh guruhida bemorlarning o'rtacha yoshi 39 oy (2 yosh 5 oy) bo'lib, ulardan 20,6% 24 oygacha (2 yosh) bo'lgan. Tadqiqotga kiritilgan bemorlarga kombinatsiyalangan anesteziya (medikamentoz sedatsiya+mahalliy anesteziya) yoki faqat medikamentoz sedatsiya sharoitida davolanish rejalashtirilgan. Mahalliy og'riqsizlantirishni qo'llash to'g'risidagi qaror tishlarning shikastlanish darajasiga qarab stomatolog tomonidan qabul qilingan.

Medikamentoz sedatsiya midazolam preparatini (tavegil va atropin bilan kombinatsiyada) mushak orasiga yuborish orqali amalga oshirildi. Tadqiqot uchun midazolamning 0,1, 0,15 va 0,2 mg/kg dozalari qo'llanildi. Natijada, har bir yosh guruhi ichida preparat dozalariga mos keladigan 3 ta kichik guruhlar hosil bo'ldi. 20-25 daqiqadan so'ng bemor anesteziologik palatadan davolash uchun stomatolog xonasiga o'tkazildi. Medikamentoz sedatsiya chuqurligi Ramsay vizual sedatsiya shkalasi va BIS monitoringi yordamida baholandi. Bemorlarning

umumiy ahvoli Drager Infinity (Drager, Germaniya) monitori yordamida nazorat qilindi. Monitoring ma'lumotlari bemorlarning ambulator kartalarida to'liq aks ettirildi. Rejalashtirilgan stomatologik davolanishdan so'ng bemor kuzatuv uchun anesteziologik palataga o'tkazildi, u yerda umumiy somatik holat nazorat qilindi.

Medikamentoz sedatsiya holatidan chiqqandan so'ng bemorlarning muloqotchanligi va faolligi, tavsia etilgan ko'rsatmalarining aniq bajarilishi tekshirildi. Ijobiy natijaga erishilganda, ota-onalar bolani uyga olib ketishgan. Qon bosimi, yurak urish tezligi va nafas olish harakatlari ko'rsatkichlari tadqiqotning 4 bosqichida nazorat qilindi: 1) medikamentoz sedatsiya o'tkazishdan oldin bemorni tekshirish; 2) stomatologik davolashni boshlashdan oldin bemorni ko'rikdan o'tkazish (sedatsiya o'tkazilgandan so'ng 25 daqiqa o'tgach); 3) stomatologik davolash tugagandan so'ng bemorni tekshirish; 4) bemorni davolash muassasasiga tashrifni yakunlashdan oldin tekshirish (2,5-3 soatdan keyin).

Medikamentoz sedatsiya sharoitida davolash sifati ota-onalar va stomatolog-shifokorlar so'rovnomalari yordamida baholandi. Ota-onalar uchun so'rovnomalarda davolanishning qulaylik darajasi, davolanishdan keyingi yaqin davrda bolaning xatti-harakatlarining adekvatligi va bolaning kelajakda stomatologga tashrif buyurish istagi mavjudligi aks ettirildi. Shifokorlar uchun so'rovnomalarda subyektiv mezonlar aks ettirildi: 5 balli shkala bo'yicha ishlashning qulayligi, bola bilan aloqa qilish imkoniyati, bir tashrifda davolangan tishlar soni, keyingi tashriflarda bolani anesteziologik yordamsiz davolash imkoniyati (necha tashrifdan keyin), bolani olib yurishdan davolanishgacha.

Olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, medikamentoz sedatsiya sharoitida davolash ikkala yosh guruhida ham mumkin. Davolashning qulay vaqti dori vositasining kiritilgan dozasi bog'liq va bundan tashqari, dori vositasining dozasi oshishi bilan davolashning qulayligi pasayadi, gallyutsinatsiyalar va ko'zda ikkilanish, bemorlarning tormozlanishi kabi nojo'ya ta'sirlar paydo bo'ladi. 0-3 yoshlilar guruhida 0,15 mg/kg doza 2,8% holatda tormozlanishni, 0,2 mg/kg doza 42,8% holatda gallyutsinatsiya va ko'zda ikkilanishni va 11,2% holatda tormozlanishni keltirib chiqardi.

3-6 yoshlilar guruhida 0,1 mg/kg doza 2,8% holatda tormozlanishni, 0,2 mg/kg doza gallyutsinatsiya va ko'zda ikkilanishni 70% holatda va 40% holatda tormozlanishni keltirib chiqardi. Preparat dozasi oshirish ham tishlarni plombalash sifatini yaxshilamadi. Tishlarni davolash asoratlari ikkala guruhda ham qayd etilmagan. Kichik yoshdagi bolalarni bir necha tashrifdan so'ng anesteziologik qo'llanmadan foydalanmasdan davolash mumkinligi to'g'risida ma'lumotlar olindi. O'rganilayotgan preparat (midazolam) dozasi qarab fiziologik ko'rsatkichlarning qiyosiy tahlili o'tkazildi.

Natijalar va ularning muhokamasi. Autizmga do'stona stomatologik muhit yaratish tamoyillari. Sensor-do'stona muhitni yaratish ASB bilan og'rikan bolalarni muvaffaqiyatli stomatologik qabul qilishning asosiy omilidir.

Makonni jismoniy tashkil etish: Kutish zonasi:

- ASB bilan og'rikan bolalar uchun alohida tinch zona.
- Xira yorug'lik.
- Vizual stimullar minimumi (devorlarning neytral ranglari).
- Sensorli o'yinchoqlarning mavjudligi (fijetlar, og'irlashtirilgan yostiqlar).
- Qabulning vizual jadvali.
- Kutish vaqtini vizuallashtirish uchun taymer.

- Umumiy hududni chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri xonaga kirish imkoniyati.

Stomatologiya xonasi:

- Yorug'likni sozlash imkoniyati (dimmer).
- Shovqinni kamaytiruvchi yoki tinchlantiruvchi musiqali quloqliklar
- Interyerning neytral ranglari (yorqin ranglardan qochish).
- Minimal bezak elementlari
- Vizual ko'rsatmali plakatlar (xulq-atvor qoidalari).
- Bola o'zini ko'ra oladigan ko'zgu.
- Hidlarni chiqarib tashlash uchun shamollatish imkoniyati.

Sensor stimullarni o'zgartirish:

Tovush stimullari: Uskuna tovushlarini oldindan ko'rsatish mumkin bo'lgan turbinali uchliklar o'rniga past tezlikdagi uchliklardan foydalanish, baland ovozli asboblarni yoqishdan oldin ogohlantirish, shovqinni kamaytirish uchun fonli tinchlantiruvchi musiqa, quloqchinlar yoki quloqchinlar.

Ko'rish stimullari: yorug'lik yorqinligini asta-sekin oshirish, birinchi tashriflarda bilvosita yorug'likdan foydalanish, refleksni yo'naltirishdan oldin ogohlantirish, quyoshdan himoyalovchi ko'zoynak taqish imkoniyati.

Taktill stimullar: latekssiz qo'lqoplardan foydalanish (hidlar) og'izdagi muolajalardan oldin qo'l/yelkaga teginish, asta-sekin asboblarni kiritish, bosim va xotirjamlik uchun og'irlashtirilgan adyol berish, sensorli o'yinchoqni ushlagga ruxsat berish.

Hid bilish stimullari: kuchli hidsiz materiallardan foydalanish, bemorlar o'rtasida xonani shamollatish, yoqimli hidli tanish buyumni olib kelish imkoniyati.

Qabulni tashkil etish:

Qabulga yozilish: kunning birinchi yoki oxirgi tashrifi (boshqa xonalardan kamroq shovqin), yetarli vaqt (standartga nisbatan kamida ikki baravar), minimal kutish vaqti (mukammal - kutishsiz), "bo'sh" moslashuv tashrifi imkoniyati.

Ota-onalarni jalb qilish: ota-onaning xavfsizlik manbai sifatida ishtirok etishi, ota-ona bolaning qo'lini ushlab turishi, ota-onalarga qo'llab-quvvatlash usullarini o'rgatish, moslashuvni birgalikda rejalashtirish, uyda ko'nikmalarni mustahkamlash.

Bashorat qilish va nazorat qilish tizimi:

Qabulning vizual jadvali: Tarkibiy qismlar: 1. Rasm: klinikaga kirish. 2. Rasm: qabulxonada kutish. 3. Rasm: kabinetga kirish. 4. Rasm: kreslodaga o'tirish. 5. Rasm: og'izni ochish. 6. Rasm: shifokor tishlarini tekshirmoqda. 7. Rasm: protsedura (aniq). 8. Rasm: turish mumkin. 9. Rasm: mukofot olish. 10. Rasm: uyga borish.

Foydalanish sohasi: har bir bosqichdan oldin ko'rsatish, tugallangan bosqichlarni belgilash, rivojlanishni vizuallashtirish.

"Stop" signallari tizimi: bolaga "stop" imo-ishorasini o'rgatish (qo'lni ko'tarish), signal berilganda muolajani darhol to'xtatish, qisqa pauza (30 soniya, 1 daqiqa), tayyor bo'lgandan keyin davom ettirish bolaga nazorat hissini beradi.

Autizm spektrida buzilishlari bo'lgan bolalarni stomatologik davolashga moslashtirishning taklif etilgan ko'p bosqichli modelini joriy etish uning samaradorligi va amaliy qiymatini tasdiqlovchi bir qator muhim natijalarni olish imkonini bergan. Eng muhim natija nafaqat muvaffaqiyatli yakunlangan davolash muolajalari sonining ko'payishi, balki bemor, uning oilasi va tibbiyot xodimlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning sifat jihatidan o'zgarishi bo'ldi.

Adaptatsiya sikli tugagandan va asosiy davolanish o'tkazilgandan keyin bir yil davomida kuzatilgan uzoq muddatli natijalar ham umid baxsh etdi. Dasturdan muvaffaqiyatli o'tgan bolalarning 82 foizida keyingi profilaktik tashriflarda

shakllangan hamkorlik ko'nikmalari saqlanib qolgani yoki hatto yaxshilangani qayd etildi. Bu usulning uzoq muddatli ta'sirini va bunday bemorlarga inqiroz sharoitida bir martalik yordam ko'rsatishdan ko'ra, uzluksiz stomatologik yordam dasturini qurish imkoniyatini ko'rsatadi. Ota-onalarning uyda bolaning og'iz bo'shlig'i salomatligini saqlashga bo'lgan motivatsiyasi ham oshdi, chunki "gigiyena - stress - janjal" o'zaro bog'liqligi yo'qoldi.

Shunday qilib, olingan natijalar ASB bilan og'rikan bolalarni stomatologik davolashga moslashtirish utopik g'oya emas, balki erishish mumkin bo'lgan amaliy maqsad ekanligini ishonchli tarzda isbotlaydi. Muvaffaqiyat kaliti shablon yondashuvdan voz kechib, autizmga xulq-atvorning neyrobiologik asoslarini hisobga oladigan shaxsiy, sabrli va ilmiy asoslangan strategiya foydasiga hal qilishdir.

Taklif etilayotgan modelning samaradorligi nafaqat davolangan karioz bo'shliqlar soni bilan, balki kengroq ko'rsatkichlar bilan ham o'lchanadi: zaif guruhdagi bemorlarning tibbiy shikastlanishini kamaytirish, ularning hayot sifatini yaxshilash, oilalarning moliyaviy va hissiy xarajatlarini kamaytirish va oxir-oqibat, inklyuziya va oqilona moslashuv tamoyillarini kundalik stomatologik amaliyotga integratsiya qilish. Ushbu tajriba ambulator pediatrik yordamning boshqa sohalarida ham shunga o'xshash moslashuvchan protokollarni ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qilishi mumkin, bu yerda aralashuvning muvaffaqiyati bemor bilan hamkorlikka juda bog'liq.

Xulosalar. ASB bilan og'rikan bolalarni stomatologik davolashga muvaffaqiyatli moslashtirish kognitiv faoliyat, muloqot va ma'lumotlarni hissiy qayta ishlashning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda kompleks yondashuvni talab qiladi.

Sensor stimullarni minimallashtirish va maksimal bashorat qilish bilan autizmga do'stona stomatologik muhitni yaratish samarali qabul qilishning zaruriy shartidir.

Xulq-atvorni amaliy tahlil qilish (ASB) usullarini qo'llash, shu jumladan diskret sinov ta'limi, xulq-atvorni bosqichma-bosqich shakllantirish va tizimli desensibilizatsiya ASB bo'lgan bolalarning komplayentligini sezilarli darajada oshiradi.

Videomodellashtirish va ijtimoiy hikoyalar ASB bilan og'rikan bolalarni stomatologik qabulga tayyorlashning samarali vositasi bo'lib, xavotir darajasini pasaytiradi va vaziyatni oldindan bashorat qilishni oshiradi.

Vizual jadvallar va tokenlar tizimi ASB bo'lgan bolalarda jarayonning tizimligini va hamkorlikka undashni ta'minlaydi.

QASning og'irlik darajasi va komorbid holatlarning mavjudligiga qarab yondashuvni individuallashtirish muvaffaqiyatli davolashning kalitidir.

Ota-onalar va bola bilan ishlaydigan mutaxassislar (psixologlar, defektologlar, xulq-atvor terapevtlari) bilan yaqin hamkorlik moslashuv samaradorligini oshiradi.

ASB bilan og'rikan bolalarning o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha stomatologik xodimlarning malakasini doimiy ravishda oshirish ushbu toifadagi bemorlarga stomatologik yordam ko'rsatish sifatini yaxshilashga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Ризаев Ж.А., Худайкулов Ш.Ш. Применение методов прикладного анализа поведения в детской стоматологии // Стоматология детского возраста. – 2025. – № 2. – С. 56-62.
2. Кисельникова Л.П., Токарева А.В., Шевченко О.Л. Стоматологическая реабилитация детей с расстройствами аутистического спектра // Dental Forum. – 2018. – № 3. – С. 12-17.
4. Симашкова Н.В., Ключник Т.П., Якупова Л.П. Расстройства аутистического спектра: современное состояние проблемы // Психиатрия. – 2019. – Т. 17. – № 1. – С. 7-13.
5. American Academy of Pediatric Dentistry. Behavior guidance for the pediatric dental patient // Pediatric Dentistry. – 2020. – Vol. 42. – No. 6. – P. 254-270.
6. Stein L.I., Polido J.C., Mailloux Z. et al. Oral care and sensory sensitivities in children with autism spectrum disorders // Special Care in Dentistry. – 2011. – Vol. 31. – No. 3. – P. 102-110.
7. Gallagher J.E., Fiske J. Special care dentistry: a professional challenge // British Dental Journal. – 2007. – Vol. 202. – No. 10. – P. 619-629.
8. Lowe O., Lindemann R. Assessment of the autistic patient's dental needs and ability to undergo dental examination // ASDC Journal of Dentistry for Children. – 1985. – Vol. 52. – No. 1. – P. 29-35.
9. Pilebro C., Bäckman B. Teaching oral hygiene to children with autism // International Journal of Paediatric Dentistry. – 2005. – Vol. 15. – No. 1. – P. 1-
10. Shapira J., Mann J., Tamari I. et al. Oral health status and dental needs of an autistic population of children and young adults // Special Care in Dentistry. – 1989. – Vol. 9. – No. 2. – P. 38-41.

Махмуд Закирович Дусмухамедов,
Дусмухамедов Дилшод Махмуджанович,
Исроилова Жасмина Жамшидовна
Ташкентский государственный
медицинский университет

СРАВНИТЕЛЬНАЯ ОЦЕНКА ОТДАЛЕННЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПОСЛЕ УРАНОПЛАСТИКИ



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539248>

АННОТАЦИЯ

Для оценки и сравнения отдаленных результатов уранопластики нами были изучены состояние функции мягкого неба у 42 детей с вторичными и остаточными деформациями неба после уранопластики. Спектральный анализ звуков у детей с НГН в отдаленные сроки после уранопластики показывает, что степень назальности практически не меняется в динамике и подтверждает необходимость индивидуальных подходов к планированию этапов первичной уранопластики.

Ключевые слова: ВРГН, вторичные деформации неба, остаточный дефект неба, уранопластика

Maxmud Zakirovich Dusmuxamedov,
Dusmuxamedov Dilshod Maxmudjanovich,
Isroilova Jasmina Jamshidovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti

URANOPLASTIKADAN KEYINGI UZOQ MUDDATLI NATIJALARNI SOLISH TIRMA TAXLILI

ANNOTATSIYA

42 uranoplastikadan keyingi ikkilamchi va qoldiq nuqsoni bor bolalarda operatsiyadan keyingi uzoq muddatli natijalarni solishtirma taxlili yumshoq tanglayning funksional xolatiga qarab baxo berildi. Ushbu bolalarda tovushlarning spektral taxlili operatsiyadan oldin va keyingi davrda deyarli uzgarishlar kuzatilmasligi va bu xolat birlamchi uranoplastika operatsiyasi bosqichlarini rejalashtirishda individual yondashuvni talab etishi isbotlandi.

Kalit soʻzlar: TTK, uranoplastikadan keyingi ikkilamchi va qoldiq nuqson, uranoplastika

Mahmud Zakirovich Dismukhamedov,
Dismukhamedov Dilshod Makhmudjanovich,
Isroilova Jasmina Jamshidovna
Tashkent State medical university

COMPARATIVE EVALUATION OF LONG TERM RESULTS AFTER URANOPLASTY

ANNOTATION

To evaluate and compare the long-term results of uranoplasty, we studied the state of soft palate function in 42 children with secondary and residual deformations of the palate after uranoplasty. A spectral analysis of sounds in children with secondary and residual deformations of the palate in the long term after uranoplasty shows that the degree of nasality practically does not change in dynamics and confirms the need for individual approaches to planning the stages of primary uranoplasty.

Key words: CCLP, secondary deformations of the palate, residual defect of the palate, uranoplasty

Введение. Проблема врожденной патологии челюстно-лицевой зоны, в частности, врожденной расщелины верхней губы, альвеолярного отростка и неба (ВРГН), остается достаточно актуальной в современной стоматологии. Это

обусловлено высокой частотой данных пороков развития, выраженностью анатомических нарушений, неоднозначностью подходов к коррекции, сложностью лечения, постоянно возрастающими требованиями к

функциональным и эстетическим результатам хирургического и ортодонтического вмешательства (Дусмухамедов М.З., 2006; Юлдашев А.А., 2016).

Полное восстановление речи после пластики неба, в зависимости от использованной методики, колеблется от 24% до 81% (Останин В.Ф, 1980). При оценке речи логопедом выявляются различные нарушения, однако невозможно четко определить, за счет каких структур происходит их формирование, Объективность методов диагностики послеоперационных или остаточных дефектов и деформаций неба после уранопластики, заключается в использовании оптимальной технологии получения информации непосредственно с комплекса структур, отвечающих за формирование речи (Герасимова А.С., 2006; Мамедов Ад.А. 1998; Азимов М.И., 2004).

Развитие современных технологий позволяет визуализировать данные исследований. Однако оценить состояние функционирующего комплекса различных структур на основании только одного вида исследования представляется затруднительным, поскольку результаты могут быть односторонними или малоинформативными.[1,3,5,6,8]

Таким образом, для получения полного представления о результате уранопластики и планирования реконструктивных операций необходим комплексный

подход в проведении исследований в сочетании с другими диагностическими данными обследования специалистов медицинского и педагогического профиля, что позволит улучшить качество реабилитации лих детей. Изложенное выше остается актуальным и не в полной мере исследованным вопросом, что и определило цели исследования. [4,7,9,10]

Цель исследования: оценить состояние функции мягкого неба у детей с вторичными и остаточными дефектами и деформациями неба после уранопластики.

Материал и методы исследования

Для оценки и сравнения отдаленных результатов уранопластики нами были изучены состояние функции мягкого неба у 27 детей с ВД и ОД неба после уранопластики, находящихся в диспансерном наблюдении в отделении детской челюстно-лицевой хирургии клинике Ташкентского государственного стоматологического института в период с 2019-2024 гг., которым в последующем были проведены реконструктивно-восстановительные операции (таб.1). С целью систематизации клинического материала в данной работе использована классификация врождённых расщелин верхней губы и неба, предложенная Фроловой Л.Е. (1973), позволяющая определить вид расщелины и указать степень тяжести порока

Таблица 1

Распределение больных основной группы по полу, возрасту и в зависимости от тяжести патологии (n=104)

Диагноз	Возраст / пол	3-6 лет	6-9 лет	ВСЕГО
ВРН	Мальчики	2	3	12
	Девочки	2	5	
ВРГН-1	Мальчики	3	4	14
	Девочки	3	4	
ВРГН-2	Мальчики	2	6	16
	Девочки	3	5	
ИТОГО		15	27	42

Примечание:ВРН - дети с врожденной изолированной расщелиной неба; ВРГН-1– дети с врожденной односторонней расщелиной верхней губы и неба; ВРГН-2 – дети с врожденной двусторонней расщелиной верхней губы и неба. У больных 2-й и 3-й группы состояние после хейлопластики.

Методы первичной уранопластики устанавливались по выпискам из историй болезни. Результаты первичной уранопластики оценивали визуально и по степени восстановления речи (по 5-балльной шкале) и степени подвижности мягкого неба (по 3- балльной шкале):

Критерии оценки речи:

1 баллов	-	гносавая речь, отсутствие всех согласных, неправильная артикуляция йотированных гласных «я», «е», «ю».
2 баллов	-	гносавая речь, имеются несколько (до 3-х) звуков (соноры не считать)
3 баллов	-	гносавая речь, отсутствие какой – либо группы звуков и звука «р»
4 баллов	-	гносавая речь, все звуки поставлены, кроме «р», но в самой речи не используются
5 баллов	-	речь внятная, все звуки поставлены

Критерии оценки подвижности мягкого неба:

1 баллов	-	отсутствие или пассивное движение мягкого неба при фонации звука «а»
2 баллов	-	удовлетворительное движение мягкого неба при фонации звука «а»
3 баллов	-	активное движение мягкого неба при фонации звука «а», мягкое небо при фонации достигает задней стенки глотки

Для исследования функции небо-глоточного кольца нами у 66 детей с ВРН (36 девочек и 30 мальчика) в возрасте от 3-6 лет после операции были записаны и проанализированы амплитудно-временные показатели звуков «а», «и», «б», «т», «с» и степени назальности речи по предложенной М.З.Дусмухамедовым (2006) методике.

Критерии степени отсутствия назальности (N):

N = 80-100% - назальность 5 балла – произношение звука отличная;

N = 60-80% - назальность 4 балла - произношение звука хорошая;

N=40-60%- назальность 3 балла - произношение звука удовлетворительная;

N=20-40% - назальность 2 балла – произношение звука не удовлетворительная;

N=ниже 20%-назальность 1 балла – произношение звука крайне не удовлетворительная.

Следует отметить, что все исследуемый контингент получал активное логопедическое обучение, а при анализе результатов учитывались как способы операции, так степень тяжести патологии.

Результаты исследования.

Наши исследование показывают, что у детей с ВД и ОД неба после уранопластики, не зависимо от степени тяжести патологии до операции речь сильно невнятная, гнусавая, отсутствуют все согласные, наблюдается неправильная артикуляция гласных «я», «е», «ю» и при её оценке по 5 балльной шкале составляет в среднем 1,23 балла, что составляет 24,6% от нормальной речи (таб.1).

Таблица 1

Сравнительная характеристика степени восстановления речи при ВД и ОД неба после уранопластики (в баллах)

Метод операции	Оценка речи в баллах (по 5 балльной шкале)			
	До опера-ции	В отд. сроки после операции		
		ВРН	ВРГН-1	ВРГН-2
УФМ	1,22±0,10	1,51±0,20*	1,41±0,25*	1,35±0,4*
ВФ	1,23±0,23	1,54±0,20	1,40±0,27*	1,29±0,37*
BARDACH	1,26±0,23	1,52±0,28*	1,33±0,42*	1,31±0,5*
ДР.МЕТОДЫ	1,23±0,18	1,38±0,18	1,31±0,38	1,26±0,22
Based on archival data from dental records, the cause-and-effect relationship between caries, early removal of primary teeth, and the frequency and severity of dental anomalies was studied in 1,056 children aged 12–13 years. Of the 1,056 individuals (84%), 896 had a history of premature extraction of primary teeth due to complicated caries. We classified the resulting dental arch and occlusion deformities by severity and, using multivariate correlation and regression analysis, examined mathematical models of dentofacial pathology of varying severity, depending on the time of onset of dental arch defects. Screening examinations were conducted during rehabilitation activities at the aforementioned preschool and school institutions. The examination results were recorded in the "Dental System Examination Cards." We developed these cards based on the Using the data entered into the archival data from the rehabilitation records of the observed children, a personalized electronic database was created for analyzing and assessing the significance of individual factors within the complex of causes influencing the development of dental arch deformities due to premature extraction of primary teeth.

This study was conducted by constructing a mathematical model of pathology by severity, using multivariate correlation and regression analysis. To construct this model, a database schematic and tabular map was developed.

Study Results and Discussion. According to our study of 3,625 children aged 3 to 16, the caries prevalence in the primary dentition was 3.10, in the mixed dentition it was 4.99, and in the permanent dentition it was 3.18. It is noteworthy that caries in primary teeth occurs at a very early age: in 3-year-old children, the prevalence was 1.94, and by age 6, it increased to 4.26.

In the period of permanent dentition (12–16 years), complete destruction of the crowns of the first permanent molars was observed in 32 out of 92 schoolchildren, which accounted for 19.85%. With increasing age, the frequency of extraction of the first permanent molars also rises: from 3.22 % (16 out of 20 children) among those aged 6–7 years to 5.98% (18 out of 1,012 children) in the 9–12 age group, and up to 5.87% (8 out of 31 children) among adolescents aged 12–16 years.

Based on the analysis and systematization of epidemiological data obtained during a screening examination of 2,8 children aged 3 to 16 years, a clinical and morphological classification of occlusal disorders associated with premature tooth loss during the period of primary dentition was proposed and applied. Unlike previously suggested classifications, this approach takes into account not only defects of the dental arches, that is, missing teeth, but also teeth that are severely destroyed as a result of the carious process and therefore functionally inactive.

The results of the analysis demonstrated that the most significant factors influencing the development of dentoalveolar deformities of varying severity are the child's age at the time of premature extraction of primary teeth and the timing of eruption of permanent teeth ($r = 0.71$). These factors showed a strong intragroup correlation and were closely interrelated ($r = 0.87$).

In the studied model, the next most important factor was the number of missing teeth or the loss of their coronal portion ($r = 0.67$). The intensity of the carious process also demonstrated a strong association with the development of dentoalveolar anomalies in children with defects of the dental arches ($r = 0.59$). The child's health status during the first and subsequent years of life influenced both the intensity of dental caries ($r = 0.64$) and the early loss of primary teeth ($r = 0.57$), and therefore was related to the development of dentoalveolar pathology.

For the formation of dentoalveolar deformities of different severity, it was also important which functional group (anterior or posterior) the destroyed or extracted primary teeth belonged to ($r = 0.51$). Correlation analysis of the studied factors also revealed an interrelationship between the early loss of anterior primary teeth and tongue parafunctions, including disturbances in tongue position during swallowing ($r = 0.68$). Other factors

showed statistically significant but less pronounced correlations within the studied model.

It is well known that the timeliness, symmetry, and sequence of the replacement of primary teeth by permanent teeth play a decisive role in the proper formation of the dental arch and the establishment of correct occlusal relationships.




Fig. 1. Dynamics of caries intensity indicators in children of Kaeani from 3 to 6 years old

Conclusion

The findings of the present study indicate that premature loss of primary teeth plays a significant role in the development of dentoalveolar deformities and occlusal disturbances in children. The results demonstrate that the age at which early tooth extraction occurs, the timing of eruption of permanent teeth, the number of missing teeth, and the intensity of the carious process are among the key factors influencing the formation and severity of dentofacial abnormalities.

It was also established that children with intact dental arches show significantly more favorable conditions for the physiological eruption of permanent teeth compared with children who experience premature loss of primary teeth. Early loss of teeth leads to structural and functional alterations within

the dentoalveolar system, which may further contribute to the development of orthodontic pathology.

The study also confirms the importance of timely preventive and interceptive orthodontic measures. Early orthodontic treatment using functional appliances demonstrated substantially higher effectiveness compared with preventive prosthetic treatment. Among the devices used in clinical practice, elastomeric trainers showed the highest therapeutic efficiency in correcting early dentofacial disturbances in young children.

Therefore, the optimization of early diagnostic methods and the timely application of orthodontic treatment strategies are essential for preventing the progression of dentofacial deformities and ensuring proper development of the dentoalveolar system.

Bibliography:

1. Alimdjanovich, R. J., & Astanovich, A. A. (2023). Development of dental care in uzbekistan using a conceptual approach to improve its quality. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(4), 536-543.
2. Alimdjanovich, R. J., Abdurahmanovich, K. O., Shamsidinovich, M. D., & Shamsidinovna, M. N. (2023). Start of Telemedicine in Uzbekistan. Technological Availability. In *Advances in Information Communication Technology and Computing: Proceedings of AICTC 2022* (pp. 35-41). Singapore: Springer Nature Singapore.
3. Alimdjanovich, R. J., & Astanovich, A. A. (2023). Development of dental care in uzbekistan using a conceptual approach to improve its quality. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(4), 536-543.
4. Alimdjanovich, R. J., Obid, K., & Javlanovich, Y. D. (2022). Advantages of Ultrasound Diagnosis of Pulmonary Pathology in COVID-19 Compared to Computed Tomography. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(5), 531-546.
5. Astanovich, A. A., & Ikrombekovna, A. N. (2024). Improvement in the diagnosis of chronic periodontitis in children. *World Bulletin of Social Sciences*, 32, 68-70.
6. Astanovich, A. A. (2025). Two-Stage Dental Implantation: Clinical Stages, Methodological Approaches, And Procedural Characteristics. *European Index Library of European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 5(12), 25-30.
7. Anvarovna, A. M., & Astanovich, A. A. (2024). A COMPARATIVE ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF ORTHODONTIC TREATMENT OF PARTIAL DENTITION DEFECTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(05), 33-40.
8. Asrorovna, X. N., Baxriddinovich, T. A., Bustanovna, I. N., Valijon O'g'li, D. S., & Qizi, T. K. F. (2021). Clinical Application Of Dental Photography By A Dentist. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(09), 10-13.
9. Bustanovna, I. N. (2024). The Effectiveness of the Use of the Drug " Proroot MTA" in the Therapeutic and Surgical Treatment of Periodontitis. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 72-75.
10. Bustanovna, I. N. (2024). Complications Arising in the Oral Cavity after Polychemotherapy in Patients with Hemablastoses. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 62-66.
11. Bustanovna, I. N., & Abdusattor o'g, A. A. A. (2024). Analysis of Errors and Complications in the Use of Endocal Structures Used in Dentistry. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 82-86.

12. Bustanovna, I. N. (2024). Determination of the Effectiveness of Dental Measures for the Prevention of Periodontal Dental Diseases in Workers of the Production of Metal Structures. *International Journal of Scientific Trends*, 3(5), 108-114.
13. Sharipovna, N. N., & Bustonovna, I. N. (2022). Etiopatogenetic factors in the development of parodontal diseases in post-menopausal women. *The American journal of medical sciences and pharmaceutical research*, 4(09).
14. Nazarova, N. S., & Isloмова, N. B. (2022). postmenopauza davridagi ayollarda stomatologik kasalliklarining klinik va mikrobiologik ko'rsatkichlari va mexanizmlari. *Журнал "Медицина и инновации"*, (2), 204-211.
15. Назарова, Н., & Исломова, Н. (2022). Assessment of clinical and morphological changes in the oral organs and tissues in post-menopausal women. in *Library*, 22(1), 60-67.

Akhmedov Alisher Astanovich
Mukhiddinov Shokhrukh Gafurjon ugli
Samarkand State Medical University

THE ROLE OF EVERSTICK GLASS FIBER-REINFORCED SYSTEMS IN CORRECTING TOOTH CROWN DEFECTS



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539406>

ANNOTATION

The analysis of the mechanical and clinical efficiency of glass fiber-reinforced systems (EverStick) is of significant scientific importance in addressing extensive defects of the tooth crown. EverStick systems have been proven to significantly enhance the toughness of composite resins, ensuring their damage tolerance and long-term durability. One of the key achievements in this field is the ability of fiber-reinforced composites to redistribute masticatory forces across the restoration bed and reduce polymerization shrinkage strain. Specifically, the horizontal orientation of fibers in wide carious cavities (Class II MOD) on both pulpal and gingival floors enables the achievement of maximal clinical outcomes. The dentin-replacement properties of the material and the high adhesive bonding mechanisms formed with tooth tissues are scientifically grounded. The fail-safe mechanism of EverStick systems in reducing the risk of tooth fracture and their role in minimally invasive dentistry serve to maximize the preservation of healthy tooth structure.

Keywords: EverStick, fiber-reinforced composite (FRC), tooth crown defects, mechanical durability, stress distribution, dentin replacement.

Ахмедов Алишер Астанович
Мухиддинов Шохрух Гафуржон угли
Самаркандский Государственный
Медицинский Университет

РОЛЬ СТЕКЛОВОЛОКОННЫХ СИСТЕМ EVERSTICK В УСТРАНЕНИИ ДЕФЕКТОВ КОРОНКОВОЙ ЧАСТИ ЗУБА

АННОТАЦИЯ

Анализ механической и клинической эффективности стекловолоконных армирующих систем (EverStick) имеет важное научное значение в устранении обширных дефектов коронковой части зуба. Доказано, что системы EverStick значительно повышают показатели вязкости (toughness) композитных смол, обеспечивая их устойчивость к повреждениям (damage tolerance) и долговечность. Одним из достижений в этой области является способность стекловолоконных композитов оптимизированно распределять жевательное давление по всей площади реставрации и снижать напряжение при полимеризационной усадке (shrinkage strain). В частности, горизонтальное ориентирование волокон в широких кариозных полостях (Class II MOD) на пульпарном и десневом дне позволяет достичь максимальных клинических результатов. Научно обоснованы свойства материала по замещению дентина (dentin replacement) и механизмы формирования прочной адгезивной связи с тканями зуба. Механизм «безопасного отказа» (fail-safe) систем EverStick в снижении риска перелома зуба и их роль в минимально инвазивной стоматологии служат максимальному сохранению здоровых тканей зуба.

Ключевые слова: EverStick, стекловолоконный композит (FRC), дефекты коронки зуба, механическая прочность, распределение стресса, замещение дентина.

Ahmedov Alisher Astanovich
Muhiddinov Shohruh G'afurjon o'g'li
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TISH TOJ QISMI NUQSONLARINI BARTARAF QILISHDA EVER STICK SHISHAIONOMERNING O'RNI

ANNOTATSIYA

Stomatologik restavratsiyaning dolzarb muammolaridan biri — tish toj qismining keng ko‘lamli nuqsonlarini bartaraf etishda shisha tolali mustahkamlovchi tizimlarning (EverStick) mexanik va klinik samaradorligi tahlili muhim ilmiy ahamiyatga ega. EverStick tizimlari kompozit qatronlarning qattiqlik ko‘rsatkichlarini sezilarli darajada oshirib, ularning shikastlanishga bardoshlilikini va uzoq muddatli chidamliligini ta‘minlashi isbotlangan. Shisha tolali kompozitlarning chaynash bosimini restavratsiya maydoni bo‘ylab optimallashtirilgan tarzda taqsimlash xususiyati hamda polimerizatsiya qisqarishi kuchlanishini kamaytirishdagi roli ushbu sohadagi yutuqlardan biridir. Xususan, keng karioz bo‘shliqlarda (Class II MOD) tolalarning gorizontallik yo‘nalishda joylashtirilishi klinik natijalarni maksimal darajaga ko‘tarish imkonini beradi. Materialning dentin o‘rnini bosuvchi xususiyati va tish to‘qimalari bilan shakllanadigan yuqori adgezion bog‘lanish mexanizmlari ilmiy asoslangan. EverStick tizimlarining tish sinish xavfini kamaytirishdagi xavfsiz nosozlik mexanizmi va minimal invaziv stomatologiyadagi roli tish to‘qimalarini maksimal darajada saqlashga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: EverStick, shisha tolali kompozit (FRC), tish toj nuqsonlari, mexanik chidamlilik, stress taqsimoti, dentin o‘rnini bosish.

Kirish. Terapevtik stomatologiyaning zamonaviy bosqichida tish toj qismining keng ko‘lamli nuqsonlarini funksional va estetik jihatdan uzoq muddatli qayta tiklash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. An’anaviy kompozit materiallar chaynash bosimi yuqori bo‘lgan tishlar restavratsiyasida ko‘pincha mo‘rtlik va polimerizatsiya qisqarishi natijasida yuzaga keladigan mikrosizimlar hamda sinishlar tufayli kutilgan klinik natijani bermasligi mumkin. Shu sababli, restavratsiyalarning mexanik chidamliligini oshirish va xavfsiz nosozlik mexanizmini ta‘minlash maqsadida shisha tolali mustahkamlovchi tizimlar (EverStick/FRC) stomatologiya amaliyotiga yuqori texnologik yechim sifatida kirib keldi. EverStick tizimlari polimer matritsaga kiritilgan silanlangan shisha tolalaridan iborat bo‘lib, ular kompozit qatronlarning qattiqlik ko‘rsatkichlarini va shikastlanishga bardoshlilikini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu materiallar biomimetik yondashuv asosida tishning dentin qatlami mexanik xususiyatlarini takrorlaydi va tish tojida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan yoriqlar tarqalishini samarali to‘xtatadi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayniqsa II sinf (MOD) kabi keng karioz bo‘shliqlarda shisha tolalarni gorizontallik yo‘nalishda joylashtirish chaynash bosimini restavratsiya maydoni bo‘ylab optimallashtirilgan tarzda taqsimlash imkonini beradi. Bundan tashqari, EverStick tizimlarining yuqori adgezion bog‘lanish xususiyati minimal invaziv stomatologiya prinsiplariga to‘la javob bergan holda, tishning sog‘lom to‘qimalarini maksimal darajada saqlab qolishga xizmat qiladi. Materialning polimerizatsiya qisqarish kuchlanishini kamaytirishi va uzoq

muddatli mexanik yuklamalarga chidamliligi tish toj qismi nuqsonlarini bartaraf etishda uning o‘rnini beqiyos qiladi. Ushbu texnologiyani klinik amaliyotda qo‘llash tishlarning sinish xavfini kamaytirib, murakkab restavratsiyalarning ishonchlilikini yangi bosqichga ko‘taradi.

Tadqiqotning maqsadi tish tojining keng ko‘lamli nuqsonlarini restavratsiya qilishda EverStick shisha tolali mustahkamlovchi tizimlarining (fiber-reinforced composites — FRC) mexanik barqarorligini, biomimetik xususiyatlarini va uzoq muddatli klinik samaradorligini kompleks baholashdan iborat

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqotga 2023–2025-yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikasida ortopedik stomatologik davolanish uchun murojaat qilgan 18 yoshdan 55 yoshgacha bo‘lgan 40 nafar bemor kiritildi. Barcha bemorlarda doimiy tishlarning toj qismi endodontik davolashdan so‘ng qisman yoki to‘liq yo‘qotilgan bo‘lib, ularni shtift–o‘zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash zarurati mavjud edi.

Qo‘llanilgan shtift tizimiga qarab bemorlar ikki guruhga bo‘lindi:

I-guruh (n = 20) — standart shisha tolali shtiftlar yordamida qayta tiklangan tishlar;


II-guruh (n = 20) — individual moslashtirilgan EverStick tolali shtiftlari qo‘llanilgan holatlar.

Davolash usulini tanlashda ildiz kanalining anatomik xususiyatlari, dentin devorlarining qalinligi, ildiz uzunligi va taxminiy okklyuzion yuklama darajasi hisobga olindi.

Rasm1. Tish toj qismi yo‘qotilgan tish



Rasm2,3. Izolyatsiyalangan holda EverStick yordamida tiklash



Rasm4. Tish toj qismi tiklangan tish



Klinik va rentgenologik baholashdan so‘ng ildiz kanali shtift o‘rnatish uchun tayyorlandi. Shtift joylashadigan kanal uzunligi ildiz uzunligining 2/3 qismidan oshmagan holda shakllantirildi va apikal germetiklikni ta‘minlash uchun kamida 4 mm obturatsion material saqlab qolindi. Kanalni shakllantirish ishlari qo‘llanilgan shtift tizimi ishlab chiqaruvchisi tavsiyalariga muvofiq amalga oshirildi.

Shisha tolali va EverStick shtiftlar adgeziv usulda, ikki marta qotuvchi kompozit sementlar yordamida fiksatsiya qilindi. EverStick shtiftlari ildiz kanalining individual anatomiyasiga moslashtirilib, klinik sharoitda fotopolimerizatsiya qilindi. O‘zak (kulteva) qismi yorug‘lik bilan qotuvchi kompozit materiallardan shakllantirildi.

Restavratsiyalarning klinik samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- restavratsiyaning funksional barqarorligi;
- chaynash yuklamasi ostida mustahkamligi;
- og‘riq sezgilari va patologik harakatchanlikning yo‘qligi;
- chetki moslashuv sifati;
- estetik ko‘rsatkichlar;
- ildiz va periapikal to‘qimalarning rentgenologik holati.

Nazorat ko‘riklari davolashdan so‘ng 6 va 12 oy muddatlarda o‘tkazildi.

Rentgenologik tekshiruv usullari

Rentgenologik nazorat maqsadida og‘iz ichki nishonli rentgenografiya qo‘llanildi. Unda shtiftning ildiz kanalidagi holati, tsement qatlamining bir tekis taqsimlanganligi, periapikal patologiya va ildiz rezorbsiyasi belgilari baholandi.

Statistik ma‘lumotlarni qayta ishlash

Olingan ma‘lumotlar standart kuzatuv kartalarida qayd etildi. Miqdoriy ko‘rsatkichlar uchun o‘rtacha qiymat va standart og‘ish hisoblandi. Natijalar guruhlar o‘rtasida tavsifiy statistik tahlil yordamida solishtirildi.

Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi talablariga muvofiq amalga oshirildi. Barcha bemorlardan davolash va klinik ma‘lumotlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun yozma ravishda ongli rozilik olindi.

Tadqiqot natijalari

Bemorlarning klinik tavsifi va davolash hajmi

Tadqiqot davomida 40 nafar bemorda jami 58 ta doimiy tish shtift–o‘zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklandi. Tiklangan tishlarning asosiy qismini yuqori va pastki jag‘ning premolyar hamda molyar tishlari tashkil etdi, bu esa mazkur tishlarning funksional yuklamasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Bemorlarning aksariyatida tish toj qismi 50–70% gacha yo‘qotilgan bo‘lib, ayrim holatlarda toj qismi deyarli to‘liq yemirilganligi qayd etildi. Endodontik davolashdan so‘ng ildiz kanallarining holati klinik va rentgenologik usullar yordamida baholanib, shtift o‘rnatish uchun yaroqliligi tasdiqlandi.

Jadval 1. Tadqiqotda tiklangan tishlar rning joylashuviga ko‘ra taqsimlanishi

Tish guruhi	Tiklangan tishlar soni	Ulushi (%)
Kesuvchi tishlar	12	20.7
Qoziq tishlar	9	15.5
Premolyarlar	18	31.0
Molyarlar	19	32.8

Izoh: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p tiklash ishlari chaynash yuklamasi yuqori bo‘lgan molyar va premolyar tishlarda amalga oshirilgan.

Klinik moslashuv va erda davr natijalari

Davolashdan keyingi dastlabki 7–14 kun davomida bemorlarning shikoyatlari, og‘riq sezgisi va yumshoq to‘qimalarning holati baholandi. Bemorlarning katta qismida shtift–o‘zakli konstruksiyalarga moslashuv muammosiz kechdi.

Jadval 2. Davolashdan keyingi 14 kun ichidagi klinik holatlar

Klinik ko‘rsatkichlar	Bemorlar soni	Ulushi (%)
Og‘riqsiz holat	34	85.0
Yengil noqulaylik	5	12.5
Og‘riq sindromi	1	2.5

Izoh: Qayd etilgan yengil og‘riq holatlari qisqa muddatli bo‘lib, qo‘shimcha dori vositalarisiz bartaraf etildi.

Funksional samaradorlikni baholash natijalari

Tishlarning chaynash funksiyasi davolashdan oldin va keyin taqqoslama asosida baholandi. Shtift–o‘zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarda chaynash samaradorligi sezilarli darajada oshgani aniqlandi.

Jadval 3. Chaynash funksiyasining tiklanish ko'rsatkichlari

Baholash bosqichi	O'rtacha ko'rsatkich (%)
O'rtacha ko'rsatkich (%)	54,2 ± 4,0
Davolashdan keyin	87,6 ± 3,2

Izoh: Natijalar shtift–o'zakli konstruksiyalar funksional tiklanishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatadi.

Rentgenologik nazorat natijalari

Rentgenologik tekshiruvlar davolashdan so'ng 3 va 6 oy o'tgach amalga oshirildi. Baholash jarayonida shtiftning ildiz kanalida joylashuvi, periapikal sohaning holati va suyak to'qimasidagi o'zgarishlar tahlil qilindi.

Jadval 4. 6 oylik rentgenologik baholash natijalari

Rentgen belgilar	Holatlar soni	Ulushi (%)
O'zgarishsiz holat	37	92.5
Yengil periapikal o'zgarishlar	2	5.0
Salbiy dinamikalar	1	2.5

Izoh: Rentgenologik ma'lumotlar shtift–o'zakli konstruksiyalarning biologik mosligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, endodontik davolashdan so'ng tish toj qismi yo'qotilgan bemorlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash yuqori klinik va funksional samaradorlikka ega. Asoratlar kam uchrab, ular tishlarni uzoq muddat saqlab qolish imkonini beradi.

Mazkur natijalar O'zbekiston sharoitida zamonaviy ortopedik stomatologik yondashuvlarni amaliyotga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ko'rsatadi.

Natijalarni muhokama qilish

Mazkur tadqiqotda olingan natijalar tish toj qismi nuqsonlarini shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklashning klinik va funksional samaradorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot natijalari zamonaviy ilmiy adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirildi va ularning o'zaro mosligi aniqlandi.

Ko'plab xorijiy va mahalliy tadqiqotlarda ta'kidlanganidek, endodontik davolangan tishlarda toj qismining katta hajmda yo'qotilishi tishning mustahkamligi va uzoq muddatli prognoziga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bizning kuzatuvlarimizda ham toj qismi 50–70% gacha yemirilgan tishlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar qo'llanilishi tishlarning funksional barqarorligini ta'minlashda muhim omil ekanligi tasdiqlandi.

Tadqiqot davomida bemorlarning 85,0% ida davolashdan keyingi dastlabki davrda og'riqsiz holat qayd etilishi shtift–o'zakli konstruksiyalarning yaxshi moslashuvchanligini ko'rsatadi. Bu natijalar bir qator mualliflarning ma'lumotlari bilan mos kelib, ular zamonaviy o'zakli konstruksiyalar ildiz dentiniga yaqin elastik modulga ega bo'lgani sababli yuklamani bir tekis taqsimlashini ta'kidlaydilar.

Funksional baholash natijalari muhim klinik ahamiyatga ega bo'lib, chaynash samaradorligining 54,2% dan 87,6% gacha oshgani qayd etildi. Bu holat shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarning nafaqat anatomik shakli, balki fiziologik funksiyasi ham samarali tiklanganini ko'rsatadi. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, funksional tiklanish darajasi davolashning uzoq muddatli muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy mezonlardan biridir.

Rentgenologik nazorat natijalariga ko'ra, bemorlarning 92,5% ida periapikal sohada patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. Bu ko'rsatkich shtift–o'zakli konstruksiyalar o'rnatilishida endodontik davolash sifatining yuqori darajada bajarilgani va

biologik mos materiallardan foydalanilganini ko'rsatadi. Ayrim hollarda kuzatilgan yengil periapikal o'zgarishlar klinik ahamiyatga ega bo'lmay, dinamik kuzatuv jarayonida regressiyaga uchradi.

Olingan natijalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston sharoitida zamonaviy shtift–o'zakli konstruksiyalarni qo'llash an'anaviy ortopedik davolash usullariga nisbatan bir qator ustunliklarga ega. Xususan, davolashning nisbatan qisqa muddatda bajarilishi, estetik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi va asoratlar sonining kamligi ushbu usulning amaliy ahamiyatini oshiradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda bemorlar sonining cheklanganligi va uzoq muddatli (1–3 yil) kuzatuv natijalarining yo'qligi ma'lum darajada cheklov sifatida baholanishi mumkin. Kelgusida kengroq klinik material va uzoq muddatli kuzatuvlar asosida olib boriladigan tadqiqotlar ushbu yo'nalishning ilmiy asoslarini yanada mustahkamlashi mumkin.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tish toj qismi nuqsonlarini qayta tiklash usulining klinik jihatdan asoslanganligi va amaliy stomatologiyada keng qo'llashga loyiq ekanligini tasdiqlaydi.

Xulosalar. O'tkazilgan klinik tadqiqot natijalari asosida quyidagi yakuniy xulosalar chiqarildi:

Endodontik davolashdan so'ng tish toj qismi qisman yoki to'liq yo'qotilgan bemorlarda shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash usuli yuqori klinik va funksional samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Ushbu yondashuv tishlarning anatomik shakli va fiziologik funksiyasini tiklash imkonini beradi. Tadqiqot davomida 40 nafar bemorda 58 ta doimiy tish shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida muvaffaqiyatli qayta tiklandi. Davolashdan keyingi erta davrda bemorlarning 85,0% ida og'riqsiz holat kuzatilib, moslashuv jarayoni asoratsiz kechdi. Funksional baholash natijalariga ko'ra, chaynash samaradorligi davolashdan oldingi 54,2 ± 4,0% ko'rsatkichdan davolashdan keyin 87,6 ± 3,2% gacha oshdi. Bu holat shtift–o'zakli konstruksiyalar yordamida tiklangan tishlarning funksional jihatdan to'liq faoliyat ko'rsatishini tasdiqlaydi. Rentgenologik nazorat tekshiruvlari natijalariga asosan, bemorlarning 92,5% ida periapikal sohada patologik o'zgarishlar aniqlanmadi. Bu esa endodontik davolash sifatining yuqori darajada bajarilgani va qo'llanilgan o'zakli konstruksiyalarning biologik mosligini ko'rsatadi. Olingan natijalar zamonaviy shtift–o'zakli konstruksiyalarni qo'llash an'anaviy ortopedik davolash usullariga nisbatan bir qator

ustunliklarga ega ekanligini ko'rsatdi. Jumladan, tish ildizi devorlariga tushadigan yuklamaning bir tekis taqsimlanishi, estetik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi va asoratlar xavfining kamayishi ushbu usulning muhim afzalliklaridandir. Tadqiqot natijalari O'zbekiston sharoitida tish toj qismi nuqsonlarini zamonaviy o'zakli konstruksiyalar yordamida qayta tiklash

usulini ortopedik stomatologiya amaliyotiga keng joriy etish maqsadga muvofiq ekanligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Umuman olganda, shtift-o'zakli konstruksiyalar yordamida tish toj qismi nuqsonlarini tiklash usuli klinik jihatdan samarali, biologik jihatdan asoslangan va amaliy stomatologiyada keng qo'llashga loyiq usul hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ризаев Ж.А., Ахмедов А.А. Ортопедическая стоматология: современные подходы к восстановлению коронковой части зубов. – Самарканд, 2022.
2. Ризаев Ж.А. Клинические аспекты ортопедического лечения депульпированных зубов. – Ташкент: Медицина, 2021.
3. Ахмедов А.А., Нурматов Ш.Б. Штифтово-культевые конструкции в стоматологии. – Ташкент, 2020.
4. Ferrule effect and post-core restorations: A systematic review // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2019.
5. Morgano S.M., Milot P. Clinical success of fiber posts // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2020.
6. Bitter K., Meyer-Lueckel H. Fiber-reinforced post systems // International Endodontic Journal. – 2018.
7. Schwartz R.S., Robbins J.W. Post placement and restoration of endodontically treated teeth // Journal of Endodontics. – 2017.
8. Akkayan B., Gulmez T. Resistance to fracture of endodontically treated teeth restored with different post systems // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2019.
9. Naumann M., Sterzenbach G. Influence of post material on stress distribution // Dental Materials. – 2021.
10. Fokkinga W.A. et al. A systematic review on survival of post-retained restorations // International Journal of Prosthodontics. – 2018.
11. Heydecke G., Peters M.C. The restoration of endodontically treated teeth // Journal of Adhesive Dentistry. – 2019.
12. Ferrari M., Vichi A., Mannocci F. Fiber posts and their clinical applications // American Journal of Dentistry. – 2020.
13. Al-Omiri M.K., Mahmoud A.A. Fracture resistance of teeth restored with fiber posts // Journal of Oral Rehabilitation. – 2019.
14. Torbjorner A., Fransson B. A literature review on prosthetic treatment of structurally compromised teeth // International Journal of Prosthodontics. – 2018.
15. Sidoli G.E., King P.A. Effect of post design on root fracture // Journal of Prosthetic Dentistry. – 2017.
16. Mancebo J.C., Jimenez-Castellanos E. Comparison of metal and fiber posts // Dental Traumatology. – 2020.
17. Boschian Pest L. et al. Adhesive post-endodontic restorations // Dental Materials Journal. – 2021.
18. Plotino G., Grande N.M. Clinical evaluation of fiber post systems // Journal of Endodontics. – 2019.
19. Кузнецов В.В. Современные материалы в ортопедической стоматологии. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
20. Al-Ali K. Prosthodontic management of endodontically treated teeth // Saudi Dental Journal. – 2022.

Islamova Nilufar Bustanovna
Nurullayeva Go'zal Abdumalikovna
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TISHLARNI OQARTIRISH MUOLAJASIDAN KEYINGI ASORATLAR PROFILAKTIKASIDA ZAMONAVIY ADGEZIV TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539410>

ANNOTATSIYA

Mazkur tadqiqot tishlarni oqartirishdan keyingi asoratlar profilaktikasida adgeziv texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirishga bag'ishlangan. Oqartirish jarayonida qo'llaniladigan vodorod peroksid va yuqori konsentratsiyali karbamid peroksid emal va dentin mikrostrukturasi hamda adgeziv bog'lanish kuchiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Oqartirishdan keyin dentin naychalari orqali gidrodinamik oqim kuchayib, tishlar giperesteziyasi yuzaga keladi. Tadqiqotda peroksidli vositalarning emal mikroqattiqligi, adgeziv bog'lanish kuchi va klinik sezuvchanlikka ta'siri baholandi. Oqartirishdan keyingi davrda antioksidant ishlov berish va bioaktiv universal adgeziv tizimlardan foydalanish samaradorligi qiyosiy o'rganildi. Natijalar kompleks yondashuv qo'llanilganda giperesteziya darajasi kamayishi, adgeziv bog'lanish kuchi oshishi va emalning mineral balansini tiklash tezlashishini ko'rsatdi. Oqartirishdan keyingi asoratlarni kamaytirishda adgeziv texnologiyalarni optimallashtirish klinik samaradorlikni sezilarli oshiradi hamda bemorlar hayot sifatini yaxshilaydi.

Kalit so'zlar: tishlar diskoloriti, stomatologik laklar, stomatologik adgeziv tizimlar, bioaktiv adgeziv, remineralizatsiya, giperesteziya, mikroqattiqlik, estetik stomatologiya.

Islamova Nilufar Bustanovna
Nurullayeva Guzal Abdumalikovna
Samarkand State Medical University

IMPROVEMENT OF THE USE OF MODERN ADHESIVE TECHNOLOGIES IN THE PREVENTION OF COMPLICATIONS AFTER TOOTH WHITENING PROCEDURES

ANNOTATION

This study focuses on improving adhesive technologies for the prevention of post-bleaching complications. Hydrogen peroxide and high-concentration carbamide peroxide used in tooth bleaching may adversely affect enamel and dentin microstructure and reduce adhesive bond strength. Increased hydrodynamic fluid movement within dentinal tubules after bleaching often results in tooth hypersensitivity. The study evaluated the effects of peroxide-based agents on enamel microhardness, adhesive bond strength, and clinical sensitivity. A comparative assessment of antioxidant treatment and bioactive universal adhesive application after bleaching was conducted. The results demonstrated that a comprehensive approach reduces hypersensitivity, enhances bond strength, and promotes remineralization of enamel. Optimization of adhesive protocols after bleaching significantly improves clinical outcomes and patient quality of life.

Keywords: dental varnishes; dental adhesive systems; bioactive adhesive; remineralization; hypersensitivity; microhardness; aesthetic dentistry.

Исламова Нилуфар Бустановна
Нуруллаева Гузал Абдумаликовна
Самаркандский Государственный
Медицинский Университет

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРИМЕНЕНИЯ СОВРЕМЕННЫХ АДГЕЗИВНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОФИЛАКТИКЕ ОСЛОЖНЕНИЙ ПОСЛЕ ПРОЦЕДУРЫ ОТБЕЛИВАНИЯ ЗУБОВ

АННОТАЦИЯ

Исследование посвящено совершенствованию применения адгезивных технологий для профилактики осложнений после отбеливания зубов. Перекись водорода и высококонцентрированная перекись карбамида могут оказывать негативное влияние на микроструктуру эмали и дентина, а также снижать прочность адгезивного соединения. После процедуры

усиливается гидродинамический поток в дентинных канальцах, что приводит к гиперестезии. В работе оценено влияние пероксидных средств на микротвёрдость эмали, прочность адгезии и клиническую чувствительность. Проведено сравнительное исследование эффективности антиоксидантной обработки и применения биоактивного универсального адгезива после отбеливания. Полученные результаты показали, что комплексный подход способствует снижению гиперестезии, повышению прочности адгезии и восстановлению минерального баланса эмали. Оптимизация адгезивных технологий повышает клиническую эффективность лечения и улучшает качество жизни пациентов.

Ключевые слова: дисколорит зубов; стоматологические лаки; стоматологические адгезивные системы; биоактивный адгезив; реминерализация; гиперестезия; микротвёрдость; эстетическая стоматология.

Kirish. So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida sog'liqni saqlash tizimini tubdan isloh qilish, tibbiy xizmat sifatini oshirish hamda xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan stomatologik yordamni modernizatsiya qilish, davlat va xususiy sektor integratsiyasini rivojlantirish, yuqori texnologiyali diagnostika va davolash usullarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Hozirgi kunda stomatologiyada estetik davolash usullariga bo'lgan talabning ortib borishi tishlarni Oqartirish muolajalarining keng qo'llanilishiga olib kelmoqda[1,3]. Oqartirish jarayonida qo'llaniladigan peroksid asosidagi preparatlar emal va dentin tuzilmasiga ta'sir etib, ularning minerallasuv darajasini kamaytirishi, tish sezuvchanligining ortishi, mikro yoriqlar paydo bo'lishi hamda kariyes rivojlanish xavfining kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin. Ushbu asoratlardan keyingi davrda profilaktik choralarini ilmiy asosda ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltirmoqda[2].

So'nggi yillarda stomatologiyada adgeziv texnologiyalar faol rivojlanib, ularning remineralizatsiya qiluvchi, himoya qatlam hosil qiluvchi va emal strukturasi mustahkamlovchi xususiyatlari aniqlanmoqda. Oqartirishdan keyin adgeziv tizimlarni qo'llash orqali emalning mikrostrukturaviy o'zgarishlarini bartaraf etish, tish sezuvchanligini kamaytirish hamda Oqartirish muolajasining uzoq muddatli samaradorligini saqlab qolish imkoniyati mavjud.

Shu bilan birga, Oqartirishdan keyingi asoratlarning oldini olishda adgeziv texnologiyalarni qo'llashning optimal usullari, klinik samaradorligi va biologik mosligi hali yetarli darajada tizimli o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlar ko'pincha Oqartirish natijasining estetik jihatlariga qaratilgan bo'lib, Oqartirishdan keyingi davrda profilaktika masalalari yetarlicha yoritilmagan[4,5].

Shu munosabat bilan, Oqartirishdan keyingi asoratlarni profilaktikasi uchun adgeziv texnologiyalarni qo'llashni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar Oqartirish muolajalarining xavfsizligini oshirish, bemorlarning hayot sifatini yaxshilash va estetik stomatologiya amaliyotini yanada takomillashtirishga xizmat qiladi[5,6].

Mamlakatda estetik stomatologiyaga bo'lgan talabning ortishi natijasida tishlarni oqartirish, minimal invaziv restavratsiya va adgeziv texnologiyalarni keng qo'llash amaliyoti sezilarli darajada kengaydi. Zamonaviy klinikalarda xalqaro protokollarga asoslangan davolash usullarini joriy etish, stomatolog mutaxassislarining malakasini oshirish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Bundan tashqari, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, aholi orasida og'iz bo'shlig'i gigiyenasi madaniyatini oshirish hamda profilaktik stomatologiyani rivojlantirish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Oqartirish muolajalari sonining ortishi bilan birga, ularning asoratlarni kamaytirish, bemor xavfsizligini ta'minlash

va uzoq muddatli klinik natijalarga erishish masalalari ilmiy tadqiqotlarning ustuvor vazifasiga aylanmoqda. So'nggi yillarda estetik stomatologiyaning jadal rivojlanishi hamda aholining tashqi ko'rinishga bo'lgan talabning ortishi tishlarni Oqartirish muolajalarining klinik amaliyotda keng qo'llanilishiga olib kelmoqda. Oqartirish jarayonida ishlatiladigan peroksid va boshqa oksidlovchi moddalar emal va dentinning organik hamda noorganik komponentlariga ta'sir ko'rsatib, ularning kristall panjarasida strukturaviy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Natijada emalning mikroqattiqligi pasayadi, uning g'ovakligi ortadi, tish sezuvchanligi kuchayadi hamda kariyesga moyillik oshadi[7].

Ilmiy adabiyotlarda Oqartirishdan keyingi davrda emal yuzasida demineralizatsiya jarayonlarining faollashuvi, remineralizatsiya jarayonlarining esa yetarli darajada kompensatsiyalanmasligi qayd etilgan. Mazkur holat Oqartirish muolajalaridan so'ng profilaktik yondashuvlarni patogenetik jihatdan asoslab ishlab chiqish zaruratini belgilaydi. Shu nuqtai nazardan, Oqartirishdan keyingi asoratlarning oldini olish faqat desensibilizatsiyalovchi vositalar bilan cheklanib qolmasdan, balki emal yuzasida barqaror himoya qatlam hosil qiluvchi texnologiyalarni qo'llashni taqozo etadi[8].

Adgeziv texnologiyalar stomatologiyada biologik mosligi, yuqori bog'lanish kuchi va emal mikrorelyefini germetik yopish qobiliyati bilan ajralib turadi. Oqartirishdan keyin adgeziv tizimlardan foydalanish emal yuzasida rezistent plyonka hosil bo'lishiga, ion almashinuvining normallasuviga va mineral komponentlarning saqlanib qolishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, adgeziv materiallarning Oqartirishdan keyin o'zgarigan emal strukturasi ta'siri, ularning uzoq muddatli klinik samaradorligi hamda biologik xavfsizligi yetarlicha chuqur o'rganilmagan.

Mavjud ilmiy ishlarda asosan Oqartirishning estetik samaradorligi va rang barqarorligi masalalari yoritilgan bo'lib, Oqartirishdan keyingi asoratlarning patogenezig qaratilgan profilaktik strategiyalar ikkinchi darajali masala sifatida ko'rib chiqilgan. Oqartirishdan keyingi davrda adgeziv texnologiyalarni qo'llashning differensial va kompleks yondashuvlari bo'yicha yagona klinik protokollarning yo'qligi mazkur yo'nalishda ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish zaruratini ko'rsatadi[9]. Zamonaviy stomatologiyada estetik ko'rsatkichlar bemorlarning hayot sifati va psixologik holatini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda tish rangining o'zgarishini bartaraf etish va estetik ko'rinishni yaxshilash maqsadida tishlarni oqartirish muolajalari keng qo'llanilmoqda. Oqartirish usullari klinik amaliyotda samarali natija berishi bilan birga, ayrim hollarda emal va dentin to'qimalarining sezuvchanligi oshishi, mikrostrukturaviy o'zgarishlar, mineral tarkibning kamayishi hamda tish qattiq to'qimalarining himoya xususiyatlari susayishi kabi nojo'ya holatlar yuzaga kelishi mumkin.

Mazkur asoratlarning rivojlanishi ko'pincha oqartiruvchi vositalarning kimyoviy tarkibi, ularning konsentratsiyasi, qo'llash texnikasi hamda individual biologik omillar bilan

bog‘liq bo‘ladi. Oqartirish jarayonida emal yuzasida yuzaga keladigan mikrostrukturaviy o‘zgarishlar uning mexanik va kimyoviy barqarorligini pasaytirib, keyinchalik kariyes jarayonining rivojlanish xavfini oshirishi mumkin. Shu sababli tishlarni oqartirishdan keyingi davrda tish qattiq to‘qimalarini himoyalash va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan asoratlarning oldini olish stomatologiyaning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda stomatologik amaliyotda tish qattiq to‘qimalarining strukturasi mustahkamlash va ularni tashqi ta’sirlardan himoya qilish maqsadida turli xil adgeziv tizimlar keng qo‘llanilmoqda. Zamonaviy adgeziv texnologiyalar emal va dentin yuzasida mustahkam bog‘lanish hosil qilib, mikrobo‘shliqlarni germetik yopishga, tish to‘qimalarining sezuvchanligini kamaytirishga hamda ularning mineral tarkibini barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, oqartirish muolajasidan keyingi davrda adgeziv texnologiyalardan foydalanish tish qattiq to‘qimalarini himoyalash va asoratlar rivojlanishining oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Biroq mavjud ilmiy tadqiqotlarda oqartirishdan keyingi asoratlarning profilaktikasida adgeziv tizimlarning qo‘llanilish samaradorligi hamda ularni qo‘llash texnologiyasini takomillashtirish masalalari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shu sababli ushbu yo‘nalishda ilmiy izlanishlar olib borish, adgeziv texnologiyalarning klinik samaradorligini baholash va ularni qo‘llashning optimal usullarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan, tishlarni oqartirish muolajasidan keyingi asoratlar profilaktikasida zamonaviy adgeziv texnologiyalardan foydalanishni takomillashtirish stomatologiya sohasida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Shu bois, Oqartirishdan keyingi asoratlar profilaktikasi uchun adgeziv texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishdagi izlanishlar Oqartirish muolajalarining biologik xavfsizligini oshirish, emalning strukturaviy barqarorligini ta’minlash hamda estetik stomatologiyada uzoq muddatli klinik natijalarga erishish imkonini beradi [10,11].

Shu bois, tishlarni oqartirishdan keyingi asoratlar profilaktikasi uchun adgeziv texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borish nafaqat nazariy, balki amaliy sog‘liqni saqlash tizimi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqsad

Klinik tahliliy tadqiqotlar asosida tishlarni oqartirishdan keyin giperesteziyani oldini olishda adgeziv texnologiyalarni qo‘llashni takomillashtirish

Tadqiqot materiallari va usullari

Tadqiqot klinik-eksperimental yo‘nalishda olib borildi va estetik stomatologiya amaliyotida tishlarni oqartirishdan keyingi asoratlar profilaktikasi uchun adgeziv texnologiyalarni takomillashtirish samaradorligini baholashga qaratildi.

Tadqiqot obyekti va guruhi

Tadqiqotda 18–40 yosh oralig‘idagi 60 nafar bemor ishtirok etdi. Bemorlar tasodifiy tanlash (randomizatsiya) usuli orqali 3 ta guruhga ajratildi:

I-guruh (nazorat guruhi, n=20) – Oqartirishdan so‘ng an’anaviy adgeziv tizim qo‘llanildi.

II-guruh (n=20) – Oqartirishdan so‘ng 10% natriy askorbat eritmasi bilan antioksidant ishlov berilib, universal adgeziv qo‘llanildi.

III-guruh (n=20) – Oqartirishdan so‘ng remineralizatsion terapiya (nano-gidroksiapatit asosidagi preparat) hamda bioaktiv universal adgeziv tizim qo‘llanildi.

Tadqiqotga kiritish mezonlari: sog‘lom umumiy somatik holat, oldingi restavratsiyalarsiz frontal tishlar, emal defektlarining yo‘qligi.

Chiqarish mezonlari: klinik kariyes, pulpit, parodont kasalliklari, homiladorlik, allergik anamnez mavjudligi.

Oqartirish protokoli

Barcha guruhlarda ofis sharoitida 35% vodorod peroksid asosidagi oqartirish geli qo‘llanildi. Oqartirish 2 seans davomida, har biri 15 daqiqalik ekspozitsiya bilan amalga oshirildi. Oqartirishdan keyin tish yuzalari distillangan suv bilan yuvildi va quritildi.

Adgeziv protokollar

An’anaviy total-etch tizimi (37% ortofosfor kislotasi bilan 15 soniya travleniye).

Universal adgeziv tizimi (10-MDP monomerli).

Bioaktiv komponentli universal adgeziv (kalsiy-fosfat va nano-gidroksiapatit tarkibli).

Restavratsiya uchun nanogibrid kompozit material qo‘llanildi. Polimerizatsiya LED-lampa yordamida 20 soniya davomida amalga oshirildi (1000–1200 mW/sm²).

Klinik baholash mezonlari

Tishlar giperesteziyasi – vizual-analog shkala (VAS, 0–10 ball) asosida baholandi.

Emal mikroqattiqdigi – Vickers mikrotverdomer usuli bilan o‘lchandi (HV birliklarda).

Adgeziv bog‘lanish kuchi – shear bond strength (MPa) laborator sharoitida aniqlanildi.

Marginal germetiklik – bo‘yovchi penetratsiya testi orqali baholandi.

Klinik kuzatuv – 1 hafta, 1 oy va 3 oy davomida olib borildi.

Statistik ma’lumotlarni qayta ishlash

Olingan natijalar matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, o‘rtacha arifmetik qiymat (M), standart og‘ish (±m) hisoblandi. Guruhlararo farqlar Student t-testi va ANOVA dispersiya tahlili yordamida baholandi. Ishonchlilik darajasi p<0,05 deb qabul qilindi. Statistik hisob-kitoblar zamonaviy kompyuter dasturlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot bioetika me’yorlariga muvofiq ravishda o‘tkazildi. Barcha ishtirokchilardan yozma ravishda xabardor qilingan rozilik olindi. Tadqiqot protokoli mahalliy bioetika komissiyasi tomonidan tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalari

Bemorlarning klinik tavsifi va davolash hajmi

Oqartirishdan keyingi giperesteziya ko‘rsatkichlari

Jadval 1. VAS shkalasi (0–10 ball) asosida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, oqartirishdan 24 soat o‘tib

Guruhlar soni	Qo‘llanuvchi modda	Ball
I-guruh	Nazorat	6,8 ± 0,4 ball
II-guruh	antioksidant + universal adgeziv	4,1 ± 0,3 ball
III-guruh	remineralizatsiya + bioaktiv adgeziv	2,3 ± 0,2 ball

Jadval 2. VAS shkalasi (0–10 ball) asosida olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, oqartirishdan 1 oy o‘tgach:

Guruhlar soni	Qo‘llanuvchi modda	Ball
I-guruh	Nazorat	3,2 ± 0,3ball
II-guruh	antioksidant + universal adgeziv	1,4 ± 0,2ball
III-guruh	remineralizatsiya + bioaktiv adgeziv	0,8 ± 0,1ball

Izoh: Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, III-guruhda giperesteziya ko‘rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan ishonchli darajada past bo‘ldi ($p < 0,05$).

Emal mikroqattiqqligi (Vickers, HV) Oqartirishdan oldin barcha guruhlarda o‘rtacha mikroqattiqlik 285–290 HV ni tashkil etdi.

Jadval 3. Oqartirishdan 7 kun o‘tgach:

Guruhlar soni	Emal mikroqattiqqligi ko‘rsatkichi
I-guruh	248 ± 5 HV
II-guruh	265 ± 4 HV
III-guruh	278 ± 3 HV

Izoh: Bioaktiv adgeziv va remineralizatsiya qo‘llangan III-guruhda mikroqattiqlik deyarli boshlang‘ich ko‘rsatkichga yaqinlashdi.

Marginal germetiklik

Jadval 4. Bo‘yovchi penetratsiya testi natijalariga ko‘ra:

Guruhlar soni	Mikrooqish ko‘rsatkichi (%)
I-guruhda	30%
II-guruhda	15%
III-guruhda	5%

Izoh: Olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, oqartirishdan keyingi davrda an‘anaviy adgeziv tizim qo‘llanishi giperesteziya va bog‘lanish kuchining pasayishiga olib keladi. Oqartirish jarayonida hosil bo‘ladigan qoldiq kislorod radikallari kompozit material polimerizatsiyasini susaytiradi.

Antioksidant (natriy askorbat) bilan ishlov berish II-guruhda bog‘lanish kuchini oshirdi, bu oksidlovchi radikallarni neytrallashtirish bilan izohlanadi.

III-guruhda remineralizatsion terapiya va bioaktiv universal adgeziv qo‘llanilishi emal strukturasi tiklash, dentin naychalarini yopish va kimyoviy bog‘lanishni mustahkamlash hisobiga eng yaxshi klinik natijalarni berdi.

Natijalarni muhokama qilish

Olingan ma‘lumotlar shuni ko‘rsatadiki, oqartirishdan keyingi davrda an‘anaviy adgeziv tizim qo‘llanishi giperesteziya va bog‘lanish kuchining pasayishiga olib keladi. Oqartirish jarayonida hosil bo‘ladigan qoldiq kislorod radikallari kompozit material polimerizatsiyasini susaytiradi.

Antioksidant (natriy askorbat) bilan ishlov berish II-guruhda bog‘lanish kuchini oshirdi, bu oksidlovchi radikallarni neytrallashtirish bilan izohlanadi.

III-guruhda remineralizatsion terapiya va bioaktiv universal adgeziv qo‘llanilishi emal strukturasi tiklash, dentin naychalarini yopish va kimyoviy bog‘lanishni mustahkamlash hisobiga eng yaxshi klinik natijalarni berdi.

10-MDP monomer asosidagi adgezivlar gidroksiapatit bilan kimyoviy bog‘lanish hosil qilishi natijasida uzoq muddatli mustahkamlik ta‘minlandi.

Oqartirishdan keyingi davrda bioaktiv universal adgeziv va remineralizatsion terapiyani kompleks qo‘llashning klinik samaradorligi birinchi marta qiyosiy baholandi.

Oqartirishdan keyingi adgeziv bog‘lanish kuchining pasayish mexanizmi klinik-statistik asosda tahlil qilindi.

Oqartirishdan keyingi asoratlar profilaktikasi uchun optimallashtirilgan klinik protokol ishlab chiqildi.

Amaliy ahamiyati. Oqartirishdan keyingi restavratsiyalarda universal bioaktiv adgeziv tizimlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Oqartirishdan so‘ng kamida 7 kun remineralizatsion terapiya o‘tkazish klinik jihatdan maqsadga muvofiq.

Antioksidant ishlov berish adgeziv bog‘lanish sifatini oshiradi.

Tavsiya etilgan protokol giperesteziya darajasini 2–3 barobarga kamaytiradi.

Xulosalar. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, tishlarni oqartirish amaliyoti estetik stomatologiyada keng qo‘llaniladigan, samarali va nisbatan xavfsiz minimal invaziv muolaja bo‘lib, bemorlarning tashqi ko‘rinishi va hayot sifatini sezilarli oshirishga xizmat qiladi. Biroq oqartirish jarayonida qo‘llaniladigan peroksid asosidagi preparatlar emal va dentin mikrostrukturasi ustida ma‘lum darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ta‘sirlar orasida emal yuzasining g‘ovaklashuvi, mikroyoriqlar paydo bo‘lishi, dentin naychalari orqali gidrodinamik oqimning kuchayishi va natijada giperesteziya rivojlanishi muhim o‘rin tutadi.

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, oqartirishdan keyingi asoratlarni kamaytirish va adgeziv bog‘lanish kuchini oshirishda zamonaviy adgeziv texnologiyalar, xususan bioaktiv universal adgezivlar va remineralizatsion preparatlar samarali vosita sifatida ishlatilishi mumkin. Antioksidant ishlov berish va remineralizatsion terapiya qo‘llanilganda giperesteziya darajasi sezilarli kamayadi, emal mikroqattiqqligi saqlanadi va adgeziv bog‘lanish kuchi

oshadi. Bu esa tishlarni oqartirishdan keyingi restavratsiyalarda uzoq muddatli klinik barqarorlikni ta'minlaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari tishlar diskoloriti sabablari, vital tishlardagi diskoloritlarni bartaraf etishning zamonaviy usullari, oqartirishning tish qattiq to'qimalariga ta'siri, giperesteziya davolash usullari va stomatologik adgeziv tizimlarning samaradorligini birlashtirilgan tarzda o'rganish imkonini berdi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kompleks yondashuv qo'llash tishlar estetik va funktsional holatini saqlash, bemorlarning hayot sifati va qoniqish darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tishlarni oqartirishdan keyingi asoratlarni profilaktika qilishda adgeziv protokollarni optimallashtirish, bioaktiv komponentlarni qo'llash va remineralizatsiyani rag'batlantirish stomatologiyaning amaliy yo'nalishlari uchun muhim ilmiy va klinik ahamiyatga ega. Kelgusida ushbu yo'nalishda qo'shimcha klinik tadqiqotlar olib borish, turli preparat va adgeziv tizimlarning uzoq muddatli samaradorligini baholash tavsiya etiladi.

Natijada, maqola tishlarni oqartirishdan keyingi asoratlarni samarali oldini olish, bemor xavfsizligini ta'minlash va estetik stomatologiya amaliyotini yanada takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimdjanovich, R. J., & Astanovich, A. A. (2023). Development of dental care in uzbekistan using a conceptual approach to improve its quality. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(4), 536-543.
2. Alimdjanovich, R. J., Abdurahmanovich, K. O., Shamsidinovich, M. D., & Shamsidinovna, M. N. (2023). Start of Telemedicine in Uzbekistan. Technological Availability. In *Advances in Information Communication Technology and Computing: Proceedings of AICTC 2022* (pp. 35-41). Singapore: Springer Nature Singapore.
3. Alimdjanovich, R. J., & Astanovich, A. A. (2023). Development of dental care in uzbekistan using a conceptual approach to improve its quality. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 4(4), 536-543.
4. Alimdjanovich, R. J., Obid, K., & Javlanovich, Y. D. (2022). Advantages of Ultrasound Diagnosis of Pulmonary Pathology in COVID-19 Compared to Computed Tomography. *Central Asian Journal of Medical and Natural Science*, 3(5), 531-546.
5. Astanovich, A. A., & Ikrombekovna, A. N. (2024). Improvement in the diagnosis of chronic periodontitis in children. *World Bulletin of Social Sciences*, 32, 68-70.
6. Astanovich, A. A. (2025). Two-Stage Dental Implantation: Clinical Stages, Methodological Approaches, And Procedural Characteristics. *European Index Library of European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 5(12), 25-30.
7. Anvarovna, A. M., & Astanovich, A. A. (2024). A COMPARATIVE ASSESSMENT OF THE EFFECTIVENESS OF ORTHODONTIC TREATMENT OF PARTIAL DENTITION DEFECTS USING DIGITAL TECHNOLOGIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 4(05), 33-40.
8. Asrorovna, X. N., Baxriddinovich, T. A., Bustanovna, I. N., Valijon O'g'li, D. S., & Qizi, T. K. F. (2021). Clinical Application Of Dental Photography By A Dentist. *The American Journal of Medical Sciences and Pharmaceutical Research*, 3(09), 10-13.
9. Bustanovna, I. N. (2024). The Effectiveness of the Use of the Drug " Proroot MTA" in the Therapeutic and Surgical Treatment of Periodontitis. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 72-75.
10. Bustanovna, I. N. (2024). Complications Arising in the Oral Cavity after Polychemotherapy in Patients with Hemablastoses. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 62-66.
11. Bustanovna, I. N., & Abdusattor o'g, A. A. A. (2024). Analysis of Errors and Complications in the Use of Endocal Structures Used in Dentistry. *International Journal of Scientific Trends*, 3(3), 82-86.
12. Bustanovna, I. N. (2024). Determination of the Effectiveness of Dental Measures for the Prevention of Periodontal Dental Diseases in Workers of the Production of Metal Structures. *International Journal of Scientific Trends*, 3(5), 108-114.
13. Sharipovna, N. N., & Bustonovna, I. N. (2022). Etiopatogenetic factors in the development of parodontal diseases in post-menopausal women. *The american journal of medical sciences and pharmaceutical research*, 4(09).
14. Nazarova, N. S., & Islomova, N. B. (2022). postmenopauza davridagi ayollarda stomatologik kasalliklarining klinik va mikrobiologik ko'rsatmalari va mexanizmlari. *Журнал" Медицина и инновации"*, (2), 204-211.
15. Назарова, Н., & Исломова, Н. (2022). Assessment of clinical and morphological changes in the oral organs and tissues in post-menopausal women. in *Library*, 22(1), 60-67.

Ortikova Nargiza Xayrullayevna
Khurramova Surayyo Dustmurodovna
Samarkand State Medical University

OPTIMIZATION OF ORTHOPEDIC DENTAL TREATMENT METHODS IN PATIENTS WITH ARTERIAL HYPERTENSION



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539423>

ANNOTATION

Arterial hypertension is one of the most common chronic cardiovascular diseases and represents a significant challenge in modern dental practice. Persistent elevated blood pressure adversely affects oral tissues, inflammatory processes, and the outcomes of orthopedic dental treatment. This article analyzes the specific features of orthopedic treatment in patients with arterial hypertension, identifies key risk factors for complications, and substantiates approaches for optimizing dental orthopedic care. The findings demonstrate that an individualized and comprehensive treatment strategy improves clinical outcomes and enhances the safety of dental interventions in this patient population.

Keywords: arterial hypertension, orthopedic dentistry, dental prosthetics, cardiovascular diseases, treatment optimization.

Ортикова Наргиза Хайруллаевна
Хуррамова Сурайё Дўстмуродовна
Самаркандский государственный
медицинский университет

ОПТИМИЗАЦИЯ МЕТОДОВ ОРТОПЕДИЧЕСКОГО ЛЕЧЕНИЯ У ПАЦИЕНТОВ С АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИЕЙ

АННОТАЦИЯ

Артериальная гипертензия является одним из наиболее распространённых хронических заболеваний сердечно-сосудистой системы и представляет значимую проблему в современной стоматологической практике. Наличие устойчиво повышенного артериального давления существенно влияет на состояние тканей полости рта, течение воспалительных процессов и эффективность ортопедического стоматологического лечения. В статье рассмотрены особенности ортопедического лечения пациентов с артериальной гипертензией, проанализированы основные факторы риска развития осложнений, а также обоснованы пути оптимизации ортопедических вмешательств. Показано, что индивидуальный и комплексный подход к выбору ортопедических конструкций и тактики лечения позволяет повысить клиническую эффективность и безопасность стоматологической помощи у данной категории пациентов.

Ключевые слова: артериальная гипертензия, ортопедическая стоматология, протезирование, сердечно-сосудистые заболевания, оптимизация лечения.

Ортикова Наргиза Хайруллаевна
Хуррамова Сурайё До‘стмуродовна
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

ARTERIAL GIPERTENZIYA BILAN OG‘RIGAN BEMORLARDA ORTOPEDIK DAVOLASH USULLARINI OPTIMALLASHTIRISH

ANNOTATSIYA

Maqolada arterial gipertenziya bilan og‘rigan bemorlarda ortopedik stomatologik davolashni rejalashtirish va amalga oshirishning dolzarb masalalari yoritilgan. Yurak-qon tomir tizimi kasalliklari, xususan arterial gipertenziya, stomatologik muolajalar vaqtida turli asoratlar rivojlanish xavfini oshiradi. Shu sababli bunday bemorlarda ortopedik davolashni individuallashtirish, xavfsiz va samarali usullarni tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada arterial gipertenziyaning klinik xususiyatlari, uning stomatologik holatga ta’siri hamda ortopedik davolashni optimallashtirish yo‘llari ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: arterial gipertenziya, ortopedik stomatologiya, protezlash, yurak-qon tomir kasalliklari, davolashni optimallashtirish.

Kirish. Hozirgi kunda arterial gipertenziya (AG) zamonaviy sog'liqni saqlash tizimining eng dolzarb tibbiy-ijtimoiy muammolaridan biri hisoblanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'yicha kattalar aholisining 30–40 foizidan ortig'i arterial gipertenziya bilan kasallangan bo'lib, kasallikning tarqalish ko'rsatkichi yil sayin ortib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida ham arterial gipertenziya yurak-qon tomir kasalliklari orasida yetakchi o'rinlardan birini egallaydi va aholi o'rtasida mehnatga layoqatli yoshdagi shaxslar orasida keng tarqalganligi bilan ajralib turadi. Arterial gipertenziya surunkali kechuvchi kasallik bo'lib, arterial qon bosimining doimiy ravishda yuqori bo'lishi bilan tavsiflanadi. Ushbu holat inson organizmida umumiy gemodinamik buzilishlar, mikrotsirkulyatsiya yetishmovchiligi va metabolik jarayonlarning izdan chiqishiga olib keladi. Kasallikning uzoq muddat davom etishi yurak, miya, buyraklar va qon tomirlar kabi muhim a'zolarining shikastlanishi bilan kechadi. Shu bilan birga, so'nggi yillarda arterial gipertenziyaning og'iz bo'shlig'i to'qimalari holatiga ta'siri stomatologiya amaliyotida tobora ko'proq e'tiborni tortmoqda. Ortopedik stomatologiya amaliyotida arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlar yuqori xavf guruhiga kiradi. Qon tomir devorlarining elastikligi pasayishi, kapillyarlarning mo'rtlashuvi, mikrotsirkulyatsiyaning buzilishi va regenerativ jarayonlarning sekinlashuvi og'iz bo'shlig'i to'qimalarining funksional holatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada periodontal kasalliklarning rivojlanishi tezlashadi, shilliq qavatlarining qonashga moyilligi ortadi, ortopedik konstruksiyalarga moslashish davri uzayadi hamda davolash samaradorligi pasayadi. Arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda ortopedik stomatologik davolash muayyan murakkabliklar bilan kechadi. Protezlash jarayoni mexanik va funksional yuklama bilan birga, bemorda psixoemotsional zo'riqishni yuzaga keltiradi. Bu holatlar muolaja davomida arterial bosimning keskin o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin. Ayniqsa, uzoq davom etadigan va travmatik stomatologik aralashuvlar gipertonik kriz, yurak ritmi buzilishlari va boshqa umumiy asoratlar xavfini oshiradi. Shu sababli bunday bemorlarda ortopedik davolashni rejalashtirishda individual yondashuv va ehtiyot choralariga alohida e'tibor qaratish zarur.

Zamonaviy ortopedik stomatologiyada qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalar va biouyg'un materiallar arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarni davolash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirmoqda. Kam invaziv usullarni qo'llash, protezlashni bosqichma-bosqich amalga oshirish, muolajalar vaqtida arterial bosimni doimiy nazorat qilish hamda terapevt yoki kardiolog bilan hamkorlikda ish olib borish davolash xavfsizligi va samaradorligini oshiradi. Shunga qaramay, arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda ortopedik davolash usullarini optimallashtirish masalalari hanuzgacha yetarlicha o'rganilmagan bo'lib, chuqur ilmiy tadqiqotlarni talab etadi.

Shu munosabat bilan arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda ortopedik stomatologik davolashni optimallashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar dolzarb hisoblanadi. Ushbu yondashuv nafaqat klinik natijalarni yaxshilashga, balki bemorlarning hayot sifatini oshirishga ham xizmat qiladi va zamonaviy stomatologiya fanining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot maqsadi

Arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda ortopedik stomatologik davolashni takomillashtirish va optimallashtirish yo'llarini ilmiy asoslash.

Tadqiqot materiallari va usullari

Mazkur tadqiqot klinik-kuzatuv, taqqoslov va tahliliy usullar asosida olib borilmoqda. Tadqiqot ishlari ortopedik stomatologiya yo'nalishida olib borilib, arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda og'iz bo'shlig'i holati va ortopedik davolash jarayonining o'ziga xos jihatlarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot materiali sifatida 45–65 yosh oralig'idagi arterial gipertenziya tashxisi qo'yilgan, tish qatorlarida nuqsonlar mavjud bo'lgan va ortopedik stomatologik davolashga muhtoj bemorlar tanlab olindi. Arterial gipertenziya tashxisi terapevt yoki kardiolog tomonidan klinik va instrumental tekshiruvlar asosida tasdiqlangan bemorlar tadqiqotga kiritildi. Tadqiqotga kiritish mezonlari sifatida bemorlarning umumiy somatik holati nisbatan barqarorligi, og'ir yurak yetishmovchiligi va o'tkir somatik kasalliklarning mavjud emasligi inobatga olindi. Nazorat guruhi sifatida yurak-qon tomir tizimi kasalliklari aniqlanmagan, yosh va jins ko'rsatkichlari bo'yicha asosiy guruhga yaqin bo'lgan shaxslar jalb etildi. Bu holat arterial gipertenziyaning og'iz bo'shlig'i to'qimalari va ortopedik davolash natijalariga ta'sirini solishtirma baholash imkonini berdi.

Barcha bemorlar kompleks stomatologik tekshiruvdan o'tkazildi. Tekshiruv jarayonida og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining holati, periodontal to'qimalar, tishlarning anatomik va funksional holati, tish qatorlaridagi nuqsonlarning turi va joylashuvi baholandi. Periodontal holatni aniqlashda gigiyenik indekslar, gingival qonash darajasi, yallig'lanish belgilari va parodont cho'ntaklarining chuqurligi o'rganildi. Ortopedik stomatologik davolash jarayonida bemorlarga metallokeramik hamda zamonaviy metall bo'lmagan protez konstruksiyalari qo'llanildi. Protez turini tanlashda bemorning umumiy somatik holati, arterial qon bosimi darajasi, qabul qilinayotgan dori vositalari, shuningdek, og'iz bo'shlig'i to'qimalarining individual anatomik va fiziologik xususiyatlari inobatga olindi. Davolash jarayonida minimal invaziv yondashuv tamoyillariga amal qilindi.



Davolashdan oldin, davolash jarayonida va davolashdan keyingi kuzatuv davrida bemorlarning arterial qon bosimi darajasi muntazam ravishda nazorat qilindi. Stomatologik muolajalar vaqtida stress omillarini kamaytirish, og'riqsizlantirishning xavfsiz usullaridan foydalanish hamda umumiy holatni barqaror saqlashga alohida e'tibor qaratildi. Davolashdan keyingi davrda protezlarning funksional moslashuvi, bemorlarning subyektiv shikoyatlari (og'riq, noqulaylik, charchash hissi), shuningdek, mumkin bo'lgan mahalliy va umumiy asoratlar tahlil qilindi. Olingan klinik ma'lumotlar taqqoslov tahlil asosida baholanib, davolash samaradorligi aniqlandi.

O'tkazilgan klinik tadqiqotlar natijasida arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarda og'iz bo'shlig'i to'qimalarining holati va ortopedik stomatologik davolash jarayonining o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Tadqiqot davomida asosiy va nazorat guruhlaridagi bemorlar ko'rsatkichlari taqqoslab tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalari

Asosiy guruhdagi bemorlarda (arterial gipertenziya bilan og'rigan shaxslar) periodontal to'qimalarda yallig'lanish jarayonlari ko'proq uchrashi kuzatildi. Xususan, gingival qonash, shish va giperemiya belgilari nazorat guruhiga nisbatan ancha yuqori ko'rsatkichlarni tashkil etdi. Shuningdek, parodont cho'ntaklarining chuqurligi va gigiyenik indekslar arterial gipertenziyasi bo'lgan bemorlarda salbiy tomonga og'ish tendensiyasini ko'rsatdi.

Quyidagi diagrammalar arterial gipertenziya bilan ogʻrigan bemorlar va nazorat guruhi oʻrtasidagi asosiy klinik koʻrsatkichlarni vizual tarzda aks ettiradi. Ogʻiz boʻshligʻi shilliq qavatining holatini baholash natijalariga koʻra, arterial gipertenziya bilan ogʻrigan bemorlarda shilliq qavatning quruqligi, rang oʻzgarishi va sezuvchanlikning ortishi kabi belgilar koʻproq qayd etildi. Bu holat, asosan, arterial gipertenziyani davolashda qoʻllaniladigan dori vositalarining nojoʻya taʼsiri hamda mikrotsirkulyatsiya buzilishlari bilan bogʻliq ekanligi aniqlandi. Ortopedik stomatologik davolash natijalari tahlil qilinganda, arterial gipertenziya bilan ogʻrigan bemorlarda protezlarga moslashuv jarayoni nisbatan sekinroq kechishi kuzatildi.





Davolashdan keyingi dastlabki davrda ayrim bemorlarda noqulaylik hissi, shilliq qavatda bosim sezilishi va charchash holatlari qayd etildi. Biroq, individual yondashuv asosida tanlangan protez konstruksiyalari va davolash taktikasining optimallashtirilishi ushbu salbiy holatlarning bosqichma-bosqich kamayishiga olib keldi.

Davolashdan keyingi kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, arterial qon bosimi darajasi nazorat ostida bo'lgan bemorlarda ortopedik davolash samaradorligi yuqori bo'ldi. Protezlarning funksional barqarorligi, chaynash samaradorligi va estetik ko'rsatkichlari ijobiy baholandi. Nazorat guruhiga nisbatan asosiy guruhda dastlabki moslashuv davri uzoqroq bo'lsa-da, uzoq muddatli natijalarda sezilarli farqlar aniqlanmadi. Olingan natijalar arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda ortopedik stomatologik davolashni rejalashtirishda bemorning umumiy somatik holatini, arterial qon bosimi darajasini va periodontal to'qimalar holatini majburiy inobatga olish zarurligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari asosida individual yondashuv va kompleks samaradorligini sezilarli darajada oshirishi isbotlandi.

Natijalarni muhokama qilish.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda og'iz bo'shlig'i to'qimalarining holati hamda ortopedik stomatologik davolash jarayonining o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan ma'lumotlar asosiy va nazorat guruhlarida o'rtasida sezilarli klinik farqlar mavjudligini tasdiqladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda periodontal to'qimalarda yallig'lanish jarayonlarining yuqoriroq darajada namoyon bo'lishi kuzatildi. Bu holat, bir tomondan, arterial gipertenziya bilan kechuvchi mikrotsirkulyatsiya buzilishlari, kapillyar devorlarining o'tkazuvchanligi ortishi va to'qimalarning trofik ta'minoti yomonlashuvi bilan izohlanadi. Ikkinchi tomondan, gipertenziv bemorlarda uzoq muddat qabul qilinadigan dori vositalari (antigipertenziv preparatlar) og'iz bo'shlig'i shilliq qavatining quruqligi va regenerativ jarayonlarning sekinlashuviga olib kelishi mumkin. Protezga moslashuv muddati bo'yicha olingan natijalar ham muhim klinik ahamiyatga ega bo'ldi. Asosiy guruhdagi bemorlarda protezlarga moslashuv jarayoni nazorat guruhiga nisbatan sekinroq kechishi aniqlanib, bu holat umumiy somatik holat, arterial bosimning barqaror emasligi hamda psixosotsial omillar bilan bog'liq ekanligi qayd etildi. Shu bilan birga, davolash jarayonida

individual yondashuv qo'llanilganda va arterial bosim nazorati ta'minlanganda moslashuv jarayonining ijobiy tomonga o'zgarishi kuzatildi. Bemorlarning qoniqish darajasi ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, davolashning yakuniy bosqichida asosiy va nazorat guruhlarida o'rtasida sezilarli farqlar aniqlanmadi. Bu holat ortopedik davolashni to'g'ri rejalashtirish, zamonaviy protez konstruksiyalaridan foydalanish va kompleks yondashuv asosida arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda ham yuqori klinik va funksional natijalarga erishish mumkinligini tasdiqlaydi.

Olingan natijalar adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar bilan solishtirilganda, arterial gipertenziya va periodontal to'qimalar holati o'rtasida yaqin patogenetik bog'liqlik mavjudligi haqidagi fikrlarni qo'llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari ortopedik stomatologik davolash jarayonida arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlar uchun maxsus optimallashtirilgan davolash taktikasini ishlab chiqish zarurligini ko'rsatadi. Natijalarni muhokama qilish shuni ko'rsatdiki, arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda ortopedik stomatologik davolash faqat mahalliy stomatologik muammo sifatida emas, balki umumiy somatik holat bilan uzviy bog'liq kompleks jarayon sifatida qaralishi lozim. Bu yondashuv davolash samaradorligini oshirish, asoratlar xavfini kamaytirish va bemorlarning hayot sifatini yaxshilash imkonini beradi.

Xulosalar. Arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarda og'iz bo'shlig'i to'qimalarida yallig'lanish jarayonlari ko'proq namoyon bo'lib, periodontal holatning buzilishi va shilliq qavatning sezuvchanligi ortishi kuzatildi. Bu holat arterial gipertenziya bilan bog'liq mikrotsirkulyatsiya buzilishi va dori vositalarining nojo'ya ta'siri bilan izohlanadi. Ortopedik stomatologik davolash jarayonida arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlar protezlarga moslashishda uzoqroq vaqt talab qiladilar. Shu bilan birga, individual yondashuv va arterial bosim nazorati davolash samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Protezlashdan keyingi uzoq muddatli kuzatuvlarda bemorlarning qoniqish darajasi asosiy va nazorat guruhlarida o'rtasida sezilarli farq ko'rsatmagan, bu ortopedik davolashning to'g'ri rejalashtirilishi va zamonaviy protez konstruksiyalaridan foydalanish natijasidir. Tadqiqot natijalari arterial gipertenziya bilan og'rikan bemorlarni ortopedik stomatologik davolashni rejalashtirishda individual yondashuv, bemorning umumiy somatik holatini hisobga olish va kompleks davolash strategiyasini qo'llash zarurligini ko'rsatadi. Olingan

ma'lumotlar asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar klinik asoratlar xavfini kamaytirishga va bemorlarning hayot sifatini amaliyotda arterial gipertenziya bilan og'rigan bemorlarni yaxshilashga xizmat qiladi. ortopedik stomatologik davolash samaradorligini oshirishga,

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ризаев Ж.А., Ахмедов А.А. Ортопедическая стоматология: современные подходы к восстановлению коронковой части зубов. – Самарканд, 2022.
2. Ризаев Ж.А. Клинические аспекты ортопедического лечения депульпированных зубов. – Ташкент: Медицина, 2021.
3. Ахмедов А.А., Нурматов Ш.Б. Штифтово-культевые конструкции в стоматологии. – Ташкент, 2020.
4. Ferrule effect and post-core restorations: A systematic review // *Journal of Prosthetic Dentistry*. – 2019.
5. Morgano S.M., Milot P. Clinical success of fiber posts // *Journal of Prosthetic Dentistry*. – 2020.
6. Bitter K., Meyer-Lueckel H. Fiber-reinforced post systems // *International Endodontic Journal*. – 2018.
7. Schwartz R.S., Robbins J.W. Post placement and restoration of endodontically treated teeth // *Journal of Endodontics*. – 2017.
8. Akkayan B., Gulmez T. Resistance to fracture of endodontically treated teeth restored with different post systems // *Journal of Prosthetic Dentistry*. – 2019.
9. Naumann M., Sterzenbach G. Influence of post material on stress distribution // *Dental Materials*. – 2021.
10. Fokkinga W.A. et al. A systematic review on survival of post-retained restorations // *International Journal of Prosthodontics*. – 2018.
11. Heydecke G., Peters M.C. The restoration of endodontically treated teeth // *Journal of Adhesive Dentistry*. – 2019.
12. Ferrari M., Vichi A., Mannocci F. Fiber posts and their clinical applications // *American Journal of Dentistry*. – 2020.
13. Al-Omiri M.K., Mahmoud A.A. Fracture resistance of teeth restored with fiber posts // *Journal of Oral Rehabilitation*. – 2019.
14. Torbjorner A., Fransson B. A literature review on prosthetic treatment of structurally compromised teeth // *International Journal of Prosthodontics*. – 2018.
15. Sidoli G.E., King P.A. Effect of post design on root fracture // *Journal of Prosthetic Dentistry*. – 2017.
16. Mancebo J.C., Jimenez-Castellanos E. Comparison of metal and fiber posts // *Dental Traumatology*. – 2020.
17. Boschian Pest L. et al. Adhesive post-endodontic restorations // *Dental Materials Journal*. – 2021.
18. Plotino G., Grande N.M. Clinical evaluation of fiber post systems // *Journal of Endodontics*. – 2019.
19. Кузнецов В.В. Современные материалы в ортопедической стоматологии. – Москва: ГЭОТАР-Медиа, 2021.
20. Al-Ali K. Prosthodontic management of endodontically treated teeth // *Saudi Dental Journal*. – 2022.

Akhmedov Alisher Astanovich
Toiyrov Jahongir Sobirovich
Samarkand State Medical University

MORPHOFUNCTIONAL FEATURES OF ENAMEL AND PRINCIPLES OF PREVENTIVE THERAPY FOR PATIENTS WITH EARLY MANIFESTATIONS OF INCREASED TOOTH WEAR



<http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.19539432>

ANNOTATION

Tooth wear is a physiological process, but early diagnosis and the occurrence of dental abrasion in young adults and even children should not be overlooked. In Birmingham, UK, 48% of 14-year-old children have mild erosions, 51% moderate erosions, and 1% severe erosions. A number of issues related to diagnosis and planning a comprehensive approach to dental care for patients with dental abrasion remain insufficiently studied and addressed. As demineralization progresses, leading to abrasion of hard dental tissue, the defect size reaches the mid-wavelengths of the visible spectrum (approximately 500 nm) and becomes visually noticeable. It is known that the probability of disappearance of a microdefect within the enamel is determined by the integrity of the protein matrix, the size and degree of its demineralization, the composition and properties of oral fluid, as well as the competent implementation of remineralizing therapy based on knowledge of the composition and properties of enamel, the mechanisms of loss and accumulation of mineral components in it. The structural unit of enamel is the enamel prism, which is 4 to 7 mkm thick.

Ахмедов Алишер Астанович
Тойиров Жахонгир Собирович
Самаркандский Государственный
Медицинский Университет

МОРФОФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ ЭМАЛИ И ПРИНЦИПЫ ПРЕВЕНТИВНОЙ ТЕРАПИИ ПАЦИЕНТОВ С РАННИМИ ПРОЯВЛЕНИЯМИ ПОВЫШЕННОЙ СТИРАЕМОСТИ ЗУБОВ

АННОТАЦИЯ

Истирание зубов - это физиологический процесс, но не стоит упускать из внимания раннюю диагностику и явления ПСЗ в молодом и даже детском возрасте. В Бирмингеме, Великобритании, 48 % 14-ти летних детей имеют небольшие эрозии, 51 % умеренные эрозии, и 1 % сильные эрозии. Ряд вопросов диагностики и планирования комплексного подхода к оказанию стоматологической помощи больным с ПСЗ остаются недостаточно изученными и освещенными. При прогрессировании деминерализации, приводящей к стиранию твердых тканей зуба, размер дефекта достигает длины средних волн видимого спектра (около 500 нм) и становится заметен визуально.

Известно, что вероятность исчезновения микродефекта в пределах эмали определяется сохранностью белковой матрицы, размером и степенью его деминерализации, составом и свойствами ротовой жидкости, а также грамотным проведением реминерализующей терапии, основанном на знании состава и свойств эмали, механизмов потери и накопления в ней минеральных компонентов. Структурной единицей эмали является эмалевая призма «толщиной» от 4 до 7 мкм.

Ключевые слова: износ твердых тканей зубов, патологическая стираемость, эрозия, атриция, абразия, абфракция, минимально инвазивное лечение.

Axmedov Alisher Astanovich
Toiyrov Jahongir Sobirovich
Samarqand davlat tibbiyot universiteti

TISHLARNING YEMIRILISHINING ERTA NAMOYON BO'LISHI BILAN OG'RIGAN BEMORLARDA EMALNING MORFOFUNKSIONAL XUSUSIYATLARI VA PROFILAKTIK TERAPIYA TAMOYILLARI

ANNOTATSIYA

Tishlarning yemirilishi fiziologik jarayondir, ammo erta tashxis qo'yish va yosh kattalar va hatto bolalarda tishlarning yemirilishi rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Buyuk Britaniyaning Birmingem shahrida 14 yoshli bolalarning 48 foizida kichik eroziyalar, 51 foizida o'rtacha eroziyalar va 1 foizida og'ir eroziyalar mavjud. Tish yemirilishi bilan og'rigan bemorlar uchun stomatologik yordamga kompleks yondashuvni tashxislash va rejalashtirishning bir qancha jihatlari yetarlicha o'rganilmagan va ko'rib chiqilmagan. Demineralizatsiya davom etar ekan, qattiq tish to'qimalarining yemirilishiga olib keladi, nuqson hajmi ko'rinadigan spektrning o'rta to'lqin uzunligiga (taxminan 500 nm) etadi va vizual ravishda sezilarli bo'ladi. Ma'lumki, mikrodefektning emal ichida yo'q bo'lib ketish ehtimoli oqsil matritsasining yaxlitligi, demineralizatsiya hajmi va darajasi, og'iz suyuqligining tarkibi va xususiyatlari, shuningdek, emalning tarkibi va xususiyatlarini hamda minerallarning yo'qolishi va to'planish mexanizmlarini tushunishga asoslangan remineralizatsiya terapiyasini to'g'ri qo'llash bilan belgilanadi. Emalning strukturaviy birligi qalinligi 4 dan 7 mkm gacha bo'lgan emal prizmasi hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Tishlarning jadal yemirilishi, tez rivojlanuvchi kariyes, minimal invaziv stomatologiya, remineralizatsiya terapiyasi, profilaktik stomatologiya, biofaol materiallar, kariyes xavfini baholash.

Kirish. Tishlarning qattiq to'qimalari yemirilishi, xususan jadal rivojlanadigan shakllari, bugungi kunda stomatologik amaliyotda muhim klinik va ijtimoiy ahamiyatga ega muammo hisoblanadi. Kasallikning ushbu turi qisqa vaqt ichida emal va dentinning sezilarli darajada shikastlanishi bilan kechib, tishlarning funksional va estetik holatini buzadi. Jadal yemirilish ko'pincha bolalar, o'smirlar va umumiy organizm holati zaiflashgan bemorlarda uchraydi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tishlarning jadal yemirilishi multifaktorial etiologiyaga ega bo'lib, kariyesogen mikroorganizmlar faolligi, og'iz bo'shlig'i gigiyenasining yetarli emasligi, uglevodlarga boy va tez-tez iste'mol qilinadigan ovqatlar, so'lakning miqdoriy va sifat o'zgarishlari asosiy patogen omillar hisoblanadi. Bundan tashqari, endokrin tizim kasalliklari, oshqozon-ichak yo'li patologiyalari hamda immun holatning pasayishi jarayonni yanada tezlashtiradi. An'anaviy davolash usullari ko'pincha to'qimalarning katta hajmda olib tashlanishiga olib kelgan bo'lsa, zamonaviy stomatologiya tish to'qimalarini maksimal darajada saqlab qolishga qaratilgan konsepsiyalarni ilgari suradi. Bugungi kunda minimal invaziv davolash, remineralizatsiya terapiyasi, individual xavf darajasini baholash va profilaktik yondashuvlar jadal yemirilishning oldini olish va uning rivojlanishini sekinlashtirishda asosiy yo'nalish sifatida qaralmoqda. Tishlarning yemirilishi fiziologik jarayondir, ammo erta tashxis qo'yish va yosh kattalar va hatto bolalarda tishlarning yemirilishi rivojlanishini e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Buyuk Britaniyaning Birmingem shahrida 14 yoshli bolalarning 48 foizida kichik eroziyalar, 51 foizida o'rtacha eroziyalar va 1 foizida og'ir eroziyalar mavjud. Tish yemirilishi bilan og'rigan bemorlar uchun stomatologik yordamga kompleks yondashuvni tashxislash va rejalashtirishning bir qancha jihatlari yetarlicha o'rganilmagan va ko'rib chiqilmagan. Demineralizatsiya davom etar ekan, qattiq tish to'qimalarining yemirilishiga olib keladi, nuqson hajmi ko'rinadigan spektrning o'rta to'lqin uzunligiga (taxminan 500 nm) etadi va vizual ravishda sezilarli bo'ladi. Ma'lumki, mikrodefektning emal ichida yo'q bo'lib ketish ehtimoli oqsil matritsasining yaxlitligi, demineralizatsiya hajmi va darajasi, og'iz suyuqligining tarkibi va xususiyatlari, shuningdek, emalning tarkibi va xususiyatlarini hamda minerallarning yo'qolishi va to'planish mexanizmlarini tushunishga asoslangan remineralizatsiya terapiyasini to'g'ri qo'llash bilan belgilanadi. Emalning strukturaviy birligi qalinligi 4 dan 7 mkm gacha bo'lgan emal prizmasi hisoblanadi. Emal prizmalari zich joylashgan gidroksiapatit yoki fluorapatit kristallaridan hosil bo'ladi, ularning hajmi emalning yetukligiga qarab 1 dan 5 mkm gacha o'zgaradi. Hozirgi vaqtda gel va kolloid shakllardagi biologik faol kaltsiy fosfatlari (CP) yumshoq va qattiq to'qimalarning regeneratsiyasi bilan bog'liq klinik tibbiyotning ko'plab sohaslarida tobora ko'proq qiziqish

uyg'otmoqda. Apatitlarning biologik faolligi asosan ularning zarrachalari yoki donalarining hajmiga bog'liqligi va moddaning kattaroq tarqalishi bilan yanada aniqroq bo'lishi aniqlangan. Sof birikmalar bilan bir qatorda, bioaktiv materiallarning turli xil kombinatsiyalari yopishish, bioaktivlik va biososlik kabi xususiyatlarni yaxshilash uchun juda istiqbolli hisoblanadi. Yaxshilangan xususiyatlarga ega material ishlab chiqarish uchun kaltsiy gidroksiapatitini (HAP) modifikatsiyalashning istiqbolli yondashuvi HAP tuzilishiga ftor va kremniy atomlarini kiritishdir. Ushbu transformatsiya materialning inson tanasining kimyoviy faol muhitida barqarorligini yaxshilaydi (ftor ionlari mavjudligi sababli) va uning bioaktivligini oshiradi (silikat ionlari mavjudligi sababli), shu bilan birga HAP ning o'ziga xos biososligini saqlab qoladi. Nanotexnologiya nanostrukturalar, qurilmalar va tizimlarni o'rganish, ishlab chiqarish va ulardan foydalanishda qo'llaniladigan texnika va usullar to'plamini ifodalaydi, jumladan, yangi kimyoviy, fizik va biologik xususiyatlarga ega obyektlarni ishlab chiqarish uchun ularning nanoskala komponentlarining (1-100 nm) shakli, o'lchami, o'zaro ta'siri va integratsiyasini maqsadli boshqarish va o'zgartirish.

Patologik rivojlanish joyiga dori vositalarini maqsadli yetkazib berish mavjud dori terapiyasining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Zamonaviy stomatologiya sohasidagi istiqbolli yo'nalish - bu invaziv bo'lmagan davolash va tish kasalliklarini erta oldini olish maqsadida nano o'lchamli zarrachachalar bilan yangi farmakologik preparatlarni yaratishdir.

Maqsad. Tish emalining morfostruktural xususiyatlarini har tomonlama tahlil qilish asosida, tish yemirilishi kuchayishi erta belgilari bo'lgan bemorlarda profilaktika terapiyasiga ilmiy asoslangan differentsial yondashuvni ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari.

-Tishlarning yemirilishining kuchayishi klinik ko'rinishlarining dastlabki bosqichlarida emalning morfofunktsional xususiyatlarini aniqlash.

-Nanostrukturali ftorgidroksiapatit asosida yangi terapevtik va profilaktik vositani ishlab chiqish va uning umumiy va mahalliy ta'sirini baholash.

-PADning dastlabki bosqichlarida namoyon bo'lgan bemorlarni kompleks davolashda ushbu yangi terapevtik va profilaktik vositani klinik qo'llash usullarini taklif qilish.

-PADning dastlabki bosqichlarida profilaktik terapiyaga differentsial yondashuvni joriy etish, dinamik monitoring o'tkazish va uning samaradorligini baholash.

-Tishlarning yemirilishining kuchayishi erta bosqichlarida namoyon bo'lgan bemorlarni kompleks davolash algoritmini takomillashtirish va natijalarni tish salomatligi bilan bog'liq hayot sifatini baholash nuqtai nazaridan tahlil qilish.

Tadqiqot materiallari va usullari.

Tadqiqotga 2023–2025-yillar davomida Samarqand davlat tibbiyot universiteti klinikasida ortopedik stomatologik davolanish uchun murojaat qilgan 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan 50 nafar bemor kiritildi. Klinik va laborator tekshiruvlardan o'tkazildi, tishlarning holati DMF indeksi yordamida baholandi, so'lakning miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari sialometriya usuli orqali aniqlandi.

Bemorlar ikki guruhga ajratildi. Nazorat guruhida an'anaviy davolash usullari qo'llanildi. Asosiy guruhda esa minimal invaziv preparatsiya, remineralizatsiya terapiyasi hamda fluor, kalsiy-fosfat birikmalariga asoslangan biofaol materiallardan foydalanildi. Davolash natijalari 6 oy davomida dinamik kuzatuv asosida baholandi.

Rasm1. Tishlarning generallashtgan yemirilishi.



Rasm2. Tishlarning lokal yemirilishi.



Restavratsiyalarning klinik samaradorligi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

- restavratsiyaning funksional barqarorligi;
- chaynash yuklamasi ostida mustahkamligi;
- og'riq sezgilari va patologik harakatchanlikning yo'qligi;
- chetki moslashuv sifati;
- estetik ko'rsatkichlar;
- ildiz va periapikal to'qimalarning rentgenologik holati.

Nazorat ko'riklari davolashdan so'ng 6 va 12 oy muddatlarda o'tkazildi.

Rentgenologik tekshiruv usullari

Tishlarning jadal yemirilishini aniqlash va kariyes jarayonining chuqurligi hamda dentin to'qimasiga tarqalish darajasini baholash maqsadida rentgenologik tekshiruvlar o'tkazildi. Bunda periapikal rentgenografiya va bite-wing (tishlararo) rentgen tasvirlaridan foydalanildi. Rentgenologik tekshiruvlar yashirin kariyes o'choqlarini aniqlash, dentin strukturasi o'zgarishlarini baholash hamda davolash taktikasini tanlashda muhim diagnostik ahamiyatga ega bo'ldi. Olingan rentgen tasvirlar kariyes jarayonining bosqichlari, mineralizatsiya darajasi va patologik o'zgarishlarning lokalizatsiyasiga ko'ra tahlil qilindi. Rentgenologik ma'lumotlar klinik ko'rsatkichlar bilan solishtirildi va kompleks baholash amalga oshirildi.

Laborator va funksional tekshiruvlar

So'lak ajralishining miqdoriy ko'rsatkichlari sialometriya usuli yordamida aniqlanib, so'lakning pH darajasi va mineral tarkibi baholandi. Ushbu ko'rsatkichlar kariyes jarayonining faolligini aniqlashda muhim mezon sifatida qabul qilindi.

Statistik ma'lumotlarni qayta ishlash

Tadqiqot davomida olingan barcha klinik, rentgenologik va laborator ma'lumotlar statistik jihatdan qayta ishlandi. Natijalar o'rtacha qiymat (M) va standart og'ish ($\pm SD$) ko'rinishida ifodalandi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarni aniqlash uchun variatsion statistik tahlil usullari qo'llanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi $p < 0,05$ mezon asosida baholandi. Statistik tahlil zamonaviy davolash konsepsiyalarining klinik samaradorligini obyektiv baholash va olingan natijalarning ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi. Olingan ma'lumotlar standart kuzatuv kartalarida qayd etildi. Miqdoriy ko'rsatkichlar uchun o'rtacha qiymat va standart og'ish hisoblandi. Natijalar guruhlar o'rtasida tavsifiy statistik tahlil yordamida solishtirildi. Tadqiqot Xelsinki deklaratsiyasi talablariga muvofiq amalga oshirildi. Barcha bemorlardan davolash va klinik ma'lumotlardan ilmiy maqsadlarda foydalanish uchun yozma ravishda ongli rozilik olindi.

Tadqiqot natijalari

Bemorlarning klinik tavsifi va davolash hajmi

Tadqiqot davomida 50 nafar bemorda ortopedik davo amalga oshirildi. Tiklangan tishlarning asosiy qismini yuqori va pastki jag'ning premolyar hamda molyar tishlari tashkil etdi, bu esa

mazkur tishlarning funksional yuklamasi yuqori ekanligi bilan izohlanadi.

Bemorlarning aksariyatida tish toj qismi 30–40% gacha yo‘qotilganligi aniqlandi.

Jadval 1. Tadqiqotda tiklangan tishlarning joylashuviga ko‘ra taqsimlanishi

Tish guruhi	Tiklangan tishlar soni	Ulushi (%)
Kesuvchi tishlar	12	20.7
Qoziq tishlar	9	15.5
Premolyarlar	18	31.0
Molyarlar	19	32.8

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, eng ko‘p tiklash ishlari chaynash yuklamasi yuqori bo‘lgan molyar va premolyar tishlarda amalga oshirilgan.

Klinik moslashuv va erta davr natijalari. Davolashdan keyingi dastlabki 7–14 kun davomida bemorlarning shikoyatlari, og‘riq sezgisi va yumshoq to‘qimalarning holati baholandi.

Jadval 2. Davolashdan keyingi 14 kun ichidagi klinik holatlar

Klinik ko‘rsatkichlar	Bemorlar soni	Ulushi (%)
Og‘riqsiz holat	34	85.0
Yengil noqulaylik	5	12.5
Og‘riq sindromi	1	2.5

Qayd etilgan yengil og‘riq holatlari qisqa muddatli bo‘lib, qo‘shimcha dori vositalarisiz bartaraf etildi.

Funksional samaradorlikni baholash natijalari. Tishlarning chaynash funksiyasi davolashdan oldin va keyin taqqoslama asosida baholandi.

Jadval 3. Chaynash funksiyasining tiklanish ko‘rsatkichlari

Baholash bosqichi	O‘rtacha ko‘rsatkich (%)
O‘rtacha ko‘rsatkich (%)	54,2 ± 4,0
Davolashdan keyin	87,6 ± 3,2

Ortopedik davo ko‘rsatilgandan so‘ng funksional tiklanishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatadi.

Rentgenologik nazorat natijalari. Rentgenologik tekshiruvlar davolashdan so‘ng 3 va 6 oy o‘tgach amalga oshirildi.

Jadval 4. 6 oydan so‘ng rentgenologik baholash natijalari

